O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

**Qulyozma huquqida**


## MUHIDDINOV SUNNATULLO INOYATOVICH


# XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA O`RTA ZARAFSHON VOHASIDA MADANIY HAYOT

**5A220201 – Vatan tarixi mutaxassisligi**
**"O'zbekiston tarixi" bo`yicha magistr darajasini olish uchun**

## MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

**Ish ko`rib chiqildi va himoyaga ruxsat berildi**
**«O'zbekiston tarixi» kafedrasi mudiri**

**prof. Sh.S.G'afforov ____________**

**Ilmiy rahbar:**
**Dots. A.M.Malikov ____________**

**M.O`**

**S A M A R Q A N D - 2009**

**MUNDARIJA**


**KIRISH…………………………………………………………………... 3-10**

**I. BOB.** ***XIX ASR VA XX ASR BOSHLARIDA MAORIF TIZIMI VA ILM-AN…………………………………………………………. 11-36***

*§ 1.1.* ***XIX asrning birinchi yarmida maorif tizimi va ilm-fan……………………………………………………. 11-22***

*§ I.2.* ***XIX asrning oxiri XX asr boshlarida maorif tizimi va ilm-fan………………………………………………………… 22-36***

**II – BOB** ***XIX VA XX ASR ASR BOSHLARIDA ADABIY MUHIT……………………………………………………… 37-60***

*§ 2.1.* ***XIX asrning birinchi yarmida adabiy muhit……….. 37-47***

*§ 2.2.* ***XIX asrning oxiri XX asr boshlarida adabiy muhit… 47-60***

**III - BOB** ***XIX ASR XX ASR BOSHLARIDA ME`MORCHILIK…… 61-96***

*§3.1.* ***XIX asrXX asr boshlarida mahalliy me`morchilik….. 61-80***

*§3.2* ***Rossiya istilosi davrida qurilish ishlari……………… 81-97***

**XULOSA…………………………………………………………… 98-100**

**ILOVA……………………………………………………………… 101-108**

**FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI…………………….. 108-116**

## KIRISH.

**Mavzuning dolzarbligi.** Naslu nasabini bilmagan kishi inson sanalmaydi. Necha yillar bizni tariximizdan dinimizdan, ma'naviy merosimizdan g'ofil etishga urindilar. Ammo biz hurriyatni orzu etishdan hurriyat uchun kurashishdan charchamadik. Maslagimizni, nasl-nasabimizni doimo yodda saqladik.[1]

Ko'hna tarix zarvaraqlaridan ayonki Turon diyori jahon svilizatsiyasi o'chog'laridan hisoblanadi va turli davrlarda turfa nomlar bilan atalgan. Ming afsuski ona yurtimiz osmonida qora kunlar, ayanchli yillar ko'p bo'lgan. Bu qadimiy boy yurtga yovuz ko'z bilan qaraganlar, uning behisob boyliklariga egalik qilmoqchi bo'lganlar ko'p bo'lgan. Mana shu tabarruk tuproqni deb Spitamenning boshi tanasidan judo bo'ldi, shu betakror yurt uchun Jaloliddin Manguberdi-yu Temur Maliklar jon berdi, Namoz Pirimqul o'g'lining boshi kesildi, minglarcha vatanparvarlarning faryodlaridan kurrai zamin larzaga tushdi. Tafakkur isyon qildi.

Hech shubhasiz bu buyuk tarixni o'rganish biz uchun farzdir. Zero, prezidentimiz ta'birlari bilan aytganda " Har bir millat har bir xalq o'z nasl nasabini kelajak avlodini asrab avaylab uning qadrini bilsa unday millatning, unday davlatning kelajagi buyuk bo'lishi muqarrar. Tarix xalq ma'naviyatining asosidir."[2] Muxtaram prezidentimizning o'zbek xalqi tarixini davlatchiligimiz tarixshunosligini haqqoniy qilib yaratish uchun ahamiyat berib kelayotganliklarining mohiyati ham shundadir. Tariximizni chuqur bilib yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklardan kerakli xulosa, o'git, saboq olishimiz bugunimiz va porloq kelajagimiz uchun asos bo'lishi shubhasizdir. Tarixni bilish kelajakdagi xatolarning oldini oladi, tarixiy saboq o'ziga xos himoyalanish va to'g'ri yo'lni tanlash demakdir. Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek «o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmaydi, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, halqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur.
Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur!»[3].

Har qanday jamiyat hayotida olamshumul o'zgarishlar bo'ladiki ular bosqichma-bosqich bir necha o'n yilliklar xatto bir necha asrlar davomida amalga oshishi mumkin. Shu bois tarixiy o'tmish saboqlarini hisobga olmasdan mamlakatimizda yashagan

[1] Каримов И.А. Ёшларимиз—халқимизнинг ишончи ва таянчи.- Т: 2000. 45-бет.
[2] Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, еркин ва фаравон ҳаёт – пировард мақсадимиз.- Т.: 2000. 43-бет
[3] Каримов И.А. Ўз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурмоқдамиз «Туркистон газетаси мухбирининг саволларига жавоблар». -Т.: 1999. 149 бет.

xalqlarning tarixiy tajribasidagi ijobiy va salbiy jihatlarni chuqur ilmiy tahlil qilmasdan, bugungi kunda yurtimizda ro'y berayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini to'liq tushunish hamda baholashning imkoni bo'lmaydi.[1] Istiqlol sharofati ila mamlakatimizda milliy qadriyatlar e'zoz topayapti. Qisqa yillar ichida O'zbekiston uchun milliy davlatchilikni tiklash, jamiyatni demokratiya asosida qayta qurish davri bo'ldi. O`z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo`q. Bu haqiqat kishilik tarixida ko`p bora o`z isbotini topgan. Millatni asrash kerak, buning uchun esa uning haqiqiy tarixini o'rganish avaylab himoyalash kerak.[2] Buyuk kelajak uchun millatimiz ertasi uchun o'tmishimizni bilishimiz kerak.

Zarafshon vohasi insoniyat yashab kelayotgan eng qadimgi hududlardan biri bo`lib unga bo`lgan qiziqish va intilish antik davr mualliflaridan tortib to hozirgi zamon tarixchilarigacha kuchli bo`lgan. Zarafshon - uzoq tarixga ega bo'lgan qadimiy daryodir. Daryo janubiy tomondan Hisor, Zarafshon tizmalari, shimoliy tomondan Turkiston tizma tog'lari bilan tutashgan Zarafshon muzligidan boshlanadi. Fandaryo va Mastchoh daryolari qo'shilgan joydan daryo Zarafshon nomini oladi.

Zarafshon daryosiga 50 dan ortiq tog' jilg'alari kelib tutashadi. Avestoda daryo Dait'ya ya'ni ko'p suv, ko'p tarmoqli deb keltirilgan. Jon uning yana bir qadimiy nomidir. Qadimiy turkiy yodgorliklarda bu daryo Yanju-o'g'uz deb atalgan.[3] Yunonlar Zarafshon daryosini Politemit ya'ni hurmatli, ulug', zarli, oltin oqizuvchi deb nomlashgan. Xitoyliklar Na-mu deb ataganlar. Ilk o'rta asrlarda Zarafshon Xaromkom nomini olgan. Qandiyada daryo Ko'hak Abu Toxirxo'janing "Samariya" asarida esa Ko'hak va Xaromkom nomlari bilan tilga olingan. Umuman olganda XIX asrdan boshlab Buxora Vohasida bu daryo Zarafshon deb atalib, uning nomi Oltin sochuvchi, zar keltiruvchi ma'nolarini anglatadi. Bu daryo oqib o'tuvchi hudud Zarafshon vohasi deb yuritiladi O`rganilayotgan davrda Zarafshon vohasi uch qismdan yuqori, o`rta va quyi Zarafshon vohalaridan iborat bo`lgan.Yuqori Zarafshon vohasiga Panjikent shahri va uning atrofidagi tog`li hududlar kirgan. Quyi zarafshon vohasiga Xatirchi, Ziyovuddin, Nurota, Poykand, G`ijdivon, Vobkent, Navoiy va Buxoro kirgan. Tadqiqotimiz mavzusi bo`lmish O`rta Zarafshon vohasiga Samarqand va uning atrofidagi Kattaqo`rg`on, Muyonqol, Dahbed, Jom, Urgut, Chelak hududlari kirgan.

---

[1] Абдураҳимова Н.А. Ергашов Ф.Р. Туркистонда чор мустамлака тузуми. -Т: 2002. 45-бет
[2] Каримов И.А. Ёшларимиз—халқимизнинг ишончи ва таянчи. -Т: 2000. 42-бет
[3] Санаев И. Самарқанд—бу Самарқанд. -Т: 2007. 7-бет

Dunyodagi zo`ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki millatni tobe qilib, bo`ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo1`sa avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya`ni eng buyuk boyligi bo`lmish milliy qadriyatlari, tarixi va ma`naviyatidan judo qilishga urinadi.[1] Yurtboshimizning bu so`zlarini tarix tasdiqlaydi. Sobiq sovet hukmronligi yillarida tariximiz soxtalashtirildi. O'tmishimizga xolisona baho berilmadi. Yurtboshimiz bu mavzuda tarix fani vakillari bilan uchrashuvlarida bu fanning dolzarb muammolari muhokama qilinib "Ijtimoiy taraqqiyotning qonuniyatlarini o'rganish, O'zbekistonda davlatchilikning qaror topishini ta'minlagan tarixiy sharoitlarga aniqlik kiritish, chorizm va sovet davrida yozilgan tarixni men tarix sanamayman, o'zgalar yozib bergan tarixni o'qitishga qarshiman. Ular bor kuchini Turkistonning o'tmishini kamsitishga bizni tariximizdan judo qilishga sarflaganlar. Inson uchun tarixdan judo bo'lish hayotdan judo bo'lish demakdir."[2] deb bejizga ta'kidlamaganlar. Tarix avvalo ozodlik yo'lidagi shonli jasorat xalqning siyosiy ongi va ma'naviy faoliyatini uyg'otib vatanga bo'lgan muhabbatini kuchaytiradi, o'zligini namoyon etishga undaydi. Shunday ekan O'rta Zarafshon vohasining eng qadimiy shaharlaridan biri bo'lgan Ro'yi zamin sayqali Samarqandni va unga qo'shni bo'lgan voha shaharlari tarixini o'rganish hozirgi kunning eng dolzarb mavzularidan hisoblanadi. 2007 yilda Samarqand shahrining 2750 yilligining keng nishonlanishi shaharga hukumatimizning e'tibori yuqori ekanligidan dalolatdir. Samarqand xalqimiz, millatimiz dovrug'ini butun dunyoga taratgan ming-ming yillik tarixga ega ilohiy maskandir. Shularni hisobga olgan holda Samarqand tarixini o'rganish viloyatning rivojlanish xususiyatlarini ochib berish, madaniy taraqqiyot uchun foydali bo'ladigan xulosalar chiqarish imkonini beradi. Voha yaqin o'tmishini o'rganmay turib mamlakatimiz tarixini o'rganib bo'lmaydi. Chunki O'rta Zarafshon vohasi respublikamizda ahamiyati va nufuzi jihatidan yetakchi o'rinni egallaydi. Tadqiqotda XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi ziddiyatli bo'lgan davrda vohadagi madaniy hayot va undagi o'zgarishlar yoritib berildi. Ishimizning aniqliligini, ahamiyatini oshirish maqsadida rus bosqinidan oldingi davr XIX asr boshlaridagi madaniy hayot haqida so`z yuritishni lozim deb bildik va bu ikki davrni taqqoslash bilan obyektiv xulosa chiqarishga harakat qildik.

XIX asr boshlarida O'rta Zarafshon voxasi Buxoro amirligi tarkibida bo'lib, mang'itlar sulolasi hukmronligi davriga to'g'ri keladi. Bu davrda amirlik aholisining

[1] Каримов И.А. Юксак маънавият енгилмас куч.-Т:.2008. 11-бет.
[2] Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ.- Т: 1998. 10-бет

ko'pchiligi qishloqlarda yashar edi va davlat iqtisodiyotining asosini dehqonchilik va chorvachilik tashkil etgan. Ashtarxoniylar hukmronligining so'nggi yillarida inqirozga yuz tutgan madaniy hayot mang'it amirlari Raximxon ayniqsa Amir Shohmurod davrida siyosiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan bir qatorda yana rivojlana boshladi. Amir Xaydar (1800-1826) davrida ruhoniylar roli nihoyatda oshdi. Amir Nasrullo (1826-1860) hukmronlik yillarida qonli urushlar avjiga chiqdi. XVIII asrda Buxoro amirligida tarqoqlik davri bo'lib, o'zaro urushlar, siyosiy nizolar natijasida, mamlakat chuqur ijtimoiy va siyosiy inqiroz iskanjasida edi. Bunday notinch ahvol amirlik tarkibidagi shaharlarning vayronagarchiligiga olib keldi. Odamlar o'z uylarni tashlab tinch joyga ketishga majbur bo'ldilar. Tarixchilarning guvohlik bersihlaricha XVIII asrning birinchi yarmida Samarqandda deyarli hech kim qolmagan edi.

XVIII asr voqealaridan Samarqand eng ko'p zarar ko'rdi. Darg'om kanalining buzilishi oqibatida, ocharchilik, yuqumli kasalliklar keng tarqaldi. Samarqandliklar shaharni tashlab Urgut va Panjikentga bordilar.[1] Bu xolni "Samariya" asari muallifi Abu Toxir Xo'ja Samarqand viloyatining tushkunlik holati deb ataydi. 1740 yilda Nodirshoh o'z qo'shinlari bilan shaharga kirganida 10000 yaqin odamni uchratadilar xolos.[2] Albatta bunday ayanchli xol shahar madaniyati rivojiga, xususan me'morchilik obidalariga,ilm-fan,ta`lim tizimiga adabiyotga ham katta zarar yetkazdi. Ko'plab binolar buzildi, madrasalar qarovsiz qoldi, ilm ahli shaharni tark etdi. XVIII asrning o'rtalaridan hokimiyat tepasiga mang'itlar kelgach mamlakatda sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi.

1753-yilda Buxoro amiri Raximxon Darg'omni qayta tikladi.[3] Shunindek, Urgut arig'i, Oqdaryo va Qoradaryo oralig'idagi ariqlar ham qayta tiklanib suv muammosi bartaraf etildi. Shundan keyingina shaharni tark etgan aholining bir qismigina Samarqandga qaytib keldi. Shubhasiz Samarqandning tiklanishida Amir Shohmurodning xizmatlari beqiyosdir. Amir shahrini qayta tiklashga katta e'tibor beradi va mamlakatning boshqa hududlaridan ham aholini ko'chirib keladi. Samarqandda 24 ta yangi mahallalar paydo bo'ladi. Amir shahardagi ko'plab madarasa binolarini ta'mirlash, qayta qurish ishlariga rahbarlik qildi. XIX asrdan boshlab Samarqandda shahar hayotining doimiy o'sishini kuzatish mumkin, shuningdek bu davrdan boshlab vohadagi Urgut, Dahbed,

[1] Абу Тоҳир Хўжа "Самария" -Т 1991-йил 11-бет
[2] Бортолод. В.В. История культурной жизни Туркистана .1927. С. 99,
[3] История Самарканда. Том. I Т:. 1969 С. 25

Yangiqo'rg'on, Kattaqo'r'gon shaharlari ham rivojlandi. Ayniqsa, baland devorlar bilan o'ralgan Kattaqo'rg'on vohada Samarqanddan keyingi yirik markaz hisoblangan.

XIX asrning ikkinchi yarmi tariximizning ayanchli tushkunlik davri bo'ldi. 1853-85 yillarda varanimiz hududi Chor Rossiyasi tomonidan istilo qilindi. Natijada xalqimizning ming yillik madaniyati, ma'naviyati, urf-odatlari, tili, dini oyoq-osti qilindi. Podshoh Rossiyasining bosh maqsadi o'lkaning ma'naviy va moddiy boyliklarini egallash edi. Bu orzu Ivan Grozniy davridayoq boshlangan edi. Pyotr dunyoga mashhur Samarqandu-Buxoroni qo'lga kiritishni, undan dengizlari muzlamaydigan Hindistonga kirib borishni maqsad qilgan edi. Pyotrning bu niyatlarini uning izdoshlari amalga oshirdilar. Bu davrda Turkiston Temuriylar o'rnini egallagan Shayboniyxonning uzoq davom etmagan markazlashgan hokimiyatidan so'ng asta-sekin parchalanishga yuz tutgan uch xonlik deb atalmish uch qismga bo'linib o'zaro nizolar, janjallar qarida edi. "Mamlakat dunyodan uzilgan Ulug'bek dars bergan madrasalardan nishon ham qolmagan, ilmu-fan nochor ahvolda, jaholat avjiga chiqqan, mudofaa qudrati past qurol-yarog' oz eski, askarlar tartibsiz, zamondan xabarsiz, zamonaviy qurollarni bilmaydi". Bu Turkistonni o'rgangan ruslarning xulosasi edi. Ko'hna o'lkani zabt etish uchun eng qulay vaqt edi. Rossiya Turkiston boyliklaridan bahramand bo'lmoqchi edi va ming afsus nadomatlar bo'lsinkim bunga erishdi. 1868 yilning ayni bahorida 30 aprel kuni rus askarlari va Buxoro amirining lashkarlari Samarqandning sharqiy tomonida joylashgan Cho'ponota tepaligi atrofida to'plana boshladilar. Cho'ponota jangi 1868 yilning 1 mayida boshlandi. Har ikkala tomondan juda ko'plab odamlar halok bo'ldi. Cho'ponota jangi Buxoro amiri Muzaffar uchun sharmandali tugadi. Samarqand qo`ldan ketdi daryo-daryo qonlar, Amir Muzaffar ko`z yoshlar shash qator bo`lib oqdi afsus kech bo`lgandi. Ruslar 1868 yil may oyining oxiriga kelib, Samarqand shaxri va uning atrofida bosqinchilik yurishlarini yakunlab, Amir Muzaffarga zarba berish uchun Buxoro tomon yuradi. Kattaqo`rg'on deyarli jangsiz ishg'ol qilinadi. Bu paytda rus askarlari shahar arkining ichida o'rnashib olgan edilar. Rus istilosi davrida arkning ichida Amir Temurning Ko'ksaroy va Bo'stonsaroylarining qoldiqlari, Buxoro amirlarining saroyi, masjidlar bor edi. Mudofaa uchun qulay bo'lgan bu joyni rus askarlari egallab olishib, ichini o'z xoxishlariga ko'ra o'zlashtirib olgan. Muqaddas joylar omborxonalarga, otxonalarga, kasalxonalarga va yotoqxonalarga aylantirilgandi[1]. Shonli tariximiz, bebaho

[1] Бердимуродов А. " Тажовуз " // Ўзбекистон адабиёти ва сан`ати. 1993. 9 июл

qadriyatlarimiz, chin e`tiqodimiz, buyuk madaniyatimiz, tilimiz, dinimiz barch-barchasi xavf ostida qoldi.

Mavzu 3 ta bobga bo'lib o'rganildi. 1-bobda XIX asrning 1-yarmidagi maorif tizimi, ilm fan taraqqiyoti va rus bosqinidan keyingi ta'lim tizimi, ilm-fan sohasidagi o'zgarishlar haqida fikr yuritildi. Asosan mustaqillik yillarida olib borilgan ilmiy ishlardan foydalanildi. 2-bobda XIX asrning 1-yarmidagi adabiy muhit shoirlar ijodi va rus bosqinidan keyingi adabiy muhitdagi o'zgarishlar solishtirildi. Milliy uyg'onish adabiyoti, Samarqandda jadid adabiyoti, shoirlari va ularning faoliyati tahlil qilindi. 3-bobda o'rganilayotgan davrda faoliyat ko'rsatgan mahalliy me'morlar ularning ihslari va yangi kirib kelgan yevropa shaharsozligi taqqoslandi. Mahalliy me'morlarimizning quruvchilik bilimlari tahlil qilindi. Rus olimlarining ushbu mavzudagi ilmiy tadqiqotlari asosiy manba sifatida olindi. Davr me'mochiligi yutuqlari va kamchiliklari ruslar olib kelgan yangiliklarga xolisona baho berishga harakat qilindi.

**Mavzuning o'rganilish darajasi.** Tarixshunosligimizda Zarafshon vohasi viloyatlar tarixini o'rganish maxsus ilmiy yo'nalaish sifatida mustaqillik yillaridan boshlandi. Samarqand viloyati tarixiga bag'ishlangan minglab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Chor istibdodi davrida yozilgan hujjatlar, esdaliklar, manbaalar ayniqsa, "Turkiston to'plami" voha tarixini o'rganishda bosh manbaa sanaladi. XIX asning ikkinchi yarmida Turkistonga sayohat qilgan chet el sayoyatchilarining esdaliklari ham muhimdir. Sovet davrida yozilgan asarlar, monografiya, maqolalar ham muhim bo'lib, ayniqsa, Yu.N. Aliskerov, K.I. Mamatkulov, T.S.Saidkulov, P.Zoxidov ilmiy ishlari o'rganilaotgan davrda Zarafshon vohasidagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayot haqida qimmatli ma`limotlar beradi. Bu olimlarning Samarqand tarixini o'rganishdagi xizmatlari beqiyosdir. Shuningdek, voha tarixini o'rganishda SamDU olimlari I.I. Umnyakov, M.O.Egamberdiyev, M.U.Aminov, M.Negmatov, Abramov va boshqa ko'plab tadqiqotchilarning ishlarini ta'kidlash maqsadga muvofiqdir. Shubhasiz Samarqandning eng qadimgi davridan to XX asrning 60-yillarigacha bo'lgan tarixini o'z ichiga olgan ikki tomlik Samarqand tarixi ham asosiy adabiyotlardan hisoblanadi. XIX asr va XX asr boshlarida vohada shakllangan me'morchilik maktabini o'rganish ishlari S.N. Polupanov boshchiligida boshlandi. 1935-yilda Polupanov maxsus ekspeditsiya tashkil etib fotograf I.P. Zovelin bilan birga Samarqand shahridagi 11 ga yaqin uy-joy qurilishini o'rgandi.S.N. Polupanovdan keyin bu ishni A.N.Arefyev davom ettirdi.

Arefyev to'plagan ma'lumotlari asosida Samarqand me'morchiligi to'g'risida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Voha me'morchiligini o'rganishda 1938-yilda A.K.Pisarchik olib borgan tadqiqotlar alohida qiymatga egadir. Pisarchik bir necha masjidlar, turar joylar qurilishini o'rganib, "XIX asr va XX asr boshlarida Samarqanddagi uylar va masjidlari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. [1] Undan keyingi yillarda ham voxa me'morchiligi bo'yicha bir qancha tadqiqotlar o'tkazildi. Bir qancha adabiyotlarda ham ushbu mavzudagi ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin.V.A Nilsenning rus shaharsozligi bo`yicha olib borgan ilmiy ishlari natijasida mamlakatimiz yaqin tarixiga oid ko`plab qimmatli ma`lumotlar qo`lga kiritildi. V.A.Nilsenning tadqiqoti shubhasiz ushbu mavzudagi bebaho manbaa hissoblanadi. Ammo achinarli tomoni shundaki Sobiq sovet ittifoqi davridagi ilmiy ishlar, kommunistik mafkura andozasi asosida yozilgan bo'lib, mustamlaka g'oyalari bilan sug'orilgan. Davr taqozosi talabi bilan tadqiq etilgan. Shunday bo'lsada yuqorida tilga olingan ilmiy-tadqiqotlarda ham voha tarixiga oid, Samarqand o`tmishiga doir juda ko'plab materiallar tahlil qilingan o'rganilgan. Bu hudud tarixini o'rganishning ilk bosqichlari sanaladi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz tarixini xolisona va adolatli o'rganishga tahlil etishga keng imkoniyatlar ochildi. Tariximizga yangicha xolisona qarash zamirida ilk tadqiqotlar yaratildi. Mustaqillik yillarida Hamid Ziyo, N.Abdurahimova, D.Alimova, D.Ziyoyeva, A.Kurahmedov va boshqa ko'plab tadqiqotchilarning ishlarida nafaqat Samarqand balki Turkiston tarixini o'ragnish uning ijtimoiy-iqtisodiy madaniy hayotini, davr adabiyoti, ilm-fani taraqqiyoti ta'lim tizimi ko'plab yangi ma'lumotlar asosida qayta o'rganildi va yoritildi. Madrasalar tarixini ulardagi ta`lim tizimini o`rganishda Boturxon Valixo`jayev, Komilxon Kattayevlarninig xizmatlari beqiyosdir. Chor mustamlakasi davridagi maorif tizimi tarixini yoritishda, yangi usul maktablari faoliyati Sh.S.G`afforov tomonidan batafsil o`rganildi. Adabiy muhit jadid adabiyotini o`rganish bo`yicha mustaqillik yillarida B.Qosimov olib brogan tadqiqotlar diqqatga molikdir. Voha va Samarqandning ijtimoiy-iqtisodiy tarixiga oid ko'plab maqolalar, ishlar chop etilgan. Lekin, alohida XIX va XX asr boshlaridagi Voha madaniy hayotiga oid tarix yaxlit holda umumlashtirilib o'rganilmagan. Shu boisdan diqqatimizni mana shu davrdagi madaniy hayotga qaratdik.

[1]Зохидов.П. Самаркандская школа Зодчих XIX начало XX века. -Т:. 1965, С.6.

**Tadqiqotimizning maqsad va vazifalari.** O'rganilayotgan mavzuni dolzarbligi va hozircha yaxlit bir tadqiqot obyekti sifatida umumlashtirilmaganligini hisobga olib XIX va XX asr boshlarida vohaning yirik markazlari bo'lmish Samarqand, Kattaqo'r'gon, Urgut shaharlari madaniy hayotiga oid to'plangan materiallarni tahlil etish, taqqoslash, birlashtirish tadqiqotning maqsadi qilib olindi.

Mavzuning mohiyatidan va tarix fanining hozirgi kundagi talablarini hisobga olgan holda quyidagi vazifalarni ilmiy yoritishga harakat qilindi:

- XIX asr boshlaridagi maorif tizimi va ilm-fan sohalarini o'rganish.
- Rus bosqinidan keyingi ta'lim tizimi va ilm-fandagi o'zgarishlarni taqqoslash.
- XIX asr boshlaridagi adabiy muhitni o'rganish.
- Milliy uyg'onish davri adabiyoti va Samarqanddagi jadid adabiyoti faoliyatini yoritish.
- XIX va XX asr boshlaridagi mahalliy me'morlarning ijodlariga obyektiv yondashish.
- Rus shaharsozligi va kirib kelgan yangi me'moriy uslublarga baho berish.
- Ruslar istilosini madaniy hayotga ta'sirini xolisona yoritish.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Ishda O`rta Zarafshon vohasi madaniyati yaxlit tadqiqot shaklida ilk bor yoritildi. Mavzu mustaqillik yillaridagi yangi ma`lumotlar va undan oldingi davr adabiyotlari asosida o`rganildi va taqqoslandi.

**Tadqiqotning predmeti.** O'rganilayotgan davrda Samarqand viloyati Samarqand, Urgut, Kattaqo'rg'on shaharlari misolida ruslar bosqiniga qadar va undan keyingi yillar oralig'idagi adabiy muhit ilm-fan, ta'lim tizimi, me'morchilikdagi o'zgarishlar, yangiliklar, tadqiqot predmeti sifatida belgilab olindi.

**Tadqiqot obyekti.** O'rta Zarafshon vohasining yirik shaharlari bo'lmish Samarqand, Kattaqo'rg'on, Urgutning XIX va XX asr boshlaridagi tarixi tadqiqot obyekti qilib olindi.

**Tadqiqotning ilmiy ahamiyati.** Ushbu tadqiqot O`rta Zarafshon vohasi aholisining rus bosqiniga qadar va undan keyingi davr voqealarini, madaniy hayotini yoritadi. XIX va XX asr boshlaridagi ilm-fan, adabiyot ta'lim tizimidagi yangiliklar, me'morchilikdagi o'zgarishlar to'g'risida ma'lumotlar mamlakatimiz tarixini xolisona haqqoniy o'rganishga, o'tmishimizni to'ldirishga imkon beradi.

## *I BOB. XIX ASR VA XX ASR BOSHLARIDA MAORIF TIZIMI VA ILM-FAN.*

### *§1. XIX asrning birinchi yarmida maorif tizimi va ilm-fan.*

Jahonning barcha hududlaridan ilm, tilab, ma'rifat tilab insonlar Samarqand sari intilganlar. Chunki dunyoning eng katta va boy kutubxonalari, o'sha zamonning eng ulug' dorilfununlari-madrasalr, eng mashhur allomalar aynan shu yerda, shu zaminda faoliyat ko'rsatar edi.[1] O'rganilayotgan davrda O'rta Zarafshon vohasidagi yirik shaharlar hisoblanmish Samarqand, Kattaqo'r'gon, Urgutda o'ziga xos oily madraslar faoliyat ko'rsatgan va shaharlar ta'lim markazlari sifatida shuhrat qozongan. Voha aholisi eng qadimgi davrlardan boshlab o'ziga xos ta'lim tizimiga asos solishganligi ma'lum. Biz o'rganayotgan davrimizda mamlakatimizning barcha hududlarida islom dini tarqalgan va taraqqiy etgan davr bo'lib, ta'lim tarbiya tizimi, muassasalari arabcha atamalar, ya'ni maktab, madrasa, madrasai-oliya tarzda namoyon bo'ladi. Ta'lim tizimining ilk bosqichi boshlang'ich ta'lim bo'lib uning muassasi masjidlar qoshidagi maktablar hissoblangan.

Boy xonadon farzandlari masjidlar qoshidagi maktablarda o'qishadi. Asosan haftiyak yozish, chizish, o'qish o'rgatiladi va ovoz chiqarib suralarni yod olishadi. Qizlar maktablari ham faoliyat ko'rsatadi va xuddi shu tarzda ta'lim jarayoni boradi.[2] Har bir mahallada bitta yoki ikkita masjid bo'lgan, odamlar tarqoq yashaydigan joylarda markzalshtirilgan masjidlar faoliyat ko'rsatgan bunday joylarda maktablar o'qituvchilarning uylarida ham bo'lgan. Shuningdek, ma'rifatparvar boylar, tijoratchilar tomonidan maxsus bunyod etilgan binolarda ham maktablar faoliyat ko'rsatgan. Maktablarda 4-5 yoshdan boshlab, bolalar boshlang'ich ta'limni olishga kirishgan. Bir maktabda 10-20 tagacha o'quvchilar tahsil olishgan.[3] Ularga bir muallim dars bergan. Katta bolalarning biri guruh boshlig'i- xalfa, o'qituvchining yordamchisi vazifasini bajargan.[4]

Maktablarda Qur'on oyatlari, hadislarni yodlash, shariat asoslari, arab yozuvi o'rgatilgan. Abjad usulidagi hisob ham o'rgatilgan. Odob axloq, pandnoma, she'riy asarlarni o'qish va yodlash dasturlari faoliyat ko'rsatgan. Bunday maktab muallimi va o'quvchi talabalari qanday bo'lishlari, ularning vazifalari haqidagi ko'rsatmalar XIX asrda yashagan donishmand Vojid Ali Mujmaliyning "Matla ul-ulum va majma ul-funun" asarining 2 qismida batafsil bayon qilingan. Bu asar ko'proq umumiy ta'lim va

---

[1] Каримов И.А.Баркамол Авлод Орзуси.. -Т.: 1999. 72 бет.
[2] Р.Иванов. Внутреннее обозерение. Русское земля. Самарканд.// Туркестанский сборник. -Т 77. С.25-26 .
[3] Валихўжаев Б. Самарқандда оилй таълим-мадрасаи олия-университет тарихидан лавҳалар. -С:. 2001. 7-бет
[4] Р.Иванов. Внутреннее обозерение. Русское земля. Самарканд.// Туркестанский сборник. Т 77 С. 26

boshlang'ich ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatadigan o'qituvchi va talabalarga taluqlidir. Ta'lim tizimi 3 bosqichdan ya'ni:

1. Boshlang'ich ta'lim – maktab.

2. Umumiy ta'lim. Uning maskani-joyi madrasa bo'lib, arabcha maktab, bilim yurti, dars o'qish joyi, madarasai ul-ulum - universitet ma'nolarini anglatadi. Madrasalarda ilmi naqliyaga alohida e'tibor berilgan. Ilmiy aqliya umumiy ma'lumot uchun o'rgatilgan. Bunday madrasalar tuman va katta mahallalarda ham bo'lib, ularga vaqflar berkitilgan va vaqfnomalarda mudarris, xodimlar, talabalar soni belgilab qo'yilgan. Bu dargohni bitirganlar, boshlang'ich maktab muallimlari, masjid imomi, qozixona xodimi sifatida ishlash imkoniyatiga ega bo'lganlar.

3. Oliy ta'lim. Uning maskani madrasai - oliya yoki Madrasat ul-ulum deyilgan. L.Z. Budegov lug'atlarida ularni universitet maqomidagi ilm dargohi ekanligi qayd qilingan. Umumiy ta'lim madrasalarini bitirgan iqtidorli talabalar Madrasai oliyalarda o'qishni davom ettirganlar. Madrasalar maktab va madrasa mudarrislari, davlat boshqaruvi hodimlari, mufti, qozi, a'lam kabi ijtimoiy va aniq fanlar mutaxassislarini tayyorlab bergan. Ta'lim tizimidagi Birinchi bosqich ondiy (past), ikkinchi avsot (o'rta), uchinchisi a'lo (oliy) bo'lim deb ham atalgan. Ushbu uch bo'limning har birida o'quv dasturlari murakkablashib brogan. Samarqand madrasalarining quyi bo'limida "Mabodi ul-qiroat" (qiroatni o'rga-nish) tajvid kabi yengil qo'llanmalar o'rgatilgan. O'rta bo'limda "Nodgil", "Muxtasar", "Sharxi Mullo", oily bo'limda "Muxtasarning davomi", "Hidoya" hadisshunoslik, huquqshunoslik kabi mukammal diniy huquqiy qo'llanmalar o'rgatilgan.[1] Birinchi bo'limda o'qish muddati 9-10 yilni tashkil etadi. Fors, arab tillarida qisqacha musulmon qonunlari, arab grammatikasi o'qitilgan. Yildan yilga o'quv dasturlari qiyinlashib murakkablashib borgan. Madrasaning o'rta bo'limida o'quv jarayoni 7-8 yil davom etib bu davrda kalom ilmi, mantiq ilmlari o'qitilgan. Madrasada ilm olishning past va o'rta pog'onalarini tugatgan talaba o'qitish jarayonining oxirgi to`rt yilidan iborat "Oliy bo'lim"iga o'tgan. Oliy bo'limda ilohiyot, islom huquqshunosligi, fiqh kabi murakkab tarmoqlar o'rgatilgan. Bu davrda Qur'on tafsiri, kalom, hadisshunoslik, Burxoniddin Marg'iloniyning "Hidoiya", Imom Buxoriyning "Sahihi Buxoriy" va boshqa ko'plab kitoblar o'rgatilgan. Albatta murakkab va juda pishiq dasturga ega madrasalarda tahsil olgan talabalar hech shubhasiz o'z davrining

[1] Каттаев К. Самарқанд мадрасалар тарихи.- Т:. 1996. 13 бет

buyuk olimlari bo'lib yetishgan. Madrasalrda shuningdek tabiiy-ijtimoiy fanlar bo'limi, tarix, adabiyot, geografiya, handasa, riyoziyot, algebra, tibbiyot, aruz, falakiyot-hay'at, sarfu-nahv, fiqh, mantiq kabi dunyoviy bilimlar ham o'rgatilgan.

Qorixona, daloilxona, maktabxona kabi turli o'qitish muassasalaridan faqatgina madrasalardagina oily ma'lumot olish huquqiga ega bo'lishgan.[1]

Madrasalarda eng katta lavozim Sadr bo'lib, u podshoh yoki hokim tomonidan ta'yinlangan. Sadr ham iqtidorli mudarrislarni, madrasada yashovchi mutavalli, farrosh, xo'jalik ishlarini yurituvchi, kitobdor, muharrir, mu'id, imom, sartarosh, oshpaz va qarovullarni tayinlar, madrasa daromadlariga bog'liq ishlarni yuritar edi. Madraslarning ta'minoti uchun davlat va boylar tomonidan ko'plab yer suvlar, bog'lar, do'konlar, mulklar vaqf qilingan. Masalan: Ulug'bek madrasasi ta'minoti uchun Mirzoi karvonsaroyi, Mirzoi arig'i, Mirzoi ko'prigidan tushadigan daromad ishlatilga.Urushlar nizolar davrida vaqflar vaqtincha o'z kuchini yo'qotsada, yangi sulola vakillarining dastlabki ishlari vaqflarni qayta tiklash bo'lgan. Mang'itlar sulolasi davridagi saroy a'yoni Muhammad Davlatbey 100 dan ortiq do'konini Ulug'bek madrasasiga vaqf sifatida bergan. Avvalambor vaqfdan kelgan foyda binoni ta'mirlash uchun ishlatilgan, qolgan mablag' 20 qismga bo`linib, bir qismi mutavvalliga, bir qismi mudarrislarga, bir qismi imom, muazzin, qorovulga, qolgan 12 qismi talabalarga stipendiya tarzida berilgan. Davlat Qushbegi madrasasi daromadi 21 qismga bo'lingan. 2 qismi mutavalliga, 4 qismi mudarrisga, 9 qismi hujrada turuvchi talabalarga, 1 qismi Davlat Qushbegi o'g'linng qabriga qarovchi go'rkovga, 4 qismi 4 qari hofizlarga, 1 qismi qorovul va sartaroshga berilgan.Bunday qonuniy taqsimotni hech kim buzmagan. XIX asrdan boshlab madrasa talabalariga maxsus o'qish bosqichlariga qarab maosh (stipendiya) berilgan. Yuqori bosqich talabalariga yiliga 120 tangadan, o'rta bo'limdagilarga 84 tangadan, past bo'lim talabalariga 60 tangadan berilgan.[2] Agar past bo'limdagi o'quvchi 7 yil davomida o'rta o'quv darajasiga yetmasa, o'rta bo'lim o'quvchisi 7 yil davomida oily bo'lim darajasiga yetmasa, oily bo'lim o'quvchisi 7 yilda mudarrislik darajasiga yetmasa uni maoshidan va hujradan foydalanish huquqidan mahrum etishgan. Agar o'quvchi sababsiz bir oy darslarga qatnashmasa ham hujralaridan mahrum etilgan. Agar shundan keyin yana bir hafta dars qoldirsa vaqf nazoratchisi uni maoshini kamaytirgan. Bu omillar va talablar ta`lim jarayinining sifatini oshirgan. Og'ir siyosiy-iqtisodiy vaziyatga qaramasdan

---

[1] Каттаев К. Самарқанд мадрасалари.// Зарафшон. 2002 5-октабр.
[2] Каттаев К. Самарқанд мадрасалари ва илм-фан ривожи.- С:. 2007. 45-бет

vohada ilm-fan, tibbiyot taraqqiy etgan. Vohada ta'lim O'rta Osiyoning boshqa hududlari kabi mahalla va madrasalardagi maktablarda olib borilgan.Maktab o'qituvchisi mahallada yashovchilarning biri bo'lgan.

Ta'lim uchun har bir uydan 1-2 tanga to'langan.[1] Urf odatlarga ko'ra o'z farzandini birinchi marta maktabga olib kelgan ota non va uzumdan iborat shirinliklar keltirgan. Bayramlarda o'qituvchilarga turli qimmatbaho sovg'alar yuborilgan. Mantiq ilmi Hofiz, Navoiy, Fuzuliy she'riyati ham qisman o'rgatilgan. Maktab bitiruvchilari Mirzolik qilmoqchi bo'lishadi. O'quv kuni soat 8 da boshlanib, kechgacha davom etgan, tushlikdagina o'quvchilar uyga borishgan. O'quv muddati cheklanmagan. Kuz, qish va bahorda ta'lim jarayoni davom etgan. Juma dam olish kuni bo'lgan. Shuningdek, bayramlarda dam olishgan. Qizlarni maktabida Bibi Xalifa, Otinoylar dars berganlar.

XIX asrning birinchi yarmida Samarqand shahrida 80 ta maktab bo'lib, 1600 o'quvchi tahsil olgan.[2] Maktabdan keyingi ta'lim madrasa bo'lib, vaqf hujjatlarida bu ta'lim jarayoni haqida ko'plab ma'lumot uchraydi. Har bir madrasa o'zining tartibqoidalariga ega bo'lib, vaqflarda tasdiqlangan bo'ladi. Madrasa faoliyatida uning tashkilotchisi va muhit ta'siri kuchli bo'lgan. Madrasalarda boy oila farzandlari o'qishgan, ulardan diniy va davlat xizmatchilari yetishib chiqqan. Ba'zi madrasalarda ishchilarning farzandlari ham tahsil olishgan. Ba'zi madraslarning o'z kutubxonasi ham bo'lgan. Asosan diniy bilimlar o'qitilib, Qur'on ta'limiga alohida mudarris jalb etilgan. Qur'on o'rganilgach boshqa mudarris yanada qiyinroq darslani olib borgan. Arab grammatikasi, stilistika, retorika, she'riyat, astronomiya, matematika o'rgatilgan. Har bir predmet kurs bo'yicha o'qitilgan. Talabalar ilm o'rganish bo'yicha ixtisoslashgan. Faqatgina iste'dodli talabalargina turli yo'nalishlarda tahsil olishgan. O'quv muddati 8 yil bo'lgan. Davomatga katta e'tibor berilgan. Maxsus hokim davomatni tekshirgan. Faqatgina betoblik sababli deb hisoblangan. Har bir madrasada vaqfning miqdoriga qarab mudarris, mu'id, hofiz, sartarosh, farroshlar bo'lgan.

Xo'jalik ta'minotini sardor, keyinchalik mutavalli deb atalgan kishi yurgizgan.[3] Har bir mudarrisga 30 ta talaba biriktirilgan. Mudarris—madrasa o'qituvchisi. Mu'id—repititor. Hofiz—Qur'onni yoddan biluvchi. Mujovid—doimiy qorovul. Madrasalarda ba'zi talabalar 36 yoshdagina o'qishni bitirganlar. Dastlabki to`rtta

---

[1] Файзиев А.Ф. История Самарканда первий пол XIX века.- С:. 1992, С.37
2 Эргашев Ф., Обидов Д. Миллий таълим тарихидан. –Т.: 1998. 97 бет
[3] Файзиев А.Ф. История Самарканда первий пол XIX века.- С:. 1992 С. 39

arifmetik amal, algebra va geometriya bilimlari ham o'rgatilgan.[1] Maktablarda asosan diniy tarbiya yetakchilik qilgan. Bu hol esa haqiqiy va to'liq bilim olishga to'sqinlik qilgan. Maktab o'qituvchisi unga yaqin masjid imomi bo'lgan. Asosan Ota-onalarning mablag'lari evaziga maktablar faoliyat ko'rsatgan. Vohaning Kattaqo't'gon shahrida ham iqtisodiy-ijtimoiy hayotdagi ziddiyatlar ta'siri seziladi. Kattaqo't'gonda ham maktab, madrasalarda saboq berish arab tilida olib borilgan va bu bir oz qiyinchilik tug'dirilgan. Qizlar maktablarda faqatgina boshlang'ich ta'lim olishgan.

1867-yilga qadar Kattaqo'rg'onning har bir mahallasida maktab bo'lardi. Bino chang va loy, dim va zax, sovuq va qorong'u, jihozlarsiz edi.[2] Maktablarda darslik mazmuni tushunmasdan yod olingan bo'lsa, madrasalarda darslikning mazmunini o'zlashtirish talab qilingan. Madrasalarda o'qituvchi va talabalar turli shakldа malaka oshirgan. Madrasa Binolari chiroyli katta bo'lgan. Kattaqo'rg'on bekligining Payshanba shahrida 1791-yilda, Kattaqo'rg'on shahrida 1804-yilda Muhammad Amin Naqib madrasasi qurilgan.[3]

Umuman olganda o'rganilayotgan davrda vohada butun mamlakatdagidek, murakkab diniy ta'sirda qolgan ta'lim tizimi shakllangan. Barcha mahallalarda maktablar bo'lgan, hatto yahudiylar mahallasida ham o'z maktablari bor, bu maktabdagi bolalar o'zlari tushunmagan holda o'qituvchi aytgan so'zlarni yod olishadi. Ko'pincha yahudiylarning milliy urf-odatlari, kitoblaridan parchalar o'qitilgan. Samarqand shahrining o'zida 20 ta madrasa faoliyat ko'rsatadi.[4] Shahardagi Ruhobod madrasasini Amir Muzaffar tiklagan va vaqfini belgilagan.[5] Shohi Zinda, Tillakori, Sherdor, Ulug'bek madraslari asosiy sanaladi. Shuning-dek, Madrasai Safed, Shayboniyxon, Orifjonboy, Xo'ja Zulmurod, Turdol, Xalifa Hasan, Roziq So'fi, Mahdumi Xorazm va boshqa madrasalar faoliyat ko'rsatadi.[6]

Mahdumi Xorazm madrasasida ko'plab ko'r bolalar tahsil olishadi, hattoki ko'r o'qituvchilar ham faoliyat ko'rsatadi. Masalan: Qori Muhammad Yusuf. Oldinlari bu ko'r talabalar davlat tomonidan rag'batlantirilgan.[7] Xoja Ahror madrasasida bog' va qabriston joylashgan bo'lib, kvadrat shaklda qurilgan. Bu madrasada qadimgi, dunyoda

---

[1] История Самарканда Том I- Т:. 1969. С.293
[2] Бекмуродов И. Каттақўрғоннинг қисқача тарихи -С:. 1993. 9-бет
[3] Бендриков К.Е. "Очерки по истории народнога оброзавания в Туркистане" -М:. 1960 С. 51
[4].Самарканд.// Туркестанский сборник. Т 24. С. 201
[5] Ўша жойда С. 202
[6] Ўша жойда С.208
[7] Ўша жойда С.211

to`rt nusxada bo'lgan Usmoniy Qur'onning biri saqlangan.[1] Voha madrasalarida mashhur shoirlar Shavqiy Kattaqo'r'goniy, Mujrim Obid, Mulla Qurbonjon Xiromiy va boshqa shoirlar va olimlar yetishib chiqqanlar. Bu davrda Samarqandda mashhur tarixchilar Abdurahmon ibn Muhammad, Latif Mustajir Samarqandiy, Said Sharif Rahim Samarqandiy, Sulaymonxo'ja Samarqandiylar ijod qilganlar. Abdurahmon Samarqnadiy "Ro'znomai safari Iskandarko'l", "Ro'znomai safari Moskov", Rahim "Tarixiy Kasira", Sulaymonxo'ja "Tavsif ba bayoni davlati mang'it va zamoni Rahimxon" asarlari bilan mashhurdir.[2] Shubhasiz tarixchilar orasida "Samariya" muallifi Abu Tohirxo'janing nomi mashhurdir. Abu Tohirxo'ja Samarqand qozisi Abu Said ibn Abdulhayning o'g'lidir. Uning otasi ham bobosi Mavlona mir Abdulhay ham o'qimishli bo'lganlar. U Samarqandda 40 yil qozilik qilgan.[3] XIX asrning 40-yillarida muftiylik keyin, Karmanada raislik lavozimida ishlaydi. "Samariya" asarida Samarqandning tarixi, toponomikasi, shahar atrofidagi tumanlar tarixi, umuman olganda Samarqandning mukammal tarixi bayon qilingan, juda ham boy va qimmatli manba sanaladi. Bu kitob 11 bob va xulosadan iborat. Abu Tohirxo'ja 1874-yilda vafot etgan.[4]

XIX asrning 1-yarmidan boshlab vohada Alisher Navoiy she'riyatiga va uning kitoblariga qiziqish ortadi. Navoiy asarlarini ko'chirishda Mulla Muqimxon, Mir Abdulhay, Said Abdusalom Maxdum va boshqa ko'plab xattotlar samarali ijod qilishadi. 1824-25 yillarda Mir Abdulhay o'z shogirdlari bilan birga Navoiyning "Xazoyin-ul Maoniy" asarini ko'chiradilar. 1849-50 yillarda Mulla Muqimxon esa "Xamsa" asarini ko'chiradi. Shuningdek, bu davrda ko'plab noyob qo'lyozmalar ham ko'chiriladi. Xattot Abdujabbor Nayman Samarqandiy Abu Hanifaning "Al-fiqh al-akbar" (katta huquq) kitobini, Mulla Abdulfayz Samarqandiy Mirzo Qurbon Xiromiyning "Chor Darvish" asarini ko'chirdilar.[5] O'rganilayotgan davrda vohada Mulla Mirza Muhammad Oxun ibn ibn Odina, Muhammad Samarqandiy, Mulla Said Abdulvahob Samarqandiy, Muhammad Nuriddin, Alima Samarqandiy, Muhammad Rofe ibn Shayx Muhammad Solih Samarqandiy, Muhammad Yusuf Samarqandiy, Muhammad Yoqub Samarqandiylar xattotlikda mashhur bo'lganlar. Samarqandda o'ziga xos tomoshalar, teatrlar rivojlanadi. Vohada 2 turdagi teatr tomoshalarni ko'rishimiz mumkin. Bular: **1**.Ko'chada yuruvchi

---

1 Ўша жойда С. 230
2 Турсунова М. «Миллий таълим сарчашмаси» «Мулоқот» журнали Тошкент 2003,2-сон
3 Сувонқулов И. Тарихимизнинг ўчмас саҳифалари -С:. 2007. 40-бет
4 Ўша жойда. 40-bet
5 Файзиев А.Ф. История Самарканда первий пол XIX века.- С:. 1992, С.40

akrobatlar, janglyorlar, raqqoslar, fokuschilar, masxaraboz artistlar tomoshalari. Eng mashhur tomosha qiziqchi askiyachilarning tomoshasi bo'lgan. Musiqachilar ham bayramlarda doim ishtirok etganlar. Xalq artistlari qo'shiqchi va musiqachilar bilan birlashib maxsus guruh sozandani tashkil etganlar.

**2**.Tomosha turi qo'g'irchoq teatri bo'lgan. Qo'g'irchoq teatrini ham 2 turi chodir-hayol va kol qo'g'irchoq teatrlar bo'lgan.[1] Bu tomoshalarda asosan qozilar, din peshvolari, hokimiyat vakillarining ishlari tanqid qilingan. Musiqa san'atiga alohida e'tibor berilgan va manbalarda o'nlab musiqachilarning nomlari yozilgan. Musiqani nafaqat shoirlar, rassomlar balki ziyolilar ham musiqani sevishgan va o'zlari ham musiqa asboblaridan foydalanishgan, shu sohada asarlar yozganlar.

Vohada bayram kunlari o'ziga xos sport o'yinlari bo'yicha musobaqalar o'tkaziladi. Ko'pkari, kurash musobaqalari o'tkaziladi.[2]

Umuman olganda XIX asrning boshlari rus bosqiniga qadar bo'lgan davr voha tarixida qiziqarli va murakkabdir. Bu davrda voha shaharlari yana bir karra vayron bo'lib, qayta tiklandi, qayta rivojlandi. Shunga qaramasdan vohada o'ziga xos tarzda ta'lim tizimi, ilm-fan rivojlandi. Ko'plab yangi madrasalar qurildi. O'z davrining yetuk olimlari yetishib chiqdi tarixnavischilik rivojlandi, yangi bosqichga chiqdi. Madrasalarda zamonaviy ta'lim tizimidan qolishmaydigan dasturlar ishlab chiqildi. Diniy bilimlar yetakchilik qilgan bo'lsada dunyoviy bilimlar rivoji kuzatildi. Madrasalardagi maosh talabalarga stipendiya berilishi tahsinga sazovordir.

**Madarasai Shayboniyxon**—madrasai oliyayi - xoniya yoki madrasai xon deb nomlanuvchi ushbu madrasa qurilishi Registon va Ohanin (Shohi Zinda) darvozlari oralig'ida Shayboniyxon hayotligida boshlanib 1512-yilda tugatilgan. Shundan so'ng Shayboniyxonning kelini Mehri Sulton-Mehrubon honim ham bu madrasaning shimolida yana bir madrasa qurdirgan va ikkala madrasani tutashtirgan. Shuning uchun bu madrasa Qo'sh madrasa yoki madrasai xo'rjin ham deyiladi.[3] Bu har ikkala madrasaning vaqfnomasi bizgacha yetib kelgan. Vaqfnoma professor R.Mo'minova tomonidan batafsil o'rganilib kitob shaklida nashr etilgan. Bu madrasalarning har birida 60 tadan talaba o'qish imkoniyatiga ega bo'lgan. Ikki madrasada ikkita mudarris va shunga bog'liq tarzda mu'id va boshqa xodimlar belgilangan. Qur'oni Karimni o'qitish bo'yicha alohida

---

[1] История Самарканда Том I -Т:. 1969 С.294
[2] Р.Иванов. Внутреннее обозерение. Русское земля. Самарканд.// Туркестанский сборник. Т 77. С.26
[3] Маҳмудов Ғ. Адаш Истод "Армуғон" -Т:. 2007. 37-бет

mudarris tayinlangan. Har bir madrasada talabalar 3 guruhga past, o'rta va oliyga ajratilgan. Guruhlarda 20 tadan talaba tahsil olgan. Pastki guruh talabalari yiliga 3000 dinor va 300 man (arpa, bug'doy), o'rta guruh talabalari 3600 dinor va 450 man oshlik, oily guruhdagilar 5400 dinor va 600 man oshlik olganlar.[1] Vaqfnomalarda yozilishicha madrasada shar`iy bilimlar, naqliya ilmi yetakchilik qilgan. Demak, madrasalarda shar`iy bilimlar (huquqshunoslar) mutaxassislari tayyorlangan. Hozirgi kunda ushbu madrasadan hech narsa saqlanmagan, faqat shayboniylar dafn etilgan maqbara sufa saqlangan.

**Sherdor madrasasi**—bu binoning quruvchi ta'sischisi Bahodur Yalang-to'sh haqida juda ko'p manbaa va tadqiqotlarda batafsil yozilgan. Bu ma'lumotlar madrasaning o'zida, kirish darvozasi ustida, hovlidagi marmar lavhalarda ham yozib qo'yilgan.

Abu Toxirxo'janing "Samariya" asarida ham ushbu madrasaga oid ma'lumotlar uchraydi. "U shunday madrasakim buyuklikdan xayol idishi ichiga sig'mas, kattalikdan tavsif aytishga to'g'ri kelmas. Baland toqi falak ravoqidek, chunonchi oftob shaklini asad burjiga yaqin qilib, peshtoqiga surat solib, har ikki sherni peshonasiga qo'yib to'rga va har ikki ravoq biqiniga ranglik ziynatlangan, naqshi nigorlik ikki gunmbaz tepasiga guldasta bino qilingani hammani hayratga qoldiradi."[2] Sherdor madrasasi Mirzo Ulug'bek qurdirgan xonaqohning xarobalari o'rnida bunyod etilgan. Madrasa muhandisi me'mor Abdujabbor, naqqoshlar Muhammad Abbos va Avaz Samarqandiylar bo`lgan Madrasa ikki qavatli 64 hujradan, 2 ta katta darsxonadan iborat bo'lgan.

**Madrasai Sherdori Berun yoki Madrasai Nodir Devonbegi** -"Tashqi Sherdor deb mashhur bo'lgan ushbu madrasa Xoja Nosira ul-millat va ud-din Hazrat Xoja Ubaydulloh Ahror Fayz asarli mozorining shimolidadir. Nodir Muhammad Devonbegi o'zbekning orlot aymog'idan va Buxoro xoni Imomqulixonning tog'asidir. 1835-yilda ushbu madrasani soldirdi. Bu madrasa juda yuksak, naqshli go'zal bir madrasadir. To'rida bir keng xonaqohi va minbari bor bo'lib, Xoja Ahror mozoriga kelguvchilar namozlarini onda o'taydilar. Hozirda ushbu madrasa o'qish joyi va talabalar joyidir."[3] Xoja Axror maqbaralarining shimoliy qismida bo'lib, ba'zida Madrasai Sori Mozor, Madrasai Xoja Axror deb ham ataladi. Sherdor madrasasining hajman kichik nusxasiga

---

[1] Валихўжаев Б. Самарқандда оилй таълим-мадрасаи олия-университет тарихидан лавҳалар. -С:. 2001. 123-бет

[2] Абу Тоҳир Хўжа "Самария" -Т 1991-йил 27-бет

[3] Валихўжаев Б. Самарқандда оилй таълим-мадрасаи олия-университет тарихидан лавҳалар. -С:. 2001. 123-бет

o'xshaydi. Ammo unda minoralar yo'q. Asosan, naqliya ilmlari o'rgatilgan bo`lib aqliya ilmlaridan she'riyat, adabiyot o'qitilgan.

**Tillakori madrasasi** - madrasa va masjiddan iborat bu ulkan me'moriy inshoat Registonning shimoliy qismida Mirzo Ulug'bek karvonsaroyi xarobalarida bunyod etilgan. Bu madrasa Ulug'bek va Sherdor madrasalarining yonidadir. Juma namozini Amir Temur Ko'ragon Jome Masjidi xarob bo'lganidan keyin shahar xalqi Tillakorida o'qiydilar. Sherdor madrasasidan o'n yil keyin 1641 yilda solindi. Uning soldirduvchisi ham Yalangto'shbiydir. 1818 yilda peshtoqi zilzila oqibatida qo'porilib tushgan edi. Amir Haydarning buyrug'i bilan yangidan tuzatildi.[1] Madrasaning old tomoni 2 qavatli hujralardan iborat bo'lsa, ichkarisidagi hujralar bir qavatlidir. Bu madrasa XX asrgacha faoliyat ko'rsatgan. Uning vaqfnomasi, dasturi, o'quv jarayoni, mudarrislari haqida aniq ma'lumotlar kam.

**Qozi G'ofur madrasasi** - Registonning sharqiy qismida Shahrisabz ko'chasida XVII asrda Samarqand qozisi bo'lgan Qozi G'ofur tomonidan qurdirilgan. O'zi ham shu mahallada yashagan va hozir ham Qozi G'ofur mahallasi deyiladi. Bu madrasa Samarqand shahri ichida, kunchiqar tomonda imoratlar orasidadir. Samarqandning buzuqchilik choqlarida buzilgan ekan, Said Amir Haydar podshohning buyrug'i bilan ushbu madrasaning janub tomonida yettita hujra solingan. Hozirda o'qish o'rnidir.[2] Madrasa aslida 22 ta bir qavatli hujra va masjiddan iborat bo'lgan. XX asrning 20 - yillarida faoliyati to'xtatilgan.

**Ahmadjon madrasasi** - Saidahmadjon madrasasi Samarqand shahrining ichida Shayboniyxon madrasasining janub tomonida. Ushbu madrasa Saidahmadjon tomonidan Imomqulixon zamonida 1637-yilda solingandir. Saidahmadjonning qabri ham ushbu madrasa ichida. Buzuqchilik chog'ida bu madrasa buzilib yo'q bo'lgan. Amir Haydar vaqfni yig'ib, unga Said qabrini shimolida kichik bir madrasa soldirdi. Hozirgi vaqtda dars o'rni va o'quvchilarning qo'nar joyidir.[3]

Bu madrasa XX asrning 50-60-yillarigacha Qo'shhovuz mahallasiga kiraverish-da bor edi. Keyin buzilib "To'yona" restorani qurildi.[4] Madrasaning mudarrislari, talabalari haqida aniq ma'lumot saqlanmagan.

---

[1] Абу Тоҳир Хўжа "Самария" -Т 1991-йил 27-бет
[2] Ўша жойда.. 28-bet
[3] Ўша жойда.. 27-bet
[4] Валихўжаев Б. Самарқандда оилй таълим-мадрасаи олия-университет тарихидан лавҳалар. -С:. 2001. 139-бет

**Mirjon Vafo madrasasi -** XVII asrda qurilgan bu madrasaning o'rni va quruvchisi haqida ma'lumot kam saqlangan. Buzuqchilik davrida vayron bo'lgan va XIX asr boshlarida Amir Haydar tomonidan qayta tiklangan.

**Xoja Ahror madrasasi Madrasai Safed -** ushbu madrasa shaharning ichida, janub tomondan So'zangaron darvozasiga boriladigan katta yo'lning kunbotaridadir. Samarqandning bzuzuqchilik chog'ida ushbu madrasa buzilgan edi. Amir Shohmurod Oliy madrasani boshqatdan soldirdi va vaqflarni belgiladi. Hozirda unda o'qish bor va o'quvchilarning turar joyidir.[1]

**Oliy madrasa -** Samarqandda arki ichida, podshohlik taxti bo'lgan. "Ko'ktosh" ning qarshisidadir. Amir Haydar 1812-yilda soldirgan.[2]

**Mirzo Ulug'bek madrasasi -** Bu bino 2 qavatli, 4 minorali, ichida masjidi ham bo'lgan. Xonaqoh, alohida masjid, karvonsaroy, hammomdan iborat bo'lgan. 1417-20 yilda qurdirilgan ham shaklan ham mohiyatan oily bo'lgan. 2 qavatli bo'lib 55 ta hujradan iborat bo'lgan. Har bir hujra 2 qavatdan iborat bo'lgan. Birinchisi qaznoq va mutolaaa, suhbat o'rni bo'lib,ikkinchi qavat – yotoqxona, bir hujra ikki kishi uchun mo'ljallangan. Har bir hujraning kirish eshigi ustida ilm o'rganishga, axloq va odobga tashviq etuvchi oyat va hadislar bitilgan. Masalan: "Al-ilmu izz-ol-din val-oxirati", "Utlub-al-xoyring inda ehson ol-vujuhu".[3] Ushbu madrasaning to`rt tomonida to`rt ta darsxona kun botar tomonda masjid va kutubxona ham faoliyat ko'rsatgan. Madrasada ulumi aqliya va ulumi naqliyaga dahldor fanlar o'rgatilgan. Ulum aqliyaga dahldor fanlarga falsafa, mantiq, matematika, astronomiya, algebra, riyoziyot, she'riyat nazariyasiga oid asarlar o'rgatilgan. Talabalar bilim saviyasiga qarab uch guruhga bo'lingan. Talabalar nafaqat arab, forsiy va turkiygo'ylarning asarlarini balki qadimiy yunon, suryoniy, hind tillaridan arab tiliga tarjima qilingan asarlar, Klavdiy Ptolomeyning "Batlimus", "Ulug' qurilish" asarlariga sharhni ham o'qishgan. Boshqa madraslar singari Mirzo Ulug'bek madrasasida ham haftaning to`rt kuni shanba, yakshanba, dushanba, seshanba rasmiy dars bo'lib, ikki kun chorshanba va payshanba mustaqil mutolaa kunlari, juma kuni esa dam olish kuni hisoblangan. O'qish jarayoni me'zon oyining birinchi kuni 21-sentabrda boshlanib, hamal oyining 21-mart kuni

[1] Абу Тоҳир Хўжа "Самария" -Т 1991-йил 27-бет
[2] Ўша жойда. 28-bet
[3] Валихўжаев Б. Самарқандда оилй таълим-мадрасаи олия-университет тарихидан лавҳалар. -С:. 2001. 82-бет

tugagan, yetti oy davom etgan. Qolgan oylar dam olish kuni hisoblangan. Madrasada ta'lim olish muddati 6 yil bo'lib, qaysi guruhga mansubligiga qarab maosh berilgan. Madrasani tugatganlarga mudarrislik qilish mumkinligini bildiruvchi ijozatnoma-diplomlar berilgan. O'rganilayotgan davrda Registon maydonining janubiy qismida bir qavatli qilib qurilgan Madrasai Usmatiboy yoki Madrasai Do'stbek deb nomlanuvchi madrasa ham faoliyat ko'rsatgan. Bu madrasaning binosi hozirda ham saqlangan, madrasa kichik bo'lgan. Ma'rifatparvar Do'stbekboy tomonidan o'z mollarini junlarini sotish mablag'idan qurilgan. Shuning uchun Madrasai-pashm deb ham ataladi. 1821 yilda Shohizinda majmuasiga kiraverishda 12 hujradan iborat madrasani Samarqand hokimi Davlat Qushbegi qurdiradi.1838 yilda Xalifa Muhammad Hasan tomonidan So`fi Roziq mahallasida 12 hujradan iborat madrasa qurilgan. 1867 yilda Registonda 14 ta gumbazli hujrdan iborat madrasa Turdi Aliboy tomonidan qurdirilgan. 1813 yilda Samarqand arki ichida Amir Haydar Ko`k tosh turadigan joy qarshisida madrasa qurdirgan.1816 yilda Rahmatobodda yetti hujradan iborat madrasani Mulla Rofe` oqsoqol qurdirgan.Shuningdek 1832 yilda Bog`i balandda, 1844 yil Orifjonboy tomonidan, 1857 yil Qo`shhovuzda, 1845 yil Xoja Zudmurod mahallasida,1854 yil Muhammad Husayn tomonidan, 1850 yil Puli Mug`obda ham madrasalar qurilgan. 1864 yil Romitan ko`chsida Abulxayrboy, 1867 yilda So`fi Roziq mahallasida Mirzaboy, 1868 yilda Shohkashon mahallasida. 1868 yilda Toshkandiy mahallasida, 1848 yilda Qozi Abdurasul mahallasida maktablar qurilgan[1]. Samarqandda Amir Shohmurod 3 ta madrasa qurdirgan. Misol uchun: Mulla Rafiq oqsoqol madrasasi vaqfi 1816 yilda yozilgan. Mulla Rafiq Mulla Badi o'g'li 300 tanob yerni o'zi qurdirgan 7 hujradan iborat madrasaga vaqf sifatida bergan. Masjid ham bo'lib vaqf hujjatiga ko'ra, Madrasa mutavalli o'z avlodidan bo'lishi kerak va vaqf daromadlar 10 ga bo'lingan. 1 qismi mutavalliga berilgan, qolgan qismi ta'mirlashga sarflangan, agar bunga ehtiyoj bo'lmasa 3 qismini mudarris, 1 qismini imom, 4 qismini talabalar qolgan 1 qism 5 ga bo'lingan va muazzin, sartarosh va qorovulga berilishi lozim bo'lgan.[2]

Qozi Abdulrasul mahallasi maktabi vaqfi 1848-yil martda tuzilgan. Unga ko'ra Mulla Mirzo Mo'min 4 tanob yerni vaqf sifatida bergan va o'z shartlarini qo'ygan. 1844-yilda tuzilgan, unga ko'ra Orifjon boy karvonsaroyni, 1 ta timni, 70 tanob yerni Qo'shhovuz mahallasidagi o'zi qurdirgan madrasaga vaqf sifatida bergan.

---

[1] Каттаев К. Самарқанд мадрасалари ва илм-фан ривожи.- С:. 2007. 25-26 бетлар.

[2] Файзиев А.Ф. История Самарканда первий пол XIX века.- С:. 1992, С.44

2 qavatli madrasaning 1-qavatida 25 ta hujra, 2-qavatida 5 hujra bo'lgan. Bu hujjatda Orifjon boy o'z shartlarini ham qo'ygan. 1831 yilda Davlat qushbegi, Shohi Zinda yaqinida qurdirgan madrasasiga karvonsaroy, 6 ta bo'sh do'koni, 280 tanob yer va 2 ta binoni vaqf sifatida taqdim etadi.[1] 1845 yilda fevral oyida Said Abdulqodir hoji Xoja Zulmurod madrasasiga 72 tanob yerni vaqf qiladi. 1850 yil sentyabrda So'fi Razzoq mahallasi madrasasiga 23 tanob yerni vaqf sifatida beradi. 1853 yil oktyabrda Qozi Mir Umar Xoja 600 tanob yerini Mahdum Xorazm madrasasiga vaqf qiladi. 1861 yilda avgust oyida Bog'i Balanddagi madrasa uchun Turdiali boy 128 tanob yerini vaqf sifatida beradi.[2]

Shunday qilib yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, Vaqf asosida faoliyat ko'rsatgan madrasalar, ta'lim muassasalarining barcha xarajatlari vaqf beruvchi tomonidan qat'iy belgilangan, bu esa o'z navbatida ta'lim sohasiga bo'lgan beqiyos e'tibordan dalolatdir. Albatta, har bir ta'lim muassasi mustaqil hisoblanib, o'zini-o'zi boshqargan va ta'minlangan, bu esa o'z navbatida madrasalarning barhayotligini ta'minlagan bosh unsurdir. Ta'lim tarbiyaga berilgan bu beqiyos e'tibor ajdodlarimizning yuksak ma'naviyat sohiblari bo'lganliklarini yana bir karra isbotlaydi.

### *§2. XIX asrning oxiri XX asr boshlarida maorif tizimi va ilm-fan.*

Turkistonning barcha hududlari Podsho Rossiyasi tomonidan bosib olingach, o'lka xalqlari ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayotida yangi davr ,g`arblashish jarayoni boshlandi. Chorizm rahbarlari o'lkada eng avvalo maorif tizimiga e'tibor qaratdilar. Musatamlakachilarning maqsadi xalq ongida asrlar davomida shakllangan milliy g'urur tuyg'usi, vatanga sadoqat tushunchalariga barxam berib, ko'r-ko'rona bo'ysinish, mute`lik, o'zligimizdan ajralish ruxida tarbiyalash edi. Chunki Turkistonda rusiy zabon ahlini shakllantirish uchun bunday ko'chiruvchilik siyosati zarur edi. Mahalliy xalq irodasiga qarama-qarshi o'laroq, Samarqandgacha rus madaniyati o`z ta'sirini o'tkazdi. Maorif tizimi orqali o'z g'oya va mafkuralarini xalq ongiga singdirib, o'z mavqeylarini oshirish maqsadini ko'zda tutdilar. Bu madaniylashtirish "xalq savodxonligini oshirish" deb nom oldi. Chorizmning maorif sohasidagi siyosati, o'lka maktab-madrasalarini tarixiy o'tmish va an'analaridan uzib qo'ygan edi. Maorif sohasidagi siyosat general-gubernator K.P.Kaufman, Chernyayev, Rozenbax, Vrevskiy, Duxovskiy, Ivanov,

[1] Файзиев А.Ф. История Самарканда первий пол XIX века.- С:. 1992, С.47
[2] Файзиев А.Ф. Новий документ из истории Самарканда первой четверти XIX века.// Общеетвенные наука в Узбекистане. год 1970. № 7.

Mishenko, Kuropatkin va boshqalarning buyruqlari asosida olib borilgan. Turkistonning birinch general-gubernatori K.P.Kaufman maorif sohasi bilan shaxsan o'zi shug'ullangan. Bu sohada u N.I.Ilmenskiydan yordam so'raydi. 1868-yil bahor oylarida N.I. Ilminskiy K.P. Fon Kaufmanga bu sohaga oid bir qancha xomaki reja va fikrlar beradi. N.O.Ilminskiy taklifiga ko'ra, O'rta Osiyodagi maorif ishlari missionerlik yo'li bilan olib boriladi. Maqsad esa mahalliy musulmon maktablarini ehtiyotkorlik bilan nasroniy usuldagi maktablarga aylantirish edi. Biroq Kaufmanning fikrlari boshqacha edi. Uning fikricha mahalliy aholining diniga qarshi qaratilgan ozgina taziyq xalqning mustamlakachilarga qarshi nafratiga olib kelishi mumkin edi. N.I.Ilminskiy bu sohada yordam bermasligini bildirgach 1870 yilda o'quv ishlarini tashkil etish bo'yicha alohida komissiya tuzildi. Bunga ko'ra xalq ta'limi imperiya manfaatlariga bo'ysinishi kerak edi. Shuningdek mahalliy diniy qarashlarga hech qanday taziyq o'tkazmasligi va musulmon maktablari rus hukumatining yordamidan voz kechishlari ta'kidlangan. Senator K.K.Palen komissiya xulosasi haqida "Biz mahalliy maktablarning o'rnini bosadigan maktab namunasini topmadik, chunki rus maktablari bu o'lkada uzoq yillar, balki umrbod mahalliy xalqga begona bo'lib qolaveradi" degan edi.[1] Bunday siyosat o'lkada so'ngi general-gubernator faoliyatigacha shunday tarzada davom etdi. Mahalliy maktab va madrasalrda faqat ma'muriy nazorat o'rnatildi, urf-odat, an'analar o'zgartirilmaadi. Rus maktablarida ham mahalliy bolalar diniy e'tiqodlariga aralashmaslik siyosati olib borildi.

1874-yil 20-noyabrda Rossiya imperiyasi tarkibidagi barcha musulmon o'quv yurtlarini Rossiya xalq ta'limi vazirligi tasarrufiga o'tkazish haqida qonun chiqadi.[2] General Fon Kaufman esa o'lkada bu qonunga amal qilmaslik haqida buyruq chiqardi. Birinchi general-gubernator davrida madrasa-maktablardagi ta'lim tizimi o'zgarmay aslicha saqlanib qolindi. Turkistonda xalq maorifi haqida 1875-yilda chiqarilgan qonunga asosan, general-gubernator huzurida o'lka o'quv yurtlari boshqarmasi tashkil etildi. Bu boshqarmaga bilim yurtlarning bosh inspektori rahbarlik qilardi. Shu qonunga asosan Turkiston hududida rus aholisi uchun o'g'il bolalar va xotin-qizlar gimnaziyalari hamda tub aholi uchun rus tuzem maktablari ochilishi mumkin edi. Turli tipdagi mavjud o'zbek maktablarining hammasi Turkiston o'lkasi o'quv yurtlari boshqarmasiga bo'ysunishi

---

[1] Ғаффоров Ш.С.Туркистоннинг ижтимоий,сиёсий ва маърифий ҳаёти тарихидан (XIX-XX асрлар).-С:. 1996. 49-бет
[2] Ғаффоров Ш.С. Мустамлака мактаби. «Ўзбекистон овози». 1999. 12 август

kerak edi. Ammo, generel-gubernator fon Kaufman mahalliy, diniy maktablarning hayotiga aralashmaslikni ancha to'g'ri ish deb hisobladi. Chunki, uning fikricha ana shu maktablarning hayotiga aralashish umuman xalqning chor ma'muriyatiga bo'lgan nafratini kuchaytirishi mumkin edi. Musulmon ruhoniylarining ta'sirini susaytirish maqsadida Turkistondagi CHor ma'murlari mahalliy millat farzandlarini Samarqand va Buxoroga diniy mavzularda o'qitishni cheklab qo'yishga harakat qildi. Musulmon muassasalarining moddiy ahvolini bo'shashtirish maqsadida diniy muassasa va maktablarda er va mulkni vaqf sifatida berishni ta'qib qilib qo'ydi. Mustamlakachi ma'murlar o'ta ayyorona ta'lim siyosatini olib boradilar. Milliy maktablarga rus maktablarini raqobatga qo'yishni rejalashtiradilar. Rus maktablariga ko'plab mablag'lar ajratib rus maktablarining afzalligini namoyon etishga harakat qiladilar. XIX asrning 80-yillarida mustamlakachilar maktab va madrasalarni bevosita rus maorif mahkamalariga bo'ysundirib, ichki ishlariga aralashadilar. O'quv dasturlariga rus tili kiritiladi va mudarrislar qatoriga rus o'qituvchilari kiritiladi. Bu esa madrasalarning ichidan turib nazorat o'rnatishga imkon berardi. Sababi o'quvchilar seminariyasini bitirganlarning har biri imperiya manfaatlari uchun josus vazifasini bajarishga qasamyod qiliganlar.[1]

1884-yilda xalq ta'limi inspektorlari uchun maxsus ko'rsatma tuzildi va vaqf mulklari ustidan nazorat qilishga erishildi. 1887-ylda Rozenbax maorif vazirligiga mahalliy maktab va madrasalarni nazoratga olish haqida doklad va talabnoma bilan murojaat qildi. Uch yildan so'nggina musulmon maktab va madrasalarda inspektor lavozimi joriy etildi. Bu vazifaga sharq tillari bo'yicha mutaxasis P.V.Nalivkin tayinlanadi. U o'quv dasturlariga rus tili va boshqa dunyoviy fanlarni kiritish haqida taklif kiritadi. Lekin Samarqand viloyatining harbiy gubernatori Graf Rastovtsev bunga qarshi chiqadi. O'lka general-gubernatori Vrevskiy, o'quv ishlar bosh inspektori F.M.Kerenskiy tomonidan ham qattiq tanqidga uchragach, 1896-yili musulmon o'quv yurtlarining inspektori lavozimi bekor qilindi.[2]

1898-yil general-gubernatorning yordamchisi Ivanov boshchiligida Turkistondagi maktab va madrasalarnning tuzilishini, musulmonlarning diniy boshqarmasini tuzish masalalarini hal qilish bo'yicha komissiya tuziladi. Musulmonlarning diniy boshqarmasini tuzish haqidagi loyiha general-gubernator tomonidan rad etiladi. Maktab

---

[1] Ғаффоров Ш.С.Туркистоннинг ижтимоий,сиёсий ва маърифий ҳаёти тарихидан (XIX-XX асрлар).-С:. 1996. 53-бет

[2] Ўша жойда 54-бет

va madrasalar ustidan nazorat o’quv ishlariga aralashmaslik sharti bilan viloyat va uezd ma’muriyatiga topshiriladi. 1908-yilda bu sohada general Konuratovich boshchiligida yana bir komissiya tuziladi. 1909-yilda yana shu sohada Turkiston o’quv yurtlari bosh boshqarmasi qoshida ham komissiya ish boshlaydi. Lekin bu komissiyalarning ham taklif etgan loyihalari amalga oshmaydi. Chor hukumati maktab va madrasalar hayotiga yangilik kiritmaslikka, keng dunyoqarashli, bilimli, ziyolilar qatlamini yetishib chiqishiga qarshi harakat qildilar.

General-gubernator A.N. Kuropatkin “Biz 10 yil tub joy aholisini taraqqiyotdan jilovladik, maktablar va rus hayotidan chetda tutdik” degan.[1] Aholini bilimsizlikda tutib turish, uning ustidan hukmronlikni kuchaytirgan. Shu sababli bilimga intiluvchan aholi mahalliy maktablarda olish imkoniyati bo’lmagan bilimlarini rus-tuzem maktablarida olish mumkinligini bilib bu maktablarda o’quvchilar soni oshdi. Bu ham imperiya siyosatiga xizmat qilar edi. Mustamlakachilar mahalliy xalqda islom dinining naqadar muqaddasligiga bo`lgan ishonchini bilib, juda ehtiyotkorona yo’l tutdilar. O`sayotgan yosh avlodni imperiyaga xizmat qilish ruhida tarbiyalashga asoslangan edi. Rus maktablarida ruscha qoidalar o’rnatilgan bo’lib, rus tilida savod chiqarilgan. Bolalar hukumat siyosatini qo’llab-quvvatlar edi. Bu ruslashtirishning eng maqbul usuli edi. Lekin qanchalik harakat qilishmasin xalqning diniy qarashlari ustunlik qildi. Rus maktablarida tarbiyalangan bolalar dinsiz bo’ladi deb, farzandlarni bu maktablarga bermadilar. Rus maktablariga mahalliy bolalarni jalb etish uchun pansionlar ochildi, oziq-ovqat, kiyim-kechak ham berildi.[2] 1868-yil Toshkentdagi rus maktabiga birinchi musulmon bolasini (tatar bo’lgan) har oy 10 so’m to’lash evaziga shaxsan Fan Kaufman olib kelgan. Rozenbax ta’lim vazirligidan o’lkada ruslashtirish siyosati uchun xizmat qiladigan bir qator ishlar rejalarini amalga oshirish uchun ruxsat oladi va mahalliy aholi uchun ruscha boshlang’ich maktablar ochishni rejalashtiradi. Bu maktabda 2 ta sinf bo’lib, bunda rus tilida boshlang’ich ta’lim, ikkinchisida arab grammatikasi va islom asoslari o’qitilishi lozim edi. Rus-tuzem maktablarida o’qish kuni 2 ga bo’lingan, birinchi 2 soatda rus tili, grammatika, o’qish va arifmetikadan rus o’qituvchisi darslarni

[1] Мажид Ҳасаний. Туркистон босқини.- Т:. 1992. 39-бет
[2] Ғаффоров Ш.С. «Чор Россияси истилоси даврида Туркистонда мактаб ва мадрасаларнинг аҳволи. Археология ва тарих фанининг долзарб муаммолари Республика илмий – назарий анжумани -С:. 2005

o'tgan. Keyingi 2 soatda esa arab grammatikasi, islom asoslarini musulmon o'qituvchi o'tgan.[1]

Bu maktablarning asosiy maqsadi bolalarni ruscha gaplashishga o'rgatish va shu asosda ruslashtirish siyosatini chuqurlashtirish edi. Bu borada general-gubernator shunday degan "bu maktablarning o'quv programmasi rus tili grammatikasi va hisob bo'yicha eng boshlang'ich bilimlar bilan cheklanishi lozim. Asosan hammani e'tiborni mahalliy millat bolalarining ruscha so'zlashuvini yaxshiroq egallashlariga qaratish kerak" degan edi. 1884-yil general-gubernator buyrug'iga ko'ra rus-tuzem maktablarining boshliqlari uchun maxsus ko'rsatmalar dasturini ishlab chiqiladi. Dasturga ko'ra mahalliy bolalar bilan yumshoqroq muomala qilinishi, jazolamaslik, yolg'ondan ularning dinini hurmat qilish, mahalliy til va odatlarni o'rganish, aslzoda bolalar bilan yaqindan tanishish belgilandi. Bu ham o'ziga xos ruslashtirish siyosatining bir ko'rinishi edi. Samarqandda dastlabki rus tuzem maktabi 1870-yil 14-anvarda ochildi. Samarqandda maktab tashkil etish uchun 900 rubl ajratilgan. Zarafshon okrugi generel K.Abramovning buyrug'iga asosan, mahalliy til va yozuvni yaxshi bilgan kapitan Grebenning 1870 yil 24-martda rus ma'muriyatining ana shu o'quv yurtidagi alohida vakili etib tayinlandi. Maktabda 20-30 ta o'quvchi bo`lib, maktabning o'quv jarayonida rus tilini o'rganishdan tashqari bolalarga hunar va qishloq xo'jalik ishlarini o'rganish ham ko'zda tutilgan edi. Buning uchun kichkina xo'jalik fermasi tashkil qilindi va yer uchastkasi ajratib berildi. 1876-yili bu maktabda 111 ta o'qg'uvchi bo'lib, ular orasida turli millat vakillari: o'zbeklar, tojiklar, yahudiylar va hindlar bor edi.[2]

1871 yilda Samarqandda rus aholisi uchun dastlabki maktab tashkil etildi. 1879 yilda bu maktab o'g'il bolalar va qizlar maktablariga ajratildi. 1882 – 1883 o'quv yilida bu maktablar uch sinfli o'g'il bolalar va qizlar bilim yurtiga aylantirildi. Samarqandda hammasi bo'lib uch sinfli to'rtta shahar bilim yurti bor edi. U yerda 78 ta o'quvchi ta'lim olardi. Ulardagi uch bola mahalliy millat vakillari edi. Bundan tashqari, shaharda uchta xotin-qizlar dinniy bilim yurti ham bor edi. 1887 yilda Samarqand rus-tuzem maktabi huzurida kechki kurslar ochildi.Bu kurslarga 25 ta tinglovchi, asosan mahalliy savdogarlar qatnar edi. Rus tilini o'rgatish bo'yicha kechki kurslar asta-sekin barcha rus-tuzem maktablari huzurida ham tashkil etildi. O'lkadagi rus-tuzem maktablari

[1] Ғаффоров Ш.С.Туркистоннинг ижтимоий,сиёсий ва маърифий ҳаёти тарихидан (XIX-XX асрлар).-С:. 1996. 65-бет
[2] Ғаффоров Ш.С.Туркистоннинг ижтимоий,сиёсий ва маърифий ҳаёти тарихидан (XIX-XX асрлар).-С:. 1996. 24-бет

mahalliy tub aholi bolalariga rus tili, arifmetika, tarix va geografiyani o'rgatish bo'yicha ma'lum tajriba to'plandi. Anna shu maktablar uchun yaratilgan darsliklarda, ayniqsa «O'qish kitobi» da tabiat, odamlar, hayvonlar va qushlar haqida elementar ma'lumotlar berilardi. Podsho Rossiyasi fikriga ko'ra Chor hukumatiga xizmat qiluvchi, hayrixoh odamlarni tayyorlovchi rus-tuzem maktablari ruslashtirish siyosatida eng asosiy o'rinni egallaydi. Keyinchalik boshqa uezdlarda ham rus-tuzem maktablari qoshida kechki kurslar tashkil etildi. 1887-yilda 4 ta maktabda 48 ta o'quvchi, 1 ta kechki kursda 25 ta tinglovchi. 1890-yilda 7 ta maktabda 250 ta o'quvchi 4 ta kechki kurslarda 99 ta tinglovchi, 1906-yilga kelib 12 ta rus-tuzem maktabida 330 ta o'quvchi tahsil olgan bo'lsa, 5 ta kechki kurslarda 263 ta tinglovchilar qatnashganlar.[1] Rus adabiyoti klassikalari Pushkin, Lermantov, Krilov va boshqalarning asarlaridan olingan qisqa parchalar keltirilgan edi. 1889 yilga kelib Samarqandda rus aholisi uchun xotin-qizlar gimnaziyasi (167 ta o'quvchisi bor edi) erkaklar uchun kichik klassik gimnaziya ( 104 o'quvchisi bor edi) to'rt sinfli shahar bilim yurti huzurida internat ham tashkil etildi. Bundan tashqari A.S. Pushkin nomli shahar diniy bilim yurti (72 o'quvchisi bor edi ) ochildi. Bu davrda hunar ta'limiga ham bir qadar e'tibor berildi. Chunki, viloyat sanoati va temir yo'llar transporti uchun bilimdon yoshlar zarur edi. 1918 yilda Samarqandda ikki sinfni erkaklar temir yo'li bilim yurti (49 o'quvchisi bor edi) ochildi.

Turkistonga birinchi bo'lib kelgan ruslar mahalliy xalq savodxonligidan hayratga tushganlar. 1878-yilda Farg'ona vodiysiga tashrif buyurgan A.Middendorf "Bu o'lkaning savodliligi darajasini Rossiyaning xalq ta'limi bilan shug'ullanuvchi namoyondalarini namuna qilib ko'rsatish kerak" degan fikr fikrimiz isbotidir.[2] Dastlab maorif sohasi bilan harbiy ma'murlar shug'ullangan bo'lsa, keyinchalik ayrim ma'rifatparvarlar ham kelishadi.

D.M. Romishenskiy 1875-yili "Musulmonlar hayotida hayron qolarli darajada boshlang'ich maktablar ko'p, lekin shu bilan birga savodli kishilar kam".[3] Deb yozadi. Bu fikrga tayangan holda shuni aytish mumkinki nafaqat vohada balki butun Turkistonda ham maktablar ko'p bo'lsada, ta'lim jarayoni sifatsiz, past, zerikarli bo'lgan. Aholining savodxonligi o'rtacha bo'lgan, yuqori bo'lmagan. Samarqandda 2 xil maktab bor. Biri

---

[1] История Самарканда Том I -Т:. 1969 С.391

[2] Ғаффоров Ш.С.Туркистоннинг ижтимоий,сиёсий ва маърифий ҳаёти тарихидан (XIX-XX асрлар).-С:. 1996. 38-бет

[3] Ғаффоров Ш. С. Чор истибдоди даврида Туркистондаги таълим тизими. -С. 2001. 34-бет

mahalliy xalq uchun, ikkinchisi ruslar uchun. Rus maktablarida harbiylar bo'sh vaqtlarida dars berishadi. Maktab ham bir necha oydan beri yopiq. 40 daraja issiqlikda o'quvchilar qanday bilim olishadi. Ta'lim dasturlari bolalarning yoshiga, qobiliyatiga moslanmagan, maktablarda zamonaviy asbob-uskunalar bo'lmagan, o'qituvchilar ham yetarli darajada malakali bo'lmagan. Lekin maktab-madrasalar soni aholi soniga nisbatan o'rtacha miqdorda bo'lgan. 1904-1905-yildagi ma'lumotlarga ko'ra Samarqand viloyatida 2300 ta maktab, 38 ta madrasa faoliyat ko'rsatgan. Samarqand sahhrida 113 ta maktab, Urgutda 38 ta maktab, Kattaqo'rg'onda ham 38 ta maktab faoliyat ko'rsatgan.[1]

Urgut shahrida ko'p asrlik ulkan chinorlar kovaklaridan maktab binolari sifatida foydalanishgan.[2] Vohada maktablar soni madrasalardan ko'p bo'lib bu ham maorif tizimidagi o'zgarishlardan dalolat beradi.

1890-yil maktablarni idoraviy nazorat qilish uchun maxsus 3-inspektor lavozimi joriy etildi.[3] 1896-yildan boshlab maktab va madrasalar shahar va uezd boshliqlari tomonidan nazorat qilinadigan bo'ldi. 1890-yillarning boshlarida Turkistondagi musulmon maktab va madrasalarning inspektori P.Nalivkin bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki hukumat vakillari nafaqat Vohadagi balki Turkiston o'lkasida ham faoliyat ko'rsatgan maktablarning aniq sonini bilishmagan. XIX asrning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat maktab va madrasalarning moddiy ahvoliga, o'qitish jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Moliyaviy qiyinchiliklar, iqtisodiy tangliklar yuz bergan. Bir tomondan asrlar davomida shakllangan o'qish usuli ikkinchi tomondan Chor ma'muriyati tadbiq etgan yangi ta'limiy shakl orasida o'quvchi yoshlar karaxt bo'lib qolishgan. Keyinchilik esa bu har ikkala yo'nalish orasida yangi usulli jadid maktablari o'rtaga chiqdi.

K.E. Bendrikovning ma'lumotiga ko'ra Samarqandda 50 ta madrasa faoliyat ko'rsatgan. Samarqnad viloyatining Gulxandoz qishlog'ida 1877-yil, Dahbedda 1892-yil, Payshanbi qishlog'ida 1891-yili, 1877-yilgacha Urgutda yangi madrasalar ochilgan.[4] Qaysi madrasaning daromadi ko'p bo'lsa, demak unda o'quv jarayoni yaxshi yo'lga qo'yilgan, aholining e'tiboriga tushgan madrasalarda nafaqat boy bolalar o'qitilgan balki

---

[1] Вирский М.М. Список населенных месть Самаркандской области по свадениям 1904 и 1905 г.г. -С:. Год 1906. С.4-13-8

[2] Ғаффоров Ш.С.Туркистоннинг ижтимоий,сиёсий ва маърифий ҳаёти тарихидан (XIX-XX асрлар).-С:. 1996. 37-бет

[3] Ғаффоров Ш. С. Чор истибдоди даврида Туркистондаги таълим тизими. -С. 2001. 36-бет

[4] Ғаффоров Ш.С.Туркистоннинг ижтимоий,сиёсий ва маърифий ҳаёти тарихидан (XIX-XX асрлар).-С:. 1996. 40-бет

daromadlaridan ehson ham qilishgan. 1891-93 o'quv yili Samarqand viloyatining reviziyasiga ko'ra viloyatda 58 ta madrasa mavjud bo'lib, ulardan 40 tasi shaharlarda va 18 tasi qishloqlarda joylashgan, viloyat barcha madrasalarining o'rtacha yillik daromadi 28555 so'mni tashkil qiladi. Ularning ichida o'n ikkita madrasa 2000 so'mdan ortiq daromadga ega bo'lsa ettita madrasa 1000 so'mdan 2000 so'mgacha daromadga ega bo'lgan. Shulardan 9 ta madrasaning hech qanday daromadi bo'lmagan.Bundan ko'rinib turibdiki madrasalar faoliyati turlicha past, o'rta va yuqori saviyada bo'lgan, maktablar boshlang'ich ta'lim berishga ixtisoslashgan. Husnixat va yozish bolalarga puxta o'rgatilgan. Shahar va qishloq maktablarida farq bo'lgan. Zamonaviy maorif tizimi bo'lmasada, o'ziga xos ta'lim usulllaridan foydalanishgan. O'qitishdagi faqat yod olishga qaratilgan tartiblar o'quvchi yoshlarni qondira olmagan. Lekin jadidchilik harakati va ularning Turkiston aholisining savodxonligini yuksaltirish g'oyasi bilan chiqish Chor hukumati davrida ham maorif tizimi qoniqarli bo'lmaganligini isbotlaydi. Rus ziyolilari ayrim vakillarining tashabussi bilan 1904 yilda Samarqandda bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik quyi maktabi ishlay boshladi. SHahar xo'jalik boshqarmasi anna shu maktab uchun jami maydoni 11 desyatinaga yaqin bo'lgan ikkita yer uchastkasi va xo`jalik binolari ajratildi. 1904 yilda maktabning to'rtta sinfida 32 ta o'quvchi ta'lim olgan. 1903 yilda yordamchi imoratlar qurish va maktab binosini ta`mirlash uchun mahalliy me'morlarga 10550 so'm pul ajratildi. Biroq, maktab ehtiyojlari uchun ajratilgan mablag'lar juda oz edi. 1906 yilda Turkiston qishloq xo'jaligi jamiyati komissiyasi taklif etilayotgan maktab binosi loyihasi va rejasini qarab chiqdi ammo, uni qurish ishlari amalga oshirilmadi.

1906-yilgi ma'lumotlariga ko'ra Samarqand viloyatida 15 ta rus-tuzem maktablari faoliyat yuritgan, jami 273 ta o'rtacha 13 ta o'quvchi tahsil olgan.

Bu davrda haqiqatdan ham chinakam yetuk bilimli, sanoat, temir yo'l ishlarini biluvchi ishchilarga talab ortdi. 1898-yilda Samarqandda 2 yillik erkaklar (68 ta o'quvchi) va qizlar (49 ta tinglovchi) temir yo'l o'quv yurti ochildi. Ruscha muomala qilishni o'rganib olishgach, talabalar, rus tilida ariza, telegramma va boshqa xatlarni pul evaziga yozib berardilar. Maktabni bitirganlar ma'muriy idoralarda, banklarda, politsiya nazoratlarida ishlashgan, rus savdogarlari bilan yaqin aloqa o'rnatishgan. Rus hayot tarzi bilan tanishish ham zamon talabi bo'lib qolgan. Shu sababli rus-tuzem maktablari o'quvchilarining soni tobora ortib brogan. Lekin tan olish kerakki bu maktablarda

zamonaviy ilmlar ham o`rgatilgan. Rus tilini o'rganish esa xalqaro miqqiyosda keng imkoniyatlar ochardi. Bu davrda maorif tizimida ijobiy siljishlar ro'y bergani yo'q. Bunday og'ir, tushkun bir davrda butun Turkiston olkasida yangi nom, yangi atama jadid yangi usul maktablari kirib keldi, bu maktab rus-tuzem maktablaridan ham, mahalliy madrasa va maktablardan ham farq qilardi.Turli tilli maktablar faoliyati natijasida voha hayotida ijtimoiy, siyosiy, madaniy aloqalar kuchaydi, savdo sotiq rivojlandi. Burjuaziya shakllana boshlandi. Butun Turkiston o'lkasining ma'rifiy taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shganlar jadidchilik nomi bilan umrbod tarixda qoldilar. Ma'rifatparvarlar islomiy tushunchalarning asl mohiyatini isloh qilishgan. Jadidlar milliy, umuminsoniy manfaatlarni ma'rifiy yo'l bilan birlashtirishga, milliy maktablarni sharq va g'arb ta'lim tizimining zamonaviy an'analari asosida shakllantirishga harakat qilishadi. Ular barcha sohada yangilik tarafdori edilar. Aholi jadid g'oyalarini tezda qabul qila olmasdi, chunki bu Turkiston maorif sohasidagi uchinchi yo'nalish edi. Xalq maktab-madrasalarimi, rus-tuzem maktablarimi yoki yangi jadid maktablarimi qay birining ma'qulligini anglashga qiynalib qoldi.

1843-yili Samarqandda I. Gaspirinskiy tashabbusi bilan ilk jadid maktabi ochilgan.[1] 1903-yilda "Qo'shhovuz" mahallasida Abdulqodir Shukuriy usuli jadid maktabini ochdi. Turkiston jadidlari yo'lboshchisi Mahmudxo'ja Behbudiy "Taraqqiyot va fanlar davri keldi. Madaniyatimiz millatlar va xalqlarning madaniyatli bo'lish payti keldi." deb yozadi.[2] 1905-yil Mahmudxo'ja Behbudiy "Kaftarxona" mahallasida maktab ochib 40 ga yaqin o'quvchiga ta'lim bera boshlaydi va bir necha darsliklar yaratadi. 1903-yilda Xoji Muin ham "Xoja Ilg`atdor" mahallasida jadid maktabini ochadi va "Rahnamoi Savod" nomli alifbe yaratdi.1917-yilda Samarqand "Islomiya" klubi tuziladi va unda dars o'tiladi. K.K.Polenning reviziyasiga ko'ra Samarqanddagi 4 ta usuli jadid maktablarda 200 dan ortiq talaba o'qigan. Kattaqo'rg'onda ham yangi usul maktablari ochilganligi haqida ma'lumotlar bor. 1903-yilda Shukuriy tomonidan ochilgan maktabda 1913-yilga kelib 117 ta o'quvchi tahsil olgan. Jami Samarqandda 5 ta jaded maktabi bo'lgan. Umuman olganda Jadid maktablarining ochilishi xalqimiz tarixida ma'rifat shu'lasi bo'lib qoldi. Ma'rifatparvarlarimiz XX asr boshida aholining milliy o'zligini anglashga turtki bo'ldi. Samarqandlik "Tikon" taxallusli Qori Muhammad Rahim, "ishchi" taxallusi bilan Shokir Muxtor, Mulla Abdulla Fayzlar xalq manfaatlarini himoya

[1] Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. 14- бет
[2] Туркистон вилояти газети. 1908-йил. 8-декабр

qilib ijod qilganlar. Qori Muhammad Rahim "Tikon", "Mayna", "Pat" she'rlarida eski usul, urf-odatlarni tanqid qiladi. Samarqandlik pedagog Shokir Muxtor 1910-yildan boshlab o'zbek tilida maqo-lalarni e'lon qila boshlaydi.

1894-yilda 80 ta ishchi ishlovchi tipografiya ish boshlashi bilan o'zbek, rus va boshqa tildagi kitoblar, she'rlar ommalashdi.[1] 1904-yilda "Rahbarnoma dar baroi chechak" chechak kasalligini davolashga xizmat qiluvchi broshyura, 1908-yilda "Asal tarbiyasining bayonoti" asalarichilikka doir brosayuralar chop etildi.

1905-yilda "Pilla qurtining tarbiyasi", 1913-yilda "Raxbari maktab" alifbe, Ismatilla Rahmatullayevning kitoblari tarjima qilindi. Turkiston, Buxoro, Xiva xaritalari o'zbek tilida savodxonlikka oid "Rahnamoi savod", "To'y", "Yangi maktab va eski maktab", "Mazluma xotun" va boshqa pyessalar chop etildi.[2]

1913-yilda Samarqandda 11 kishidan iborat o'zbek teatr truppasi ish boshladi. 1914-yilning boshlarida havaskor artistlar "Padarkush", "Aldadi va aldandi" kabi pyessalari namoyish qilishdi. Har ikkala pyessada ayol rolini erkaklar ijro etganlar. Bu spektaklga tomoshobinning munosabati haqida "Oyna" jurnalida shunday yzoiladi: "Spektaklga juda ko'p odam keldi…, ibratxona 320 ta tomoshobinga mo'ljallangan edi. Qo'shimcha yana 50 ta o'rin tayyorlangan edi. Lekin u ham yetmadi. Biletlar 2 kun oldin sotilgan edi. Soat 7 dan boshlab minglab odamlar ibratxonaga kela boshlashdi. Odamlar spektaklni tik turib ko'rish uchun 3 rubl berishga rozi edilar. Tashkilotchilar to'plangan ommadan uzr so'radilar."[3]

Xalq bayramlarida turli musobaqalar uyushtiriladi, ko'proq ko'pkari o'tkaziladi. 1869-yil General Abramov tomonidan Afrosiyob tepaligida ko'pkari tashkil etilgan. [4] 1868-yildan keyin mahalliy ayollardan aktrisa va musiqachilar paydo bo'ldi. Birinchi aktrisa va musiqachi Qurbonxon bo'lib, o'zi mustaqil ravishda xalq she'rlariga musiqa bastalagan, ko'plab musiqa asboblarini chala olgan, juda chiroyli kuylagan va raqsga tushgan. Kechki xalq yig'inlari, turli bayramlar Qurbonxonsiz o'tamagan. Musiqa va san'atga ishtiyoqi uchun u shariat va oilasidan yuz o'giradi. Samarqandlik Hofiz Xoji Abdulaziz Rasulov (1852-1936) mashhur bo'lgan. Umar Xayyom, Jomiy, Navoiy, Bedil, Muqimiy, Furqat g'azallariga kuy bastalab kuylagan. 1909-yilda Riganing "Grammafon"

[1] История Самарканда Том I Т:. 1969 С.347
[2] Ўша жойда С. 347
[3] Маҳмудхўжа Беҳбудий. Истиқлол қаҳрамонлари. -Т.. 1997. 45 бет
[4] Р.Иванов. Внутреннее обозерение. Русское земля. Самарканд.// Туркестанский сборник. Т 77. С. 91

firmasi Xoji Abdulazizning "Iroq", "Nasrulloi", "Ushshoq" maqomlari ijrosini yozib olishadi.

Samarqandda 1870-yilda birinchi shifoxona ochildi. 1885-yilda mahalliy ayollar va bolalar uchun shifoxona ochildi.Samarqandda bitta restoran bo'lib unda har xil ovqatlar qilinmaydi. Kattaqo'rg'on yo'lining oxiridagi bog'da shahar gospitalining yozgi binosi va apteka joylashgan. Aptekada dorilar kambag'al aholi uchun bepul tarqatiladi. Rossiyaning ba'zi shaharlaridagina bunday imkoniyat bor.[1] 1886-1894-yillarda 28003 ayol va 16496 ta bolalar ushbu shifoxonada davolan-dilar.[2] 1890-yilda 50 koykali mahalliy shifoxona ochildi. 1913-yilda Samarqand vrachlari jamiyati tuzildi. Artamonov, Bilfeld, Bogdak, Berizovskiy, Venyaminov,Terfenshteyn, Deyk, Dybrovina, Zodunovskiy, Ivanov, Ilinskiy, Fixtner jamiyatning faol a'zolari edilar.[3] Kattaqo'rg'onda 7 o'quvchili bilim yurti faoliyat ko'satgan. Samarqad shahar bilim yurtida 684 tomli kitoblar 1000 nusxada turli qo'lyozmalar saqlangan. Qizlar bilim yurti kutubxonasida 700 ta kitob 135 ta pasobiya bo'lgan.

Shahardagi kutubxonaga bir oyga bir rubl bilan a`zo bo'lishadi. Shuningdek klub ham faoliyat ko'rsatib, Chorshanba, Juma va Yakshanba kunlari turli kechalar uyushtiriladi. Rojdestvo va Moslinina maskaradlari ham o'tkaziladi.[4]

1890-yilda Samarqandda dorixona ochiladi, keyinchalik boshqa hududlarda ham shunday dorixonalar ochilgan. 1890-yilda 25 koykali mahalliy xalq uchun xizmat qiluvchi shifoxona Kattaqo'rg'onda ham ochildi..

Mustamlakaning dastlabki yillarida rus aholi bolalari Rossiyaning Yevropa hududlariga o'qish uchun yuborilgan. Barcha ofitser va chinovkinlar ham farzandlarini chetga yubora olmaganlar.

**Mahmudxo'ja Behbudiy** (1875-1919) 1875-yil 19-yanvarda Baxshitepa qishlo-g'ida ruhoniy oilasida tug'ilgan. Otasi Behbudxo'ja Solihxo'ja o'g'li Turkistonlik A.Yassaviy avlodlaridan, onasi Urganchlik bo'lib, bobosi Amir Shohmurod davrida Samarqandga kelgan. 18 yoshidan qozixonada mirzalik qila boshlaydi. Samarqand so'ng Buxoro madrasalarida o'qiydi. 1899-1900 yillarda Behbudiy Buxorolik do'sti Xoji Baqo bilan haj safariga chiqadi. Safar yangi maktab haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi. Uning tashabbusi bilan Xolvoyi qishlog'ida Siddiqiy Ajziy, Rajabamin qishlog'ida

---

[1] Afg'oniston .// Туркестанский сборник. Т 240. С.23
[2] История Самарканда Том I -Т:. 1969 С. 352
[3] Ўша жойда С. 347
[4] Из Самарканда (коррипенденция русского инвалида) // Туркестанский сборник. Т 240.С. 223

A.Shukuriylar yangi usul maktablarini tashkil etadilar. 1904-yilda "Risolai asbobi savod", "Risolai jug'rofiya umroniy", 1905-yilda "Risolai jug'rofiyai Rusiy" 1905-yilda "Kitob ul-atfol", 1908-yilda "Amaliyoti islomi", 1908-yilda "Tarixi islom", 1909-yilda darsliklarini yozadi. 1903-1904 yilda Moskva, Peterburgda, 1906-yilda Qozon, Ufa, Nijniy- Novgorodda xizmat safarida bo'ladi. Nijniy-Novgorodda 1906-yilning 23-avgustida Russiya musulmonlarining turmush tarziga bag'ishlangan qurultoyda nutq so'zlaydi. Mahmudxo'ja Behbudiy jadidchilik harakatining etuk namayondalaridan biri bo'lib, u musulmon davlatlari va Rossiya shaharlarni kezib, o'z mamlakatida ta'lim tizimi hamda moddiy-ma'daniy turmushning ortda qolayotganligini anglab etdi. Ma'rifat uchun nafaqat maktab balki teatr ham kerak edi. Shu tariqa drammachilik va matbuotga tamal toshi qo'yildi. 1913 yil aprelda "Samarqand" gazetasi chiqarila boshlandi. Gazeta turk va fors tilida, haftada ikki marta, dastlab ikki so'ng to`rt sahifada chop etilgan 45 ta sonidan keyin moddiy ahvol tufayli tugatilgan. O'sha yilning 20-avgustidan boshlab "Oyna" jurnali chiqariladi.[1]

Behbudiyning bu jurnali haftalik o'zbek tilida suratli edi. Forsiy she'rlar, maqolalar, ruscha e'lonlar chiqarilgan. Bu jurnal haftada ikki marta chiqarilgan, ikkinchi yildan boshlab 15 kunda bir marta chiqarilgan. Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg'oniston, Hindiston, Turkiyagacha tarqalgan mashhur bo'lgan, bu jurnalda turli mavzudagi maqolalar berib borilgan. Ba'zilar Behbudiyning 200 boshqalar 500 ta maqolasi bor deb hisoblaydilar. Uning Vatan millat taqdiri haqidagi barcha qarashlari mana shu maqolalarda aks etgan. Behbudiyning "Muntaxobi jug'rofiyai umumiy" (qisqacha umumiy geografiya), "Kitob ul-atfol", "Bolalar maktablari", "Muxtasari tarixi islom" (Islomning qisqacha tarixi), "Madxali jug'rofiya umroniy" (Aholi geografiyasiga kirish) Rusiya geografiyasiga oid darsliklari ma'lum. "O'lka va Turkiston musulmonlari" maqolasida mustamlaka siyosati o'lkadagi 70000 rusdan 6 ta deputat 7 million musulmonlarga 5 ta o'rin ajratilganligini ochiq tanqid qiladi. Albatta, Behbudiy mustaqillik, erk uchun ma'rifat yo'li bilan kurashdi va uning nomi doimo barhayotdir.

Rus ziyolilarining vakillari 1870 yilda o'z mablag'lari hisobiga Samarqand xalq kutubxonasi ochdilar. Bu kutubxona tashkilotchilari kitob o'qishnigina emas, balki Turkistonning o'tmishi tarixiga oid sharq qo'lyozmalari va me`roslarni yig'ish hamda saqlashni ko'zda tutdilar. 1874 yilda Samarqand viloyat tarix muzeyining tashkil

[1] Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. 255- бет

qilinganligi muhim voqea bo'ldi. Turkiston, Rossiya tomonidan istilo qilingandan keyin Samarqand va butun Zarafshon vodiysining tarix tabiati va turmush tarzi yanada batafsil o'rganila boshlandi. V.V.Bortold, A.P.Fedchenko, V.V.Radlov, A.A.Grebenkin, A.L.Kun, V.L.Vyatkin va boshqa tadqiqotlarchilarning asoslari o'z milliy qimmatini hozirgacha yo'qotgani yqq. Taniqli rus sharqshunosi A.L.Kun 1868 yildan boshlab Samarqandda turli vaqf xujjatlarini to'play boshladi. U 150 ga yaqin qimmatli xujjat to'plab, ularni rus tiliga tarjima qildi. Rus olimlari 1878 yildan boshlab Zarafshon vahosining tabiati ustida kuzatuv ishlarini boshlab yubordilar. Ana shu davrda 1878 yilda Samarqandda, 1881 yilda Toshkent va Jizzaxda, 1901 yilda Kattaqo'rg'onda meterrlogiya stansiyalari tashkil etildi. L.A.Molchanov bu stantsiyalarda to'plangan materillarni ishlab chiqdi, umulashtirdi, keyinchalik u O'rta Osiyoning iqlim xaritstini tuzdi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida san'at asarlarini V.A. Reshatnikov, S.N.Borshevskiy, V.L.Vyatkin, V.G.Brjejiskiy va boshqalar to'plaganlar.

Ayniqsa XX asr boshlarida agronom V.S.Panin ko'plab san'at namunalarini yig'gan, uning kolleksiyasi 150 tadan ortiq eksponatlar Narimonova ko'chasidagi o'z uyida saqlanardi. [1] Samarqand umuman O'lka qiyofasini bizgacha yetib kelishida ko'plab rus rassomlarining mehnatini alohida ta'kidlash o'rinlidir. V.B. Vereshagina Samarqand uchun janglarda ham bevosita ishtirok etib ko'plab qimmatli rasmlarni qoldirgan. 1887-1888 yillarda Samarqandga sayohat qilgan rassom L.E.Dmetrev-Kavkazskiy ham shahar obidalarini chizgan. E.M.Dudin 1895-1905 yillar oralig'ida Samarqandda bo'lib ko'plab qimmatli ma'lumotlar qoldiradi. XIX asrning 80-90 yillarida Samarqandda rus olimlari, kolleksionerlari va ilmiy jamiyatlari hamda to'garaklarning ta'siri ostida qadimiy yodgorliklarni to'plovchi xavaskorlar gurlar paydo bo'ldi. Ular orasida Mirzo Buxoriy, Mirzo Abdullin, Mirzo Borot, Mulla Qosimov, Mirzo Abdurahmon va boshqalar shuhrat qozonganlar. Qadimiy yodgorliklarni to'plovchilardan biri Mirzo Buxoriy edi. U Samarqandning So'zangaron qismidagi Toshkent mahallasida yashar edi.

Mirzo Buxoriy rus olimi N.I.Vesolovskiy, shuningdek shoir Furqat bilan tanish edi[2]. Shoir Furqat 1891 yilda Samrqandda bo'lib, Mirzo Buxoriyning uyida yashaydi va uning kolleksiyalarni zo'r e'tibor bilan ko'zdan kechirdi. Furqat o'zining «Turkiston viloyati gazetasi» redaksiyasiga yozgan xatida buni eslatib o'tadi. Bu xat 1891 yil

[1] Вехи Времен. Рассказы о памятниках истории и культуры Узбекистана. Т: 1983.С. 188
[2] История Самарканда Том I Т:. 1969 стр 366.

avgustida bosilib chiqqan edi. Qadimiy yodgorliklarni to'plovchi xavaskorlar orasida Samarqandlik rassom va xattot Mirzo Barot mulla Qosimovning nomini tilga olib o'tish kerak. U Sherdor madrasasi, Bibixon masjidi, Shohizinda maqbarasi, Go'ri Amir maqbarasi yozuvlarini shuningdek, Jizzaxdagi « Temir darvozasi » qoya toshidagi yozuvlarni butun tafsilotiga rioya qilgan holda ko'chirib oldi. Mirzo Barot Ulug'bek madrasasining qo'lyozma chiziqlarini tayyorlab, Toshkentda ko'rgazma tashkil qildi. Bundan tashqari u Abu Tohirxo`ja Samarqandiyning mashhur «Samariya» asarini tojik tilidan o'zbek tiliga tarjima qildi. Bu tarjima M.R.Ostroumov tamonidan 1884 yilli Toshkentda bosib chiqarildi. Bu davrda rus adabiyotining ayrim namunalari tojik va o'zbek tillariga tarjima qilindi. Masalan: Samarqandda yangi usul maktabi 1901 yil Abdulqodir Shakuriy tamonidan ochildi. Abdulqodir Shakuriy ana shu maktab uchun o'quv qo'llanmasi sifatida « Jome' alhikoyat» asarini tayyorladi va nashr ettirdi. Bu kitobni u fors – tojik tillariga tarjima qilib, Kirilov masalalari va L.N.Tolstoy hikoyalarni kiritdi.Abdulqodir Shakuriy tashkil etgan yangi usul maktabi tez orada shuxrat qozondi. Abdulqodir Shakuriyning yordami bilan S.Ayniy 1914 yili Samarqandda yangi usul maktabi o'quvchilari uchun birinchi darslikni nashr ettirdi. Bundan tashqari Samarqandda boshqa ko`plab ma'rifatparvar, ziyolilar yashab, faoliyat ko'rsatdilar.

Shunisi qiziqki, hozirgi kunga qadar chor hukumatining Turkiston maorif tizimi bilan bog'liq siyosatining mohiyati tugal va odil bahosini olgani yo'q. Umuman olganda bu davr Turkistonning maorifi sohasidagi ahvoli mahalliy va rus tarixchilari tomonidan keng yoritilgan. Shu bilan birga sobiq ittifoqning bir qancha taniqli olimlari ham bu borada muayyan tadqiqotlar yaratganlar. Ammo imperiyaning zo'ravonlikka asoslangan siyosati, mualliflarga mavzuni xolis, ilmiy fikrlar, tarixiy xaqiqat nuqtai nazardan yondashishga xulosalar asosida tahlil qilishga imkon bermagan. Masalan: Faqat sinfiy jihatdan tadqiq etilgan. Mustamlakachilik nechog'lik oqlanmasin, u baribir bosqinchilikdir. Uning maqsadlari mahalliy aholi manfaat va istaklariga zid ravishda o'z foydasi uchun xizmat qiladi. Aks holda mustamlakichilik siyosiy zaruratga, iqtisodiy ehtiyojga aylanmas edi. Chor Rossiyasining Turkiston ijtimoiy hayotining maorif jabhasiga olib borgan siyosati ham aynan shu tamoyil tarixiy zarurat va ehtiyoj nuqtai nazaridan kelib chiqib amalga oshirilgan. Xulosa qilib aytganda, chor ma'murlari mahalliy aholining maorif sohasidagi qadimiy an'analarini inkor etishga, cheklashga uringanlar 1909-yil 19-martda general-gubernator P.I.Mishenkoning xalq ta'lim

vazirligiga yo’llagan xatida “Biz mutlaqo madaniyatsiz va savodsiz qabilalar orasida xalq ta’limini joriy etishni ko’zda tutmaganmiz, balki musulmonlar orasida qadimdan mavjud bo’lib, g’oyat keng yoyilgan ta’limni isloh qilmoqchimiz” kabi fikrlari o’lkaning savodxonlik darajasi yuqori bo’lganligini yana bir bora tasdiqlaydi. Mustamlakachilarning bosh vazifasi o’lkani ruslashtirish va rus aholisi mavqeyini oshirish edi. Maorif dagi islohotlar bu ishlarning tamal toshi edi desak xato bo’lmaydi.

## *II BOB. XIX VA XX ASR ASR BOSHLARIDA ADABIY MUHIT.*

### *§1. XIX asrning birinchi yarmida adabiy muhit.*

XIX asr va XX asr boshlarida O'rta Zarafshon vohasida adabiy muhit rivoji, taraqqiyoti va muammolarini chuqur aks ettirishni inobatga olib, vohaning ilm-fan, madaniyat markazi hisoblanmish Samarqand shahri va uning atrofidagi Urgut, Kattaqo'rg'on shaharlari misolida yoritishga harakat qilindi.

Buxoro amirligidagi adabiyot xalqning etnik tarkibiga va milliy urf-odatlari ta'siri bilan bog'liq holda o'ziga xos xususiyatlarga ega edi. Eng muhim tomoni bu adabiyotning til jihatdan tabaqalanganligi bo'lib, Buxoro shahri va amirlikning to-jiklar yashaydigan hududlari Darvoz, Badaxshon, Xisorda adabiyotda tojik tili yetakchilik qilgan, bu esa madarasalarda ta'lim, arab va fors-tojik tillarida olib borilganligi bilan bog'liqdir. Buxoro, Shahrisabz, O'ratepa oralig'ida yashovchi shoirlar qisman o'zbek, qisman tojik tillarida ijod qilganlar. Ularning tojik tilidan foydalanishlari ta'lim-tarbiya masalasi bilan bog'liqdir. Buxoro amirligidagi adabiy muhit boshqa xonliklar adabiy hayotidan farq qilar edi. Bu farqni esa adabiy jarayonda markazlashishning yo'qligida ko'ramiz. Mang'it amirlari hukmronligi davrida yetishib chiqqan yetuk adabiy namoyondalarning ko'pchiligi davlatning turli hududlarida yashab ijodlarini tirikchilik manbayi bo'lgan kasb-hunar bilan birga olib borishga majbur bo'lganliklarini manbalarda ko'rishimiz mumkin. Bu noxush xolatga qaramay turli shahar va o'lkalarda goh uyushgan goh tarqoq o'ziga xos adabiy maktablar paydo bo'lgan, shakllangan va rivojlanagan. Misol tariqasida 1866-yilgacha mustaqilligini saqlab turgan Xisor bekligida uyushgan adabiy maktab shakllangan bo'lib, Badaxshon va Dorvozdagi adabiy muhit ham Xisor maktabi bilan yaqin aloqada edi. Shuningdek o'rganilayotgan xudud Samarqand, Kattaqo'rg'on, Urgut atroflarida yashab ikki tilda ijod etgan zullisonayn adabiyot ahli ham shuxrat qozongan, e'tiborni tortgan edi. O'rta Zarafshon vohasida uyushgan adabiy muhitni ko'rishimiz mumkin. Bu hududda ijod etgan shoirlarning bir-birlariga taxmislar qilishi, she'riy maktublar yo'llashi, marsiya-tarixlar bag'ishlashi yuqorida keltirilgan fikrimiz isbotidir. Shubxasiz mamlakat adabiy muhitida paydo bo'lgan bu jarayon olimlarning adabiyotga ilm-fanga bo'lgan munosabati, ularning intelektual salohiyatidan darak beradi. Mang'it amirlari majlislarida adabiyot ahlining mavqeyi ancha pasayganligini va siyosiy vaziyatning shoirlar ijodiga ta'siri kuchli bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Buxoro va uning atroflarida tug'ilib tarbiyalangan

ko'plab ilm soxiblari o'z vatanlarini tark etishga majbur bo'lgan. Amir Xaydar shoir Mujrimga o'z taxallusini "Obid" deb o'zgartirishni buyuradi, lekin shoirning turmushi o'z aslicha davom etadi. [1]

Na Obidlig'ida masruram,na Mujrimlig'da majruxam,
Chu tole' yor yo'q miqdor yo'qdur muncha qolishg'a.

Ushbu misralar orqali shoir o'z dardu-xasratlarini namoyon qilgan. Uzoq yillar davomida saroyda naqqoshlik qilgan shoir Shukuriyning "arznoma"larida xuddi shunday xolatni ko'rishimiz mumkin. U o'z mehnati qadrlanmayotganidan norozi bo'lib yozadi. Bu she'rning mazmuni quydagicha: "Shu orada 10 yil o'tib bir nafas xonadon xalovatini ko'rmadim. Men garchi bir g'arib notavon bo'lsamda, zamona podshohining xizmatidaman. Ko'ngli siniq men g'aribning xar bir yumushim podshoh janoblariga maqbul tushgan. Lekin men sitamlar chekib jigaru qonu qalbi pora-pora bo'lgan bir notavonni maxzun o'z iste'dodimga yarasha marxamat va mexribonlik ko'rmadim. Boshimdan oyog'imgacha g'amu xasrat nishidan qonga to'lgan va mexnat azobiga giriftor bo'lgan. Ey xasta Shukuriy sen zinxor zamonadan fig'onu nola chekma. Bu qiyinchiliklarga sabab u ham, bu ham emas sen uchun taqdiri azal o'zi shu ekan. Bas, shunday ekan, qudratli shoh xizmatini zinxor havas qilmagin ayb bo'ladi. O'zingni bekorchi havas bilan gumroxlikka solma. Chunki tangri o'zi bermasa shoh bermaydi. Sen o'z mamotingni o'yla xayotingni bexuda zoe qilma".[2]

Albbatta ushbu she'r orqali biz mang'itlar davrida mamlakatdagi adabiyot, ilm-fan ahliga bo'lgan munosabatni ko'rishimiz mumkin Shukuriyning bu satrlari ijod ahli nomidan mang'it amirlari shaniga qaratilgan aybnoma desak mubolag'a bo'lmaydi. Buxoro amirligidagi ana shunday vaziyatga qaramay adabiy hayot davom etdi. Mamlakatning turli xudularida o'ziga xos adabiy muhitlar shakllandi. Zarafshon vohasida ijod qilgan shoirlar ikki tilda faoliyat ko'rsatib o'zbek va tojik adabiyotlari tarixida o'chmas iz qoldirdilar. Ushbu ijodkorlarning ilmiy meroslari o'zbek adabiyotda alohida bir bosqich sifatida baholanadi. Mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat badiy adabiyot mavzusiga uning rivojiga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. Bu davr adabiyotida mohiyati bilan bir-biriga zid bo'lgan ikki muhim yo'nalishida ijod qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Bular hukmron tabaqa manfaatlariga xizmat qiluvchi reaksion adabiyot va xalqning ahvoli va manfaatlarini ifoda etgan adbiyotdir.

[1] Ўзбек адабиёти тарихи IV том XVIII асрнинг охири-XIX асрнинг биринчи ярми -Т:. 1978. 258-бет
[2] Ўша жойда 259-bet

Buxoroning diniy markazlaridan bo'lganligi, Amir Xaydarning davrida dinga e'tiborining yanada kuchayayotganligi shubxasiz adabiyotga ham ta'sir etdi. Xoja Ubayniy, Amirmuxammadi Yakdil, Muxammadsharif Shevon, Ruhiy kabi tojik tilida ijod qilgan shoirlar diniy aqidalarni targ'ib qiluvchi asarlar yozganlar. Amirmuxamad Roziy, Jalol Maxdum Buxoriy, Inoyatillo Rashid Mirzo Muxammadshox Uzlatlar esa saroyda ijod qilib amirlarni madh etuvchi she'rlar bitganlar. Mirzo Sodiq, Mirzo Hasrat, Pariy Xisoriy singari tojik shoirlari, Vola, Shavqiy, Miriy, Joniy, Xumuliy, Shukuriy, Xiromiy kabi zullisonayn shoirlar ijodida yuksak insoniy fazilatlarning madh etilishi targ'ib etilishini, zamondoshlari, muhit taqdiridan shikoyatni ko'rishimiz mumkin. Davr ijtimoiy muhitini poetik ifodasi ushbu shoirlar ijodida aks ettirilgan. Bu davr adabiyotida bir nechta epik asarlar yaratilgan bo'lsada, lirika yetakchiligi davom etardi. XIX asrning boshlarida adabiyotda lirikaning 12 turi uchraydi, ular orasida eng mashhurlari quyidagilar: G'azal, muxammas, masnaviy, qasida, qit'a sanaladi. Ba'zi shoirlar ijodida ruboiy, fard, chiston va musammad janrlarini ko'rishimiz mumkin.[1]

G'azalchilikda umumiy mavzular bilan bir qatorda ijodkorning shaxsiy tasurotlari, kechinmalari bilan bog'liq bo'lgan she'rlar ham uchraydi. Shuningdek Navoiy ijodidagi rivojlangan hodisa, ma'lum syujetga ega bo'lgan she'rlar ham uchraydi. G'azalning shakli, hajmi masalasida ham o'rganilayotgan davr o'ziga xos xususiyatlarga ega. Tojik shoirlarining devonida 4 baytdan boshlab 11 baytgacha bo'lgan g'azallar yozilgan. Ba'zi xollarda 15-19 baytli g'azallar ham uchraydi. 7 va 5 baytli g'azallar juda ko'p bo'lib, 6, 8, 9 va 4 baytli g'azallar ham uchrab turadi.[2]

Zullisonayn shoirlar ijodida biroz farqni ko'rib o'tishimiz mumkin. 7 baytli g'azallar ko'pchilik shoirlar ijodida yetakchilik qiladi va birinchi o'rinda turadi. 9, 8, 6, 5 baytli g'azallar va 14 baytli g'azallar keyingi mavqeyni egallaganini kuzatishimiz mumkin. Shukuriy ijodida 15-24 va 53 baytli Yangiqo'rg'ondagi qo'zg'alon va uning bostirilishi haqidagi g'azal shaklida yozilgan hikoya ya'ni tarixni ko'rishimiz mumkin. G'azallardagi radif va qofiya mavqe'i ijodkor uslubiga bog'liq bo'lgan. O'zbek shoirlari ijodida radifning mavqe'i yuqori bo'lgan. She'riyatda Hofiz, Bedil, Fuzuliy, Navoiylarning ta'siri sezilib tursada, ijodkorlarning mustaqil ijodga intilishini ham ko'rishimiz mumkin. Shunday qilib o'rganilayotgan davrda O'rta Zarafshon vohasidagi o'zbek g'azalchiligining umumiy holati Mujrim, Shukuriy, Shavqiy, Xumuliy, Vola,

[1] Ўзбек адабиёти тарихи IV том XVIII асрнинг охири-XIX асрнинг биринчи ярми -Т:. 1978. 260-бет
[2]. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиёцҳунослиги тарихи X-XИX асрлар. -Т:. 1993. 109-бет

Joniy kabi shoirlar nomi bilan bog'liqdir. G'azaldan tashqari eng ko'p yaratilgan lirik janrlaridan biri muxammas hisoblanadi. O'rganilayotgan davrda muxammasning ikki turi mustaqil holdagi va taxmis tarzdagi turlari amalda bo'lsada, keyingi shakli keng qo'llanilgan. Bunday vaziyat ijodkorlarning o'tmish adabiyotining muhim yutuqlariga yuqori san'atkorlik namunasi sifatida qarab, ulardan namuna olishga va o'rganishga ixtisoslashganliklari natijasida paydo bo'lgan. Agar tojik shoirlari fors-tojik adabiyotining atoqli vakillari Hofiz va Bedil g'azallariga taxmislar qilgan bo'lsalar, o'zbek tilida turkiy she'riyatning eng yuksak namunalariga, xususan Navoiy, Fuzuliy g'azallari asosida o'nlab muxammaslar yaratdilar. Shuningdek bir-birlari she'rlariga ham taxmislar qilganligini ko'ramiz. Ba'zi muxammaslar an'anaviy mavzular xususan muhabbatga bag'ishlangan bo'lsa, ba'zilarida muhitdan shikoyat, ijodkorlarning hayoti aks etgan muxammaslar ham uchraydi. Shoirlar ijodidagi bunday she'rlar ularning shaxsiy turmushi bilan bog'liq holda yozilgan. Ma'lumotlarga qaraganda Vola ijodidan xabar topgan Amir Nasrullo unga Hofiz g'azallariga muxammas bog'lashni topshiradi.

Burad in Vola kamtar az saloni orifon har chand
Ba amiri shoh ba ruhi Xoja shud lek tovajjuh mand

Ya'ni , bu Vola garchi oriflarning itidan ham tubanroq bo'lsada shox amri bilan Xoja (Hofiz) ruhiga murojaat qilishga majbur bo'ldi.

Musaddas janri Shukuriy, Xumuliy, Vola, Shavqiy asarlarida uchraydi. Lekin bu janrlar muxammas darajasida ko'p bo'lmagan. Musaddas ham yaxshi ko'rinishga ega bo'lib, maxsus yozilgan. Musaddaslar qatoriga Shukuriyning "Laylim har soat men mahzunni fig'on chekar" she'rini qo'shishimiz mumkin. Xullas o'rganilayotgan davr adabiyotida O'rta Zarafshon vohasida musammatning musammas shakli keng qo'llanilgan.

Qit'alar - shoirlarning davr ijtimoiy-siyosiy voqealariga munosabati, shoirning ma'lum bir vaziyatga tasurotlarining bevosita ifodasi sifatida yuzaga keladi. Bu davrda ijod qilgan shoirlarning barchasi qit'a janrida ijod etgan. Qit'alarni ham moxiyatiga qarab 2 guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh ijtimoiy, ta'limiy mavzuda bo'lib, ularda o'z ahvolidan shikoyat, zamondan norozilik, kishilardagi salbiy xususiyatlarga nafrat, yuksak fazilatlar targ'ibi va xatto hukmdorlar madhi ko'zga tashlanadi. Ikkinchi guruhga tarix san'atiga dahldor qit'alardir. Tarix aytish san'ati qit'a shaklida keng qo'llanilgan bo'lib, o'rganilayotgan davrda ham u ancha rivojlangan. Xumuliy, Shukuriy kabi shoirlar ijodida

davrning ijtimoiy-siyosiy voqealariga va boshqa turli voqealarga imoratlar qurilishi, ma’lum bir odamning mansabga tayinlanishi, o’limiga bag’ishlangan o’nlab tarixlar bitganlar. 5-12, 40 va undan ortiq baytli qit’a-tarixlar ham yuzaga kelgan. Tarix san’ati faqat qit’a janrida ishlatilib qolmay, g’azal, bir necha baytli qasida, masnaviy shakllariga ham tatbiq etilgan. Qasidada-tarix, masnaviy-tarixlar davrning muhim siyosiy voqealariga bag’ishlangan. Bu borada Shukuriyning xizmatlarini alohida ta’kidlash zarurdir.[1]

**Abdushukur Shukuriy** ibni Orzibek, ibni Moltalar Qushbegi, ibni Qurbonotaliq, ibni Boboshotaliq o’zi farg’onalik bo’lmish bu shoir Samarqand va Buxoroda yashab ijod qilgan. Shukuriy XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Farg’ona viloyatida tug’ilgan. Olim va shoirlar suxbatida ko’p ishtirok etgan. Kitobxonlar bilan suhbatlar ta’sirida unda ham ijod qilishga ishtiyoq paydo bo’lib, shu maqsadda safarga otlanadi va Samarqandgacha yetib keladi. Bu yerda u egarchilik va naqqoshlikda nihoyatda shuxrat qozondi. Shukuriy oila qurib butunlay Samarqandda qolib ketadi. Vozexning tazkirasida bu shoir haqida shunday ma’lumotlar uchraydi: “Shukuriy ismi Abdushukur jannatsifat Samarqandning muttavattinlaridan. Ilm ololmaganligiga qaramay, yaxshi ta’bi bor. Ravonlik va sofdillikda obixayotdan ham o’tib tushadi. She’rni tez aytishi va yoqimli mazmuni barcha toifaga maqbul. Shoirning shuhrati cheka-chekkalardagi mashshoqlar va tinglovchilarga yetib borgan. Xususan, tarix topish sohasida barcha zamondoshlarini qoyil qoldirgan.”[2] Shukuriyning hunar bobidagi dovrug’i Amir Nasrulloga yetib boradi va amir o‘zining Samarqandagi noibi orqali uni o’z huzuriga chaqiradi. Shukuriy amir qo’li ostida egar yasashdan tortib naqqoshlikkacha hatto qurol aslaha yasash kabi hunarlar bilan shug’ullangan. Shukuriy Amir Nasrullo davridagi ko’pshilik qurilishlarda naqqosh sifatida ishtirok etgan. Masalan, amir buyrug’i bilan Abdumo’min dodxoh tomonidan Samarqandda Ko’ktosh saroyining qurilishi tarixini yozar ekan shunday deydi:

Erdim o’shal axli nuqushning biri,
Balki o’shal jumlani bir kamtari.

Shukuriyning hayoti og’ir edi, biz buni yuqorida ta’kidladik. Uning vatan sog’inchini ifodalovchi Farg’onaga bag’ishlangan she`rlari o’z ruxi va uslubi bilan alohida ajralib turadi. Shoir devonining bir qo’lyozma nusxasi Sharqshunoslik insituti Leningrad bo’limida, yana bir nusxasi Toshkent Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda.

---
[1] Ўзбек адабиёти тарихи IV том XVIII асрнинг охири-XIX асрнинг биринчи ярми -Т:. 1978. 265-бет
[2] Ўша жойда. 265-bet

Shukuriy asosan klassik lirikaning yetakchi janrlarida ijod qilgan. O’zbek va fors-tojik she’riyatining bir qator xususiyatlarini o’zida mujassamlashtirgan. Uning ijodida Navoiy ijodiyotining ta’siri yaqqol ko’zga tashlanadi. Navoiy she’rlariga nazira yoki tatabbus so’zimiz isbotidir. Ba’zi she’rlari ustiga “Polvoni Amir Navoiy” deb yozib ham qo’yilgan. Shukuriy ham Navoiy kabi majoziy ishqni haqiqiy ishqqa qarshi kuylaydi, balki majoziy ishq haqiqatga olib boruvchi vosita, shu yo’ldagi bir bosqich deb hisoblaydi. Shoir devonida g’azal va masnaviy yetakchilik qilsada, XIX asr tazkiranavislari uni tarix janrining ustasi sifatida tilga oladilar. Shukuriy tarixlari mavzu e’tibori bilan guruhlash mumkin. Mashxur kishilarning vafoti, biror mansabga tayinlanishi munosabati bilan yozilgan she’rlar, saroy va oliy binolar qurilishiga bag’ishlangan tarixlar, bosib olingan muayyan viloyat va shaharlarning tarixi, amirlikda sodir bo’lgan muhim voqealar madni. Shukuriy devonidagidek muhim tarixiy voqealarga bag’ishlangan yirik hikoya-tarixlar deyarli uchramaydi va ular bir qator muhim voqealar haqida aniq ma’lumot beradi.

XIX asrning birinchi yarmida o’rganilayotgan davrda masnaviy ham adabiy muhitda asosiy she’riy janrlardan hisoblangan. Masnaviyning ikki xil doston shaklidagi birinchi ko’rinishi va syujet obrazlardan xoli bo’lgan namunalarini kuzatamiz. Xumuliyning “Shox va gado”, “Shayx Musaxon Daxbediyning tarjimai xoli”, Xiromiyning “Chor darvesh”, yo’riqnoma “Ra’no va Zebo” asarlari o’zbek tilida yozilgan lirik masnaviy doston namunalari hisoblanadi. Bular muhin siyosiy-ijtimoiy qarashlarni badiiy ravishda ifodalaydi. O’rganiylayotgan davrda masnaviy janrida “ariza” lirikaning o’ziga xos ko’rinishlaridan biriga aylangan. Xasbi hol va ariza masnaviylari bir necha o’n baytlardan iborat bo’lsa, voqea-hodisalarni bayon qiluvchi masnaviylar yuzdan ortiq baytlardan tashkil topgan.

Vola, Xumuliy, Shukuriy, Ado va Xoziqlar qasida janrida ham ijod qilganlar. Lekin qasida masnaviy va qit’aga qaraganda kamroq yaratilgan. Ado va Xazoiqning Amir Xaydar va Amir Nasrulloga bag’ishlangan qasidalari bor. Shuningdek o’rganilayotgan davrda ruboiy va bir necha soqiynomalar yaratilgan bo’lsa ham bu janrlar davr adabiy hayotida yetakchi mavqe’ni egallamagan edi.

XIX asrning birinchi yarmida ijod etgan shoirlar ijodida shuningdek odob-axloq, falsafiy masalalar ham bayon qilingan. Bunday ijod namunalarida lirik qahramon murabbiy yoki mutafakkir sifatida namoyon bo’ladi. Vola, Shavqiy, Mujrim, Joniy,

Shukuriy, Xumuliy kabi o'zbek shoirlarining axloq-odobga bag'ishlangan she'rlarida kamtarlik va kiborlik, xasislik va ximmat, yolg'onchilik va saodat, baxillik va samimiyat, to'g'rilik va kajravlik singari xususiyatlar bir-biriga qarshi qo'yilgan holda tasvirlanib, oliyjanob fazilatlar madh etilgan.

Umuman olganda o'sha davr shoirlarining har biri u yoki bu darajada axloq-odob borasida fikr yuritib, inson kamoloti to'g'risida yozishga harakat qilishgan. Mana shu mulohazalarning o'zi ham ularning yuksak estetikasi haqida tasavvurga ega bo'lish imkonini yaratdi. O'rganilayotgan o'lkada shoirlar ijodida olimlarning sir-asrori, xayot qonuniyatlarining ayrim tomonlari haqida mulohazalar ham yuritilgan. Kuzatishlar natijasida Shukuriy, Vola, Mujrim, Shavqiy ijodida umumlashgan xulosalarni ko'rishimiz mumkin.

**Shavqiy Kattaqo'rg'oniy** XIX asrning 1-yarmida o'zbek adabiyotining yirik vakili. O'z zamonasining bilimli, ziyoli, ilg'or fikrli zullisonayn shori sifatida mashhur bo'lgan. Vozex Buxoriy, Mirsiddiq Xoshmat tazkiralariga, shoirning o'z asarlariga, ishlariga tayangan holda shuni aytish mumkinki, shoirning asl ismi Muhammad Sharif bo'lib, Shavqiy uning adabiy taxallusi, Kattaqo'rg'oniy tug'ilgan joyiga nisbatidir. Muhammad Sharif Shavqiy 1785-yilda dehqon Muhammad Toxir Abdulqosim oilasida dunyoga keldi.[1] U dastlab o'z qishlog'ida xat savodini chiqargach ilm va madaniyatga ixlosmand otasining yordami bilan Buxoroga boradi. 1816-yilgacha 30 yoshlarigacha Buxorodagi Tovkushon madrasasida 17 yilda Xatmi kutub qilgach, Kattaqo'rg'onga qaytadi va Alijon qishlog'ida yashab dehqonchilik va maktabdorlik qiladi. Shavqiy 86 yil umr ko'rib, 1871-yil o'z qishlog'ida vafot etadi. Uning qabriga yodgorlik toshi qo'yilgan bo'lib, she'rlari ixlosmandlari tomonidan yozdirilgan tojik-arabcha marsiya ta'rix she'rlar bor. Qabr toshlardagi bu satrlarning ahamiyati shundaki, unda shoirning taxallusi, asosiy asarlarning nomi ko'rsatilgan. Bu ma'lumotlar orqali biz shoirning arab grammatikasi, lug'at, fiqh, mantiq, xandasa kabi ilmlarni egallaganligini bilib olamiz. Uning arab grammatikasiga oid "Risolai qofiya yo mir'otun nahv" shariat normalarining qisqartirilgan majmuasidan iborat bo'lgan. "Kitobi mir'ot" va ilova qilingan "Xalldi-lug'at" asarlari buni tasdiqlaydi. Shavqiyning lirik she'rlarining umumiy ko'lami 3000 misra atrofidadir. Uning ijodida g'azal janri yetakchilik qiladi, Shavqiyning asarlarni quyidagicha guruhlasak maqsadga muvofiq bo'ladi. Ishqiy, zamondan shikoyat, xajv,

---

[1] Бекмуродов И. Каттақўрғоннинг қисқача тарихи -С:. 1993. 10-бет

axloqiy-ta'limiy mavzulardagi ijod namunalari.[1] Shavqiy Kattaqo'rg'oniy asarlari xalq orasida sevib mutolaa qilingan, ko'plab g'azallariga kuy bastalangan, hofizlar ijro etganlar. Shavqiy o'z davrining hurmati va e'tiboriga sazovor bo'la olgan, o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan ijodkorlardan biridir.

**Vola Eshonxo'ja Mirinoyatulloxo'ja o'g'li** - Kattaqo'r'g'onning Yangiqo'rg'on qishlog'ida taxminan 1793-1872-yillarda yashagan.[2] Miyonqoldagi mashhur xalq qo'zg'aloni 1825 yilda shoirning yoshligida bo'lib o'tgan va uning ijodi mavzusiga, o'zi guvohi bo'lgan xalq ommasining axvoli va intilishlari o'z ta'sirini ko'rsatgan. Vola tug'ma ko'r bo'lsada favqulodda kuchli aql, xotira, qobiliyat va yoqimli ovoz sohibi bo'lgan.[3] Shuning uchun bo'lsa kerak uni Miriy "Qani Vola, qani amiri nazm" deb eslaydi. Biroq amir g'azabiga duchor bo'lgan vatandoshlari orasida yashagan shoirning turmushi nihoyatda og'ir kechgan. Vola uch tilda o'zbek, fors-tojik va arab tillarida mahorat bilan ijod qilgan. Uning o'zbek va tojik tilida tuzgan 2 devoni hozirgacha topilmagan. Turli qo'lyozma to'plamlarda uning 80 ga yaqin she'ri uchraydi 60 ta muxammas, 20 g'azal, 8 ta masnaviy, 2 qasida va 10 ga yaqin boshqa she'rlari ma'lumdir. Vola muxammaslari orasida Xofiz va Navoiy g'azallariga qilingan taxmislar ko'p bo'lib, Vola ruboiylarida xayolona falsafiy mushohadalar, masnaviyda esa ziddiyatli hayot oqimidan noroziligini tamoman ko'zga tashlanib tursada, shoir muxammaslarida ulug' salaflarning g'azallari tarkibiga ma'lum darajada davr ruhini ifodalangan. Vola qalamiga mansub she'rlarda donishmandlar bilan nodonlar, ilm-ma'rifat sohiblari bilan mansab egalari bir-biriga qarshi qo'yiladi va shu yo'l bilan o'z fikrini ifodalaydi. Vola hayotdagi katta nuqson jamiyatning notekisligini fosh etish uchun boshqacha yo'l tutadi. U insonlar turmushidagi keskin farqni ko'rib, bunday adolatsizlikning bosh sababi zamon, hayot, turmush tarz deb biladi. Volaning iste'dodini bilgach Amir Nasrullo unga Xofiz g'azallariga muxammas bog'lashni topshirganligi haqida yuqorida ta'kidlab o'tgan edik. Volaning bizgacha yetib kelgan she'rlari va ma'lumotlarning o'zi ham shoirning butun umri oddiy xalq orasida o'tganligi va ko'zi ko'r bo'lishiga qaramay, qalbi ma'noga to'la bu noyob iste'dod sohibi o'z ijodi bilan XIX asrning birinchi yarmida zullisonayn adabiyotining rivojiga ayniqsa muxammas janri taraqqiyotiga munosib xissa qo'shganligini isbotlaydi.

[1] Ўша жойда. 12-бет
[2] Ўша жойда. 11-bet
[3] Абидов А. Ганжи Зарафшон -Душанбе 1991. 113-бет

**Jumaqul Xumuliy Urgutiy** - Urgutning Chep qishlog'ida tug'ilgan va shu yerda dafn etilgan. Shoir ijodini birinchi bo'lib S. Ayni o'rgangan. Xumuliy shoir va tarixshunos olim bo'lgan.[1] Uning "Tarixi Mang'itiy", "Manzumoti tarixiy" ("She'riy tarix"), "Shayx Musaxon Dahbidiyning tarjimai xoli" kabi tarixiy asarlari, "Shoh va Gado" nomli dostoni 3500 misraga yaqin she'rlari ma'lum. Xumuliy o'zbek masnaviynavisligining yirik vakili hisoblanadi. Xumuliyning qasida janrida ham ijod qilganligi. Shuningdek, u xasbi - hol ruhidagi she'rlar, baytlar ham yozgan.[2] Qori Raxmatulloh Vozexning "Tuhfat ul-axvol di Tazkirat-al-asxab" tazkirasida shoir Xumuliy haqida shunday yozilgan:"Mullo Jumaqul Urgut shahrining qozisi bo'lib, Xumuliy uning taxallusidir, u o'zbek tilida ijod qilgan shoirlardandir. U o'z zamonasining bilimli ziyolilaridan bo'lib, uzoq yillar qozilik qilgan, yozgan she'rlari xalq orasida mashxur bo'lgan"[3]

Xumuliy adabiy me'rosi XIX asrda ijod qilgan ko'plab shoirlar ijodidan qolishmagan. Xumuliy Urgutiy madaniyatimiz, adabiyotimiz rivojiga munosib xissa qo'shgan ma'rifat sohiblaridan biri hisoblanadi.

**Sultonxon Ado.** XIX asrda yashab ijod etgan shoirlardan biri, Samarqandda tug'ilgan. Xoja Axrori Valiy avlodlaridan bo'lib, Buxoro va Samarqandning shayx ul-islomi bo'lgan. Amir Xaydar davrida Buxoroda, Umarxon hokimiyati vaqtida Qo'qonda ijod qilgan. Ado Amir Nasrullo hukmronligi yillarida Buxoroga qaytib yana shuxrat qozongan. Sultonxon Ado Buxoroda vafot etgan. Samarqandda Xoja Axror Valiy mozorida ko'milgan. Ado she'rlari mazmuni turli-tuman bo'lib, xalq orasida mashhur bo'lgan. U Amir Nasrulloga atab qasidalar ham yozgan. Qasidanavislarning yirik namoyondasi o'ziga xos uslubga ega ijodkor bo'lgan.

**Vidoiy Avazmuhammad** o'rganilayotgan davrda Kattaqo'rg'onda yashab ijod etgan o'zbek shoiri. 7,5 ming misra she'riy devoni bizgacha yetib kelgan. Pok muxabbat, mardlik, sadoqat, yaxshilikni ulug'lash kabi mavzular shoir ijodining asosini tashkil etgan.[4]

**Dilafgor** asl ismi Mansur bo'lib, otasining ismi Sa'dulladir. U Kattaqo'rg'on yaqinidagi Kunjupay degan joyda dunyoga kelgan. U erta yetim qolib hayoti og'ir

---

1 Маҳматмуродов Ў. Ургут ва ургутликлар. -Т:. 1995. 16-бет
2 Сувонқулов И. Тарихимизнинг ўчмас саҳифалари -С:. 2007. 58-бет
3 Абидов А. Ганжи Зарафшон -Душанбе 1991. 430-бет
4 Бекмуродов И. Каттақўрғоннинг қисқача тарихи -С:. 1993. 12-бет

kechgan. Shu sababli “Dilafgor” taxallusini olgan. Shoir “Ra’no va Suxantil” dostonini 1854-55 yillarda yozgan.[1] 2500 baytdan iborat bu doston do’stlarini quvontirish, kelajak avlodlarga sevishganlar haqida badiiy yodgorlik qoldirish maqsadida yozilgan.

**Maxmur Koriziy (1820-1876)** XIX asrda yashab ijod qilgan shoirlardan biri bo’lib, asl ismi Abdulkarim Barat o’g’li Maxmur Koriziydir. U 16 yoshida Namanganga borib, Majzubiy Namongoniy qo’lida 9 yil tahsil olgach Samarqand shahridagi Zominiy, Yominiy, Kultepa, Past ko’cha, Rost ko’cha, Qoraboy mahalla madrasa-masjidlarida umrining oxirigacha mudarrislik imomlik qiladi. Shoir mumtoz adabiyotning bilimdoni bo’lgan. Uning 3 ming misradan ortiq bo’lgan she’rlardan iborat devoni bizgacha yetib kelgan. She’rlarida muammolar, mumtoz shoirlar ijodiga sodiqlik, ular an’anasini davom ettirishi ko’zga tashlanadi. Uning ijodi o’rganilayotgan davr adabiyotida alohida mavqe’ga egadir.

Ushbu davrda shuningdek Ravshaniy taxallusi bilan ijod qilgan Urgutlik shoir mashxur bo’lib, u Urgut xaqida qasida yozgan, she’rlarini to’plab devon xoliga keltirgan. Shuningdek, Samarqandda XIX asrda yashab ijod etgan Abduxanifaning “Alfik xul akbar” kitobini ko’chirgan Abdulla Jabbor Naymani Samarqandiy, Sayfiddin Baxorziyning ruboiyoti shayxul-islom asarini qayta ko’chirgan Abdulqayum Samarqandiy, Alisher Navoiyning “Chordevon” asarini 1825-yilda qayta ko’chirgan Mir Abdulxay Samarqandiy, Muhammad Zamoni Samarqandi ibn Muhammad Rizoi Falg’ari, 1850-yilda “Xamsa”ni qayta ko’chirgan Muqimxon Samarqandiy, Raximi Samarqandiy, Mirzo Sharif Dobiri Samarqandiy larning nomlari mashxur bo’lgan. Ular o’rganilayotgan davrda voha adabiy muhitining taraqqiyotiga ulkan xissa qo’shganlar.[2]

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, o’rganilayotgan davrda Buxoro amirligi tarkibida bo’lgan O’rta Zarafshon vohasi adabiy muhitida ijodkorlarning o’z zamonasiga bo’lgan munosabati aks etgan. Davr she’riyatida bir tomondan klassik she’riyatga xos an’analar sezilib tursa, ikkinchi tomondan har bir ijodkorning ijodiy tajribalari asosida shakllangan. Fors-tojik tilida ijod qilganlar asarlarida hind uslubi, Bedil uslubi shuningdek XIII-XV asrning buyuk shoirlari Xusrav Dehlaviy, Kamol Xo’jandiy, Abdurahmon Jomiy, Xofiz Sheroziyning badiiy an’analari ta’siri kuchli ekanligi sezilib turadi bedil she’rlarini o’qib mulohaza qilish, uning uslubidan foydalanish shoir maxoratini sinab ko’rish vositasiga aylangan edi. Zullisonayn shoirlar ijodida Bedil, Xofiz, Navoiy, Fuzuliy uslublari

[1] Бекмуродов И. Каттақўрғоннинг қисқача тарихи -С:. 1993. 12-бет
[2] История Самарканда том I Т:. 1969 .С.292

ta'sirini ko'ramiz. Shoirlar Navoiy an'analariga katta hurmat bilan qarab, ulardan foydalanganlar. O'rganilayotgan davrda voxada yashagan adabiyot ahlining ko'pchiligi qishloqlarda yashagan va bu ijodkorlarning asarlariga ta'sir qilgan. Xullas, o'rganilayotgan davrda voxada ijtimoiy-siyosiy vaziyat keskin bo'lmasin. Madaniy hayotda yetakchi o'rinda turuvchi adabiyot rivoji davom etdi. Bu davrda o'zbek va tojik adabiyotidagi durdona asarlar yaratildi. Ijodkorlar asarlarida oddiy xalqning ahvoli, ularning orzu-umidlari aks ettirilganligini alohida ta'kidlash kerak. O'ziga xos shakllangan adabiy maktab yaratildi va taraqqiy etdi. O'rganilayotgan davrda yashab ijod etgan adabiyot vakillarining bebaxo me'roslari o'z mohiyati, o'ziga xos uslubi bilan, o'zbek adabiyoti taraqqiyotida muhim bosqich bo'lib kirdi va buni o'rganish, tadqiq etish mustaqillik yillarida yangi bosqichga chiqdi , bu ishlarni yanada takomillashtirish bizning asosiy vazifamiz hisoblanadi.

### *§2. XIX asrning oxiri XX asr boshlarida adabiy muhit.*

XIX asr va XX asrlar oralig'idagi 50-60-yillik Movaraunnahr tarixida eng ayanchli davr hisoblanadi. Chunki bu vaqt oralig'ida xalqimiz boshiga ulkan kulfat o'z mustaqilligini yo'qotishdek sinov tushdi. Xuddi shu davrda tariximizda jadidchilik nomi bilan qolgan uyg'onish davri yuz berdi. O'rganilayotgan davrda vohadagi adabiy hayot haqida gapiradigan bo'lsak shubhasiz bu vaqtda adabiyot ham xalq bilan birgalikda mustaqilligini yo'qotish voqealarini kuzatdi. Fojiali oqibatlarini mushohada etib, istiqlol, erk uchun kurashishgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. Davr ta'siri ostida adabiyotimizga ham g'arb an'analari kirib keldi, g'arblashish jarayoni boshlandi. Adabiyot mavzusi kengaydi, madaniyat tariximizdagi buyuk voqealar davriy matbuot va teatr paydo bo'ldi. An'anaviy she'riyatda yangi mavzular paydo bo'ldi. Adabiyot janrlarida hukmronlik qilayotgan aruz vazni yoniga unitilgan qadimiy barmoq vazni qo'shildi. Eng muhimi adabiyot uch mustaqil xonliklarda alohida-alohida emas. Chor Rossiyasiga tobe Turkiston general-gubernatorligi hamda Rossiyaga vassal Buxoro va Xivada birlashdi. Bu holat esa butun o'zbek adabiyotida o'rganilayotgan davrda yaratilgan asarlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

O'rganilayotgan davr adabiyotiga mashhur adabiyotshunos olimimiz Begali Qosimov milliy uyg'onish davri deb haqqoniy nom bergan. Darhaqiqat o'rganilayotgan davr adabiyotining bosh mavzusi millatning o'zligini anglash jarayoni bo'ldi. Buni 20-

yillardayoq adabiyotshunoslar ta'kidlashgan edi. Albatta, milliy uyg'onish nafaqat adabiyot doirasida balki ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida namoyon bo'ldi. Bosmachilik nomi bilan uzoq yillar davomida mashhur bo'lib, tarixga kirgan voqeaning ham aslida mafkurasi, mavzusi milliy uyg'onish bo'lgan. Mustaqillik, istiqlol uchun kurashga bog'langanligi hozirgi kunda hammamizga ayon bo'ldi. Milliy uyg'onish davri nafaqat o'rganilayotgan vohada balki butun Turkistonda jadidchilik ko'rinishida namoyon bo'ldi desak also xato qilmagan bo'lamiz. Bu jarayon esa 20-yillarning o'rtalarigacha davom etdi. 1926-yildan boshlab sovet hokimiyati uyg'onish vakillariga qarshi katta kurash boshladilar. 1929-yildan boshlab ushbu vatanparvarlarni jismonan yo'q qilish boshlandi.[1]

Albatta bu harakatning paydo bo'lishi rus istilosi va uning dahshatli oqibatlari bilan bog'liqdir. Jadidchilikning shakllanishi 1865-1905 yillarni o'z ichiga oladi. 1905-yil 17-oktyabr monifestidan keyin bu harakat yanada taraqqiy etdi. Yangi bosqichga ko'tarildi. 1916-yilga kelib jadidchilar Abdulla Avloniy ta'biri bilan aytganda "Qora xalqni oqartirmoqqa va ko'zini ochmoq chorasiga" kirishdilar.[2]

Tariximizda alohida o'chmas iz qoldirgan 1916-yil mardikorlar qo'zg'alonida ham jadidchilarimiz xalq bilan birga kurashdilar. Ming afsuski qaysar tarix mustaqillikni qo'lga kiritish uchun sharoit yaratib bergan vaqtda 1917-yil fevraligacha xalqimiz yetarli tayyorgarlik bilan yetib kela olmadi. Fitrat ta'kidlaganidek butun Turkistonni ham "Rusiya bolasi" qamrab oldi. Mana shunday og'ir ahvolga qaramasdan vatanparvar ziyolilarimiz istiqlol, erk uchun kurashni davom ettirldilar. Buning isboti esa 1917-yilning 27-noyabrida Turkiston muxtoriyati, ammo u uch oyga yetmay sho'rolar tomonidan shafqatsiz yo'q qilindi. Millatchi degan tamg'a bosilgan vatanparvarlar qochib ketib kurashni davom ettirdilar. Vatan ozodligi uchun shahid bo'ldilar. 1905-1929 yillar milliy uyg'onish jadidchilik harakatining taraqqiyoti va tugatilishi davridir.

Milliy uyg'onish adabiyoti XIX asr oxirlarida paydo bo'lgan ushbu harakat g'oyalari yordamida shakllandi. E'tiborli tomoni esa bu jadidlarning shunchaki ko'rgazmasi bo'lib qolmadi. Haqiqiy adabiyotga aylandi, adabiyotda yangi davrni boshlab berdi. 1915-192 -yillarda o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarildi.[3]

---

[1] Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. 91- бет
[2] Авлоний А..Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ. -Т:. 1992
[3] Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. 15- бет

Yuqoridagilardan kelib chiqib o'rganilayotgan davr o'zbek adabiyotini 2 bosqichga ajratish to'g'ri bo'ladi ya'ni milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining ilk bosqichi, manbalar yuzaga kelishi XIX asr oxirlari va milliy ijtimoiy kurashlar davri: taraqqiyoti va tugatilishi (XX asr birinchi choragi). Mustaqilligimiz sharofati bilan ushbu davr adabiyotini milliy uyg'onish nomi bilan o'rganilmoqda, undagi milliy istiqlol g'oyasini shakllanishi va rivoji masalalari doimo bosh mavzu hisoblanadi. Millat bu tushuncha Qur'onda etnos, el, elat emas din, mazxab o'rnida ishlatiladi. O'zbek adabiyotida "millat" tushunchasi etnos ma'nosida A. Navoiy ijodida birinchi marta kuzatiladi. Biroq uning bugungi ma'nosini kadb etishi jadidchilik davri bilan bog'liq. Jadidchilik arabcha jadid "yangi" degan so'zdan olingan bo'lib, keng ma'noda ijtimoiy-ma'naviy yangilanishni ko'zda tutadi. Jadidchilik Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy fikr taraqqiyotida panislomizm (islomchilik), panturkizm (turkchilik) o'zbekchilik ko'rinishida namoyon bo'ldi. Albatta, bunday holatning ham o'ziga yarasha sabablari bor. Islomchilik va turkchilik chor hukumatining mahalliy xalqlarga musulmonlarga qarshi olib borgan buyuk millatchilik siyosatiga javob sifatida shakllandi, paydo bo'ldi. O'zbekchilik (mahalliychilik) 1915-192 -yillarda Turkiston adabiy til borasida yuksalgan noo'rin munosabati bilan yuzaga kelgan edi. Yana shuni ham alohida ta'kidlab o'tish kerakki 1-jahon urushida Rus hukumatiga asir tushgan Usmonli turk askarlari 1917-yil voqealaridan so'ng Turkistonga kelib maorif va madaniyat ishlarida faol ishtirok etganlar. Adabiy til borasida Istanbul turkiychasiga qizgin tarafdorlik ko'rsatgan va bu o'zbek ziyolilari orasida e'tirozlarga sabab bo'lgan bo'lsada, ushbu har uchala qarashlar ham 20-yillarning o'rtalarida ketma-ket barham topgan.

Umuman olganda Chor hukumati qo'l ostidan chiqish istiqlolni qo'lga kiritish yo'lida Turkistondagi harakatlar turli yo'llar bilan amalga oshirildi. Dukchi Eshon 1916-yil mardikorlik harakati, bosmachilik bularni ham hech shubhasiz jadid deya olamiz, chunki, ular ham tobelikdan qutilish uchun mustaqillik uchun kurashdilar, faqatgina kuch bilan qurolga tayangan holda bu ulug' maqsadga intldilar. Ruslar yordamida ma'rifatga erishish, ma'rifat masalasida haqqini olish, milliylikni tiklash esa jadidlarning yo'li bo'ldi. Albatta, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashmoq kerak hech shubhasiz jadidlar ham shu yo'lni tutishdi. Mana shu davrda o'zbek matbuotiga tamal toshi qo'yildi va shu davrda yangi adabiyot dunyoga keldi, qaytadan uyg'ondi. Darhaqiqat, jamiyatni tarbiyalashda adabiyotning buyuk rolini jadidlarimiz yaxshi bilishardi. "Oynai har millat

erur til adabiyot" Avloniyning bu she'ri so'zimizni isbotlaydi.

Jadid adabiyoti bu harakatning ma'nosi, ruhini o'zida aks ettiradi. Milliy ong taraqqiyotida ulkan rol o'ynadi. Bu davr adabiyotiga nazar tashlasak ilk ko'rinishlari u qadar yuksak emas kamchiliklarga esa shiorbozlik, da'vat, chaqiriqlar ko'p uchraydi. 1910-20-yillarda bu adabiyot har tomonlama yuksaldi va buyuk adabiyotga aylandi. Jadidchilik adabiyotining ilk bosqichi 1905-17 yillarni o'z ichiga oladi va bosh g'oya ma'rifatga, maqsadga emas, vosita sifatida qarash edi. Kuchli millatlar-jahon jayxunlari, kuchsizlar-ularga luqma, tu'man tayyor. Ko'hna dunyoning yangi mo'jizasi. Shunday jadid shoirlarining asarlarida shunday xitoblar yozildi.

2-bosqich esa erksizlikni, mustamlaka idora usulini anglash, uning sabablarini va undan qutilish yo'llarini izlash.

Behbudiy shunday yozadi "Vale hozir bizni ixtilofimiz sabab mustamlaka hamdasi ila idora eturlar."[1] Siddiqiy Ajziyning "Mir'oti ibrat" dostonining ham asosiy mavzusi mavjud jamiyatni inkor etish, jaholat zulmiga tushgan ona yurtni ozod qilish. Bunda xayoliy bir voqea asosida Samarqandning o'sha kunlarini real manzarasini yorilgan.

1905-1917 yillarda Rossiya va dunyo tarixida yuz bergan bir qncha siyosiy voqealar Turkistonga ham ta'sir o'tkazdi. 1904-yilda boshlangan rus-yapon urushida Rossiyaning mag'lubiyati 1905-yilda yuz bergan hukumatga qarshi qo'zg'alonlar va Nikolay II ning barcha fuqarolarga mustamlaka millatlarga ham so'z, matbuot, vijdon erkinligini va'da qiluvchi 17-oktyabr manifati, 1-jahon urushi va Turkistondagi mardikorlikka qarshi xalq harakatlari, 1917-yil fevral, oktyabr voqealari 27-noyabrda Turkiston muxtoriyatining e'lon qilinishi kabi shov-shuvli hodisalar muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

XX asr boshlarida Turkiston, Kavkaz va Volgabo'yida yashovchi turkiy xalqlar o'rtasida qardoshlik va hamkorlik harakatlari boshlandi va bu Turkistonning keyingi tarixida namoyon bo'ldi. XX asrning 20-yillarida esa eski mustamlaka tuzumidan yangisiga sotsialistik diktaturaga o'tish davri boshlandi. 20-yillarning boshida adabiy muhit shakllandi, yangi bosqichga ko'tarildi. Albatta adabiyotning taraqqiyotiga xizmat qiluvchi omillar ko'p bo'lib biz uni quyidagilarda ko'rdik. Yaponiyaning urushda g'olib chiqishi va Rossiyaning yanada tanazzulga uchrashi va mustamlaka xalqlar ahvolining og'irlashuvhi yangi qurilgan Krasnovodsk (1819) va Orenburg (1905) temiryo'llari

[1] Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. 210- бет

o'lkani har ikki tomondan siqib qo'ydi. Turkistonning bitmas tuganmas boyliklari ortilgan vagonlarning Rossiya hududiga oqishi, paxtaning asosiy ekinga aylanishi, Turkiston xomashyo bazasiga aylantirilishi Rossiya hududlaridan millionlab mujiklarning ko'chirilishi va unumdor yerlarga ularni joylashtirish avj olishi. Islomni buzish, ruslashtirish siyosatining kuchayishi Rus-tuzem maktablari ko'payishi. Rus tili mavqeyini oshirishga qaratilgan chora tadbirlar, albatta bunday xo'rliklarga, kamsitishlarga xalq qarab turmadi, bunga tarix guvohdir. O'rganilayotgan hudud haqida gapiradigan bo'lsak Samarqandda N.Pirimqulov ozodlik harakatlari bunga misol bo'la oladi.

Jadidchilarning rahnamosi M.Behbudiy Samarqandda Samarqand (1913) gazetasini va Oyna (1915) jurnalini chiqardi. Adabiyot ahli mana shu gazeta-jurnallar atrofida birlashdilar. M.Behbudiy gazetasida Saidahmad Vasliy (1869-1925), Siddiqiy Ajziy (1864-1927), Saidrizo Alizoda (1887-1945), Xoji Muyin (1883-1942) va boshqa ko'plab o'z davrining ziyolilari birlashdilar.

1910-yillardan boshlab yangi adabiyot shakllandi. Said Ahmad Vasliyning "Milliy she'rlar" (1912), Xoji Muyinning "Guldastai adabiyot" (1914) kabi asarlar so'zimizni tasdiqlaydi.

M. Behbudiy 1911-yilda yozib, 1913-yilda chop ettirgan "Padarkush" dramasi bilan o'zbek tili dramaturgiyasining tamal toshini qo'ydi.[1]

Matbuotning paydo bo'lishi publisistikaning rivojiga xissa qo'shdi. 1914-yil 24-iyulda Nikolay II ning Farmoni bilan Turkiston o'lkasida "Favqulodda qo'riqlana-digan" holat e'lon qilindi.[2]

Nikolay II Turkistonliklarni urushga olmadi. Albatta, buning sabablari bor edi. Chor hukumati Turkistonliklarning asosiy jangavor ruhini so'ndirish, askarlik tarbiyasini yo'qotishni istar edi. Shunga ko'ra 1916 yil 25-iyulida "Imperiyadagi g'ayrirus aholisining erkinliklarini harakatdagi turgan rayonlarda mudofaa qurish ishlariga, shuningdek, davlat mudofaasi uchun zarur bo'lgan har qanday ishlarga safarbar qilish" to'g'risida Farmon chiqarildi. 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan 250 ming ishchi olinadigan bo'ldi, bu mardikorlik edi va bu haqoratli farmonga qarshi 1916-yili qo'zg'alon bo'lib o'tdi, lekin shafqatsizlarcha bostirildi.

[1] Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. 212- бет
[2] Содиқов Х. Шамсутдинов Р. Равшанов П. Ўзбекистоннинг янги тарихи. И китоб. Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида. -Т:. 2000-йил. 212- бет

1917-yil Fevral inqilobi chor hukumatning xulosasini ta'minladi. 1917-yil aprelda bo'lib o'tgan O'lka musulmonlarining 1-qurultoyi federal muxtoriyatni ilgari surdi. Shu yilning sentyabrida O'lka ishchi va soldat deputatlarining 2-s'yezdi Turkistonning Sovetlar qo'liga topshirishini talab qildi. F.I. Kolesev boshli qizil rus hukumati davlat tepasiga keldi 1929-yil sovetlar uchun buyuk burilish yili bo'ldi va erkin fikr tugatilib, Kommunistik diktatura o'rnatildi.

1-jahon urushi yillarida matbuot faollashdi. 1918-yildan boshlab sotsialistik matbuot izga tushdi. Samarqandda 1919-yil Bolalar yo'ldoshi, 1920-yil Tayoq jurnallari chiqa boshladi. Milliy matbuotning paydo bo'lishi bilan yangi Jadid adabiyotining mazmun va yo'nalishi til va uslubi mavzulari o'zgardi. Davr talabi bilan ijtimoiy mavzularga, zamonaviy masalalarga, ma'rifat ozodlikka e'tibor kuchaydi. M.Behbudiy teatrni ibratxona deb atashi ham bezij emas. To'g'ridan-to'g'ri gapga, ijtimoiy satiraga - Hajviyaga e'tibor kuchaydi "Osheleun intiqod manbalari ".[1]

Siddiqiy Ajziy ma'rifatga muhabbat e'lon qildi. Yorning an'anaviy sifatlarini ma'rifatga ko'chirdi. She'riyat esa yangi qurilajak davlat va jamiyatning siyosiy tuzumidan ahloqiy turmishigacha, iqtisodidan, madaniyatigacha qiziqdi, xullas she'riyat ijtimoiy-siyosiy sh'eriyatga aylandi. She'riyatda bir qator poetik, stilistik o'zgarishlar ro'y berdi. Siddiqiy Ajziy ijtimoiy satiraning an'anaviy aruzdagi nodir namunalarini yaratdi.

Mardikorlik voqealari davrida sh'eriyat yanada kuchayganligini ko'ramiz. Bu davrda mardikorlikka ba'gishlangan o'nlab she'riy to'plamlar chiqdi.[2]

Bu asarlarda Oq podshoh xizmatini qilib mardikorlik targ'ib qilingan bo'lsada, aslida xalqning tinch hayotini buzgan urush bahonasida millatning sha'nini toptagan hukmron millatga istehzo, ona xalqni uyqudan uyg'onishga, qullikdan qutilishga chaqiruv bilan chulg'angandi. 1917-yil Fevral voqealariga bag'ishlab yuzlab she'rlar yozildi. Oktyabr inqilobini Turkistonliklar to'ntarish deb qaradilar. 1918-19-yillarda bu mavzuga doir asarlar ham yozildi. Muxtoriyat e'lon qilinishi adabiyot namyondalarini ham xursand qildi. Bu voqeaga bag'ishlangan Behbudiyning ko'plab maqolalarini chiqdi. Yangi she'riyat 20-yillarga murakkab ziddiyatli tarzda kirib keldi. XX asrning 20-yillarigacha bo'lgan she'riyat diniy-tasavvuriy she'riyat bilan birgalikda yashadi,

[1] Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. 212- бет
[2] Водуд Маҳмуд. Турк шоири Ажзий // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1989 йил, 10 ноябр, № 46.

rivojlandi. Lekin, o’rganilayotgan davrda qayerda ijod etgan voha shoirlarini uchratmadik. Faqatgina bu janrda Behbudiyning “Oq yelpig’ichli xotun” asarini ko’rsatishimiz mumkin.

O’rganilayotgan davrning eng muhim yagiligi hech shubhasiz daramaturgiyamizdir. Biz yuqorida Behbudiyning o’zbek dramaturgiyasiga asos solganligini aytgan edik. Bu davrda Samarqandda ham teatr havaskorlar truppasi tuzilib, ish olib bordi. Samarqandda Behbudiy bilan birga Abdulla Badriy “Juvonmarg”, “Ahmoq”, Xoji Muyin “Eski maktab-yangi maktab”, “Ko’knori”, “Mazluma xotin”, “Juvonbozlik qurboni”, “Boy ila xizmatkor”, “Qozi ila muallim” Nusratilla Qudratilla o’g’li “To’y”, “Kengash majlisi” deb nomlanuvchi bir qator dramalar yozdilar.[1]

Albatta, adabiyotimizdagi bu yangi janr shakllanishi juda qiyin bo’ldi. M. Behbudiyning 1911-yilda yozilgan “Padarkush” dramasining 1914-yildagina sahnalashtirilganligi so’zimizni tasdiqlaydi.

Yangi adabiyotimizdagi yana bir yangilik bu adabiyotshunoslik va tanqidning shakllanishidir. Ijodiy jarayonlar, badiiy adabiyot tili, yangi adabiyot janrlar bilan bog’liq masalalar matbuot bilan muhokama qilingan. O’rganilayotgan voha adabiyoti tarixida Behbudiyning matbuotga e’lon qilgan maqolalari yangi ma’naviyatning shakllanishida, taraqqiyotida ulkan rol o’ynadi. 1910-yillarda Turkiston ma’naviy hayotida keng tomir otgan jadid adabiyoti 20-yillarda o’z samara va mevalarini berdi.

Bu davr adabiyotida qadim davrlardan kelayotgan adabiy an’analar saqlandi. She’riyat asosiy o’ringa chiqdi. Aruz vazni asosiy vazn bo’ldi. G’zal, ruboiy, tuyuq, tarix, muammo, muxammas, musaddas, musamman, masnaviydan keng foydalanildi. Samarqandda Abdulkarim Sipandiy, Siddiqiy Ajziy, Said Ahmad Vasliy, Orif Gulxaniy, Xoji Muyin, Shukrillozoda, Abdulg’oni Javdat, Abduqodir Jome’, Qori Masiho Tamhed, Saidrizo Alizoda va boshqa ko’plab adabiyot ilmi darg’alari yashab ijod etganlar.

**Siddiqiy Ajziy** asl ismi Saidahmadxo’ja 1864-yilda Samarqandda tug’ilgan. She’rlarini Ajziy, Doston va Nasriy asarlariga Siddiqiy deb taxallus qo`ygan.[2]

Saidahmadning 5-7 yoshlarida otasi Hasanxo’ja vafot etgan. Bobosi Alixo’ja qo’lida, so’ng Usta Abdulxon qo’lida yetimlikda katta bo’aldi. Yangasi qo’lida savod chiqaradi. Mustaqil bilim oladi. Zamondoshlari uning qobiliyatini alohida e’tirof etishadi. Tanqidchi adabiyotshunos Vodud Mahmud (1897-1976) 1924-yilda Ajziy

[1] Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. 218- бет
[2] Аслиддин Қамарзода. Гулистони Адаб.- Т:. 2007. 190-бет

haqida shunday yozgan: "Buyuk iste'dodga ega bo'lg'onidan ko'p san'atlarning ustosidir. Siddiqiy yaxshi bir texnikdur soat va mashinalarni tuzatmoq ishiga mohirdur. Yaxshi to'quvchi va tikuvchidir. Ko'p yillar bu san'at bilan yashag'ondir. O'z tilidan boshqa arab, fors, rus tillarini biladur. Yaxshi ovchidir, musiqa bilan shug'ullangandir."[1]

Siddiqiy 90-yillarning oxirida Hajga boradi 1900 yilda Russiyaning Jiddagi elchixonasida tarjimonlik qiladi. Shoir 1901 yilda Xolvoyi qishlog'ida usuli jadid maktabini ochadi. Uning uchun darsliklar yozadi. "Ayn ul-odob" (Odob so'zi) "Ganjinai hikmat" (himat xazinasi) kabi she'riy to'plamlari, "Anjumaniy arvoh" (Ruhlar yig'ini), "Mir' oti ibrat" (Ibrat oynasi) kabi dostonlar yozib chop ettirdi.

O'zbekcha ishqiy she'rlari saqlanmagan. 1909-yilda do'stlari yordamida ushbu asarlar Tiflisda forscha nashr qilingan. 1914-yilda "Mir' oti ibrat" o'zbek tilida Samarqandda chop etildi. Ushbu asarda shoir o'z orzusidagi Samarqandga safar qiladi, shaharni chizib beradi. Ushbu asarda televedeniya emas videotelefonlar haqida gap ketadi.

Gogolning "Shinel" povestini o'zbekchaga tarjima qiladi.[2]

1914 yilda u bunday fikrlari uchun mutaasiblar tomonidan "Kofir" deb e'lon qilindi.[3] Shorining o'zbekcha g'azallari "Ayn ul-odob"da to'plangan unda oyoqosti bo'lgan millatning mudhish ahvoli, tutqun vatanning fojialari tasvirlangan. Shoir hajviyalar ham yozgan. 1922-yilda Holvoyi qishlog'ida vafot etdi.

**Saidahmad Vasliy** shoir, olim, tarjimon, publitsist, mudarris sifatida mashur bo'lgan. Samarqandning Ko'k Masjid mahallasida pichoqchi usta Saida'zim xonadoni-da tug'ilgan.

Samarqand, Buxoro, Toshkent madrasalarida o'qigan 1902-yil Buxoro madrasalarida dars bergan. 1909-yildan Samarqandning Shohi Zinda, Orifjonboy madrasalarida mudarisslik qiladi. Arab, fors tillarini ham yaxshi bilgan. 12000 bayt, 25 ilmiy risolasi, bizgacha yetib kelgan. Turkiston, Xorazm, Buxoroda ham mashhur bo'lgan. "Aslul ahkom" (hukmlar asli), 1904 yil Samarqandda "Armug'on do'ston va tuhfat ul-ahbob" (Do'stlar armug'oni va seviklilar tuhfasi), 1909 yil fors she'riy to'plami, "Aqoidi g'ayri mamnuta" nuqtasiz harflar imlosi arabcha darslik, 1909-yil Samarqandda "Naf'ut-tolib" (talaba manfaati) Toshkent 1912, "Madaniyat va shariat islomiya"

---

[1] Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. 40- бет
[2] "Гулшани адаб" -Душанбе 1980. 424-бет.
[3] Аслиддин Қамарзода. Гулистони Адаб.- Т:. 2007. 91-бет

Toshkentda 1915-yil forscha, “Adab’ud-din”yoxud milliy she’rlar 1911 yil Toshkent o’zbekcha she’rlar to’plami, “Devoni Vasliya”, “Al kalomul ofxam-fi monoqibil imomi A’zam” (Imomi A’zam sifatlari to’g’risida) arabchadan forschaga tarjima, “Nazmus-silsila” (Xoja Valixon Urgutiyning shajara va sifatlari haqida) 1913-yilda forscha masnaviy yozgan.[1]

Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”ini ham o’zbekchaga tarjima qilgan. 10 lab maqolalari Turkiston viloyatining gazetasi, “Sadoi Farg’ona”, “Sadoi Turkiston” gazetalarida bosilgan. Adabiyotning jamiyatdagi o’rni, xotin-qizlar ozodligi, teatr, ishqiy g’azallarga bag’ishlangan ushbu maqolalar bahslarga sabab bo’lgan. 1925-yil vafot etdi.

**Abdulkarim Sipandiy** (1829-1909) 1829 yili Samarqandning Mahdum Xorazmiy mahallasida kosib oilasida dunyoga kelgan.[2]

Dastlab Samarqandda o’qib so’ng tahsilni Buxoro madrasalarida davom ettirdi. Buxoroda Sipandiy Mirsiddiq Hoshmat, Osimiy Buxoriy, Zakiy Buxoriy, Qori Rahmatulloh Vozeh va boshqa bir qator ilm ahli bilan tanishdi va suhbatlaridan bahramand bo’ldi. Madrasadgi ta’limni tugatgach Samarqandga qaytib uzoq yillar davomida Mirzo Ulug’bek madrasasida mudarrislik qildi. Abdulkarim Sipondiy Eron, Iroq va 76 yoshida Makka va Madinaga safar qildi. Haj safaridan qaytgach Sipondiy mudarrislikni tark etib Samarqanddagi Xo’ja Zulmurod masjidida imomlik qildi.[3]

1908 yili falaj bo’lib qoldi va 1909 yilda olamdan o’tdi. Abdulkarim Sipandiy “Zullusonayn” shoir bo’lib, o’zbek va tojik tillarida ko`plab she’rlar yozgan. Abdulkarim Sipandiy o’z davrining yetuk olimi, shoirlaridan sanalgan va hech shubhasiz o’rganilayotgan davr adabiyotida o’chmas iz qoldirgan.

**Orif Gulxaniy** (1879-1953) 1879-yilda Samarqand shahrida dunyoga kelgan. Dastlabki ta’limni oilasida onasi Mangatshox, amakisi Homidjondan olgan keyinchalik Samarqand va Buxoro madrasalarida ta’limni davom ettirgan. Orif Gulxaniy Sharq mumtoz adabiyotining yirik vakillari Umar Xayyom, Sad’iy, Jomiy, Navoy, Fuzuliy, Bedil she’riyati bilan qiziqib o’zi ham ikki tilda tojik va o’zbek tillarida ijod qilgan. Vasliy Samarqandiy boshchiligidagi

[1] Ўша жойда. 99-bet
[2] Ўша жойда. 5-6-bet
[3] Ўша жойда. 84-bet

Samarqandda ijod qiluvchi Jomiy, Tug'ral, Sipandiy, Pisandiy, Jur'at, Javdat, Xil'at, Tamhitlar Gulxaniy ijodiga katta ta'sir ko'rsatgan va shu muhit uning she'rlarini sayqallashtirdi.[1]

U shuningdek, iste'dodli bog'bon bo'lib o'z bog'ida ijodkorlarni to'plab adabiy muhit yaratgan edi.[2] Gulxaniy asarlarining mavzusi turli-tuman bo'lib yuksak ijtimoiy-go'yaviy asosga egadir. Gulxaniy ijodi namunalari bizgacha Muqimjon Orifzoda tomonidan jamlangan "Sheru shakar", "Davri davron bizniki" to'plamlari orqali yetib kelgan.[3]

**Xoji Muyin Shukrillazoda** (1883-1942) 1883 yilning 19-martida Samarqanddagi Ruxobod mahallasida tug'ilgan.[4]

1890-yilda onasi 24 yoshda, 1895-yili otasi 32 yoshida vafot etadi. 12 yoshli Muyin bobosi Mirsaid Muhammadsharif qo'lida qoldi, u kishi Ruxobod masjidi imom-xatibi bo'lib ilk ta'limini bobosidan oladi. 1900-yilda Xoji Muyin Saidahmad Vasliy bilan tanishadi va arabchadan dars oladi. Vasliy bilan uchrashuv unda she'riyatga qiziqish uyg'otdi. Saidahmad Vasliy uning yozgan she'rlarini ko'rib chiqadi va unga ustozlik qiladi. 1905-yilda Xoji Muyin o'zining ilk g'azalini yozib Saidahmad Vasliyga ko'rsatadi. Shundan keyin Xoji Muyin g'azal, hikoya, ruboiy, marsiya yoza boshlaydi va Saidahmad Vasliydan maslahat oladi.

1901-1902-yil masjid maktabida dars beradi. 1903-yil Xo'ja Nisbat mahallasida usuli jadid maktabini ochadi. 1908-yil "Rahnamoi savod" darsligini yaratadi.[5]

1914-yilda Xoji Muyin ilk to'plami bo'lmish "Guldastai adabiyot"ni chop etadi. Bu to'plam 2000 misradan iborat bo'lib, 2 she'r o'zbek tilida, 2 she'r arab tilida qolgani tojik tilida yozilgan. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasining namoyishidan so'ng ta'sirlangan Xoji Muyin "To'y", "Eski maktab-yangi maktab", "Ko'knori", "Mazluma xotin" dramalarini yozgan.[6]

1918-1929 yillar davomida Xoji Muyin "Tayoq", "Mashrab", "Mullo Mushfiq hajviyalarini - Mehnatkashlar tovushi" maqolalarini Zarafshon gazetalarida chop etdi. 1923-1925 yillarda Xoji Muyin Mahmudxo'ja Behbudiyning Sirli o'limiga bag'ishlab 5

---

1 Сувонқулов И. Тарихимизнинг ўчмас саҳифалари -С:. 2007. 53-бет
2 Аслиддин Қамарзода. Гулистони Адаб. -Т:. 2007. 109-бет
3 Ўша жойда109-bet
4 Маҳмудов М. Ҳожи Муиннинг ижодий йўли // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1992, I-сон
5 Сувонқулов И. Тарихимизнинг ўчмас саҳифалари -С:. 2007. 64-бет
6 Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. 211- бет

parchadan iborat “Maorif qurbonlari” dramasini yozadi va Samarqand Buxoro , Kattaqo’r’gon teatrlarida namoyish etildi. Xoji Muyin Mahmudxo’ja behbudiyning do’sti bo’lgan, Behbudiy safarga borgan vaqtlarida “Oyna” jurnaliga muharrirlik vazifasini bajargan. 1923-yil 25-martda Xoji Muyin Zarafshon ro’znomasida Mahmudxo’ja Behbudiy faoliyati haqida maqolalar yozdi. Ushbu maqolalar Behbudiy xati va ijodi haqida ma’lumot beruvchi eng asosiy manba bo’lib hisoblanadi. 1907-1937 yillar davomida gazetalarda Xoji Muyinning 200 dan ortiq maqolalari, 400 dan ortiq xabarlari, 1500 misradan ko’proq she’rlari o’zbek va tojik tillarida nashr etildi. Ularni barchasida ma’rifatparvarlik g’oyasi asosiy o’rinda turgan. Xoji Muyin XIX va XX asr o’zbek adabiyotining yirik vakili, O’zbekistonda teatr asoschilaridan biri hissoblanadi. 1938 yilda Xoji Muyin hibsga olinadi va 1942 yil Perim viloyatining Salinoski shahrida vafot etadi.

**Tug’rol** (1864-1919) Panjikent yaqinidagi Farg’ol qishlog’idan yetishib chiqqan. Xoja Ahror Valiy avlodiga mansub zullisonayn ijodkorlaridan biri.[1]

U Samarqandning Tillakori, shuningdek Buxoro madrasalarida tahsil oladi. O’z ijodiyoti bilan XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi adabiy muhitda ta’sirli mavqe’ga ega bo’lgan shoirdir. Uning tojik tilida yozgan asarlaridan bir qismi 1916 yilda Kogon bosmaxonasida devon xolida nashr qilindi. 1990 yilda esa to’laroq she’riy to’plami ham krill hamda arab yozuvida chop qilingan.[2]

Firoqnoma va Sokinoma to’plamlari yetib kelgan, 1919-yilda vafot etgan.

**Abdulg’ani Javdat** (1886-1981) 1886-yili Samarqand shahrining Bog’i Baland nohiyasida dunyoga kelgan. Tillakori madrasasida tahsil olgan. Umar Xayyom, Sa’diy Sheroziy, Hofiz, Jomiy, Navoiy, Bedil asarlarini mutolaa qilib, o’zi ham she’rlar yoza boshlaydi. Javdat Tug’rol bilan do’stlashib bir umr uning muxlisi bo’lgan.

Javdat yangi usul maktablari tashkilotchilaridan hisoblanadi. 40 yillarda Javdat qatog’on qurboni bo’ladi. 1981-yilda vafot etdi.

1914-yilda Javdat 15000 misradan iborat to’plami chop etilmaydi.[3]

Javdat ijodi namunalarining mavzusi hozirgi kunda ham o’z faoliyatini yo’qot-may kelmoqda. 2003-yilda Samarqandda Abdulg’ani Javdat xayoti va ijodi kitobi Abdusalom Samadov tomonidan nashr etiladi.

---

[1] “Гулшани адаб” -Душанбе 1980. 372-бет.
[2] Сувонқулов И. Тарихимизнинг ўчмас саҳифалари -С:. 2007. 58-бет
[3] Аслиддин Қамарзода. Гулистони Адаб.- Т:. 2007. 119-бет

**Abdulqodir Jome'** (1890-1986) 1890 yilda Samarqand shahrida kosib oilasida tug'ilgan. 7 yoshida otasi Xoji Abdulaziz vafot etgach yaqinlari qo'lida tarbiyalanadi. 1905 yilda Jome' Ko'k Masjid mahallasida yashovchi kosib Yusufjonga shogird tushib hunar o'rganish bilan birga savod ham chiqaradi. 1918-yilda Jome' muallimlar tayyorlovchi kursda tahsil oladi. Ushbu dargohda Ivanov va Ismatulla Rahmatullazoda dars berishgan. 1922 yilgacha Jome' muzey mudiri vazifalarida ishlagan. 1922-23 yillarda maktabda dars bergan. Abdulqodir Jome' 1986-yil 22-mayda vafot etdi.

**Qori Maseho Tamhid** (1891-1976) 1891 yili Samarqandning Yalangbeki mahallasida dunyoga kelgan. Tamhidning otasi Muhammad Solihjon va onasi Karomatoy savodi maktab tahsilini ko'rganlaridan edilar.[1]

Ilk tahsilni otasidan olgach Samarqandning mashhur hattotlaridan bo'lgan Mirmuhammad Zorrinqalamdan hattotlik san'atini o'rganadi. Tillakori madrasalarida ta'lim oladi. Tamhid juda kuchli xotira sohibi bo'lgan, o'qiganlarini doim yodda saqlar edi. U Qur'onni yod olib qori nomini oladi Saidahmad Vasliy boshchilik qilgan Samarqand adabiy muhitidan bahramand bo'lgan va tarbiyalangan Tamhid ham she'rlar yozadi. Samarqandda uni hur fikr inson sifatida hurmat qilishardi. Tamhid Naqibxon Tug'ral bilan yaqin do'st bo'lgan va zamondoshlari bo'lmish Sipandiy, Samarqandiy, Vasliy, Sadriddin Ayniy, Zufarxon Javhariy, Tuzon ul-Zehniy, Orif Gulxaniy, Jome', Javdat, Faxriddin Rojiy, Vodut Mahmudiy suhbatlaridan bahramand bo'lgan. Uning she'rlari xalq ichida shuhrat qozondi va gazetalarda chop etildi. 20 yilarda Tamhid Behbudiy kutubxonasi mudiri bo'ldi va ko'plab nodir asarlarni mutolaa qildi. 30-yillarda taziiqlar natijasida vatandan uzoqda yashashga majbur bo'ladi.

**Saidrizo Alizoda** (1886-1938) taraqqiyparvar, jurnalist, pedagog, tarjimon bo'lgan. 1919 yildan boshlab Samarqandda "Shulai inqilob" (Inqilob alangasi) jurnaliga muharrirlik qildi. "Mehnatkashlar tovushi", "Zarafshon", "Ovozi bilik"(haqiqati O'zbekiston) gazetalarida ishlagan. Saidrizo Alizoda 1-tojik alifbosi "Salinaxustina"ni "Birinchi yer" 1920 yilda "Sarf va naxv" (morfologiya va sintaksis) 1929 yilda kabi ko'plab darslik va qo'llanmalar yaratdi. O'zDU (SamDU) da 1933-37-yillarda arab va fors tillaridan dars bergan.[2] Jadidchilik harakatining faollaridan bo'lgan. Saidrizo Alizoda 1938-yilda qamoqda o`lgan.

---

[1] Ўша жойда 128-bet

[2] Сувонқулов И. Тарихимизнинг ўчмас саҳифалари -С:. 2007. 90-бет

**Mirzo Qo'qonboy Abduholiqzoda** 1869-yilda Qo'qond shahrida tug'iladi. Oilasi Samarqandga qaytgach Qo'shhovuz mahallasida yashaydi. Uzoq yillar davomida tarjimon bo'lib ishlaydi. Qo'qondboy jadidchilik harakatining yirik vakili bo'lgan. Rus tilini bilgan. Sanoqli Samarqandliklar jumlasidandir. Uning asarlarida davrga munosabat, tarix yoritilgan.

Yoddosht (xotira-nasr), Voqea'ti Dizak (nasr), Duxtari ko'histonn (roman), "Namoz" romani, "Istodjon"(qissa), "Az ko'chi qamchin xun mechakad"qissa (nasr) hikoyalar muallifidir.[1]

O'rganilayotgan davr adabiyotida, ilm-fanida o'chmas iz qoldirgan. Fozil Yo'ldosh o'g'li shoir Bulung'urda tug'ilgan. Shoirning 40 dan ortiq dostonlari bor.

**Ergash Jumanbulbul o'g'li** Qo'shrabotda tug'ilgan. Dostonchi shoir Kuntug'mish, Yakka Ahmad, Alibek bilan Volibek, Dalli, Ravshan, Xoldorxon kabi dostonlarni yoddan bilgan.[2]

**Mirzo Abdujabbor** urgutlik shoir va xattot "Devoni Hofiz" kitobini bir kechada o'z shogirdlari bilan ko'chirgan. [3]

**Taslim Qoratepagiy** asl ismi Olloyorbek bo'lgan. Shoir Vasliyning shogirdi bo'lgan bizgacha bir qancha yirik she'rlari yetib kelgan.[4]

Vasliyning urgutlik shogirdlaridan biri Mullo Asrorxo'ja Muftaqirdir. Baland qishlog'ida tug'ilgan. Tojik tilida ijod qilgan. Shuningdek urgutda bu davrda shoir Aziziy ham ijod qilgan. Bu haqda Qori Rahmatullo Vozeh o'z tazkirasida yozgan.[5]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak XIX asrning oxiri va XX asrning boshlari Turkiston xalqlari tarixida o'chmas iz qoldirdi. Turkistonning nafaqat moddiy balki madaniy me'rosi ham talon-taroj qilindi. Dunyo so'ragan Sohibqiron Amir Temurdek jahongir bobolarimizning oltin taxtlari, podsholik jihozlari olib ketildi. Xalqning namoyish ko'tarib turgan ko'plab obidalar buzildi. Buyuk tarix zarvaraqlarini millat ongidan chiqarib tashlashga harakat qilindi. 1868-yil Samarqand bosib olingan general Abramov dunyoga mashhur Usmonli Qur'onni Sankt-Peterburgga jo'natdi. General Kaufman buyrug'I bilan V.L.Vyatkin Samarqanddan 190 ta bebaho kitoblarni yig'di. Dunyo sviliziatsiyasi taraqqiyotiga xizmat qilgan ko'plab bobokalonlarimizning nodir asarlari,

---

[1] Мирзо Қўқондбой Абдуҳолиқзода. Духтари Кўҳстон. -С:. 2006. 7-бет
[2] Сувонқулов И. Тарихимизнинг ўчмас саҳифалари -С:. 2007. 95-бет
[3] Маҳматмуродов Ў. Ургут ва ургутликлар. -Т:. 1995. 16-бет
[4] Ўша жойда 16-bet
[5] "Ганжи Зарафшон". -Душанбе 1991. 32-бет.

qo'l yozmalari, kitoblari olib ketildi.  Albatta, bu voqealarning biz o'rganayotgan adabiy muhitga ham ta'siri sezildi. Bu davrda adabiyot tom ma'noda yangilandi, shakllandi, qayta tug'ildi. Adabiyotimizda qadimgi o'tmishdan kelayotgan adabiy janrlar turlari saqlandi. Devon adabiyotida she'riyat asosiy bosh rolga chiqdi. Aruz asosiy vazn bo'ldi. G'azal, ruboiy, tuyuq, tarix, muammo, muxammas, musaddas, musamman, ayniqsa masnaviy kabi adabiy janrlardan ko'proq foydalanildi.  Har doim zamonlar osha keng ma'noni o'z ichiga singdiruvchi ishq muhabbat mavzusi o'rganilayotgan davrda ham she'riyatning markaziy mavzusi bo'lib qoldi. Lekin XIX asr oxirlarida ilohiy ishq, tasavvuf g'oyalarining she'riyatda yetakchilik qilganligini ko'ramiz. Badiiy adbiyotda hajviya janri rivojlandi. Tanqid qilish kuchaydi, voqealarni, mavzularni real tasvirlash asarlarda ko'rina boshladi. Kundalik matbuot va bosmaxonalarning paydo bo'lishi she'riyat va o'quvchi orasini yaqinlashtirdi. Adabiyotda yangi janrlar publisistika, ocherk paydo bo'ldi. Masalan, 1887-yili Xar'kov qishloq xo'jalik ko'rgazmasida ishtirok etgan savdogar Mirzo Buxoriyning Boku, Xar'kov, Moskva, Peterburgga sayohatiga bag'ishlangan xotiralari 1888-yili "Turkiston" viloyati gazetasining 4-7-sonlarida chop etilgan.[1]

O'rganilayotgan davrimizda Turkistonda xususan O'rta Zarafshon vohasida ham zullisonaynlik ham, ikki tilda ijod qilish an'anasi davom ettirildi. Madrasada tahsil olganlarning deyarli barchasi arab va fors tillarini yaxshi bilardilar. Shu sababli ko'pchilik shoirlar o'zbek va tojik tillarida ijod etganlar. Bu davr shoirlari Fors-tojik adabiyotining yetuk namoyondalari Nizomiy, Ganjaviy, Husrav Dehlaviy, Shayx Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiylarni, Fuzuliy, Mahtumquli kabi turkiy she'riyatining o'chmas yulduzlarini o'zlariga ustoz deb bildilar va ularga ergashdilar.  Albatta, o'rganilayotgan davr adabiy muhitning eng e'tiborli tomoni yuqorida bu davrga berilgan nomga xos Millatning uyg'inishini ta'minlaganidir. Hech shubhasiz O'zbeksiton mustaqilligini qo'lga kiritishi, ozodlik yo'lidagi ilk qadamlarni jadidlarimiz qo'ydilar. Shu sababli o'rganilayotgan davr nafaqat adabiyot balki boshqa sohalarini ham yanada chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

XX asr boshlarida shakllangan adabiy muhit Turkiston xalqlarining yagona millatga aylanishi, hurlig, ozodligini qo'lga kiritishini ta'minladi deb xulosa qilsak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

---

[1] Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. 219- бет

## *III BOB. XIX ASR XX ASR BOSHLARIDA ME`MORCHILIK.*

### *§1. XIX asr XX asr boshlarida mahalliy me`morchilik.*

Qadim tarix zarvaraqlarini kuzatar ekanmiz ko'z oldimizdan sehrli go'zal me'morchilik obidalari o'tadi. Qadimiy imoratlar, inshoatlarning har biri inson qo'li bilan tiklangan, uning har bir g'ishtida ajdodlar nafasi mujassam. Asl san'atkorlar ijodi, mehnatlari bilan tiklangan binolarda muayyan davr madaniyatiga guvoh bo'lamiz. Nozik did, yuksak mahorat bilan barpo etilgan yodgorliklarda xalqning madaniy boyligi, faxr va g'ururini ko'ramiz. Mana shunday buyuk san'at durdonalarini yaratgan me'morlarga, xalq farzandlari ustalarga tahsinlar aytamiz. Bu buyuk usta va ustazodalar san'ati asrdan-asrga, avloddan-avlodga o'tib sayqallangan. Lekin afsuski juda ko'p nozik did sohiblari, usta me'morlar nomi saqlanmagan. Bunga sabab, buyuk o'zbek xalqining kamtarligi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ko'plab binolarda ustalarimiz o'z nomlarini bitishmagan. Biroq, ular yaratgan me'moriy inshoatlar bir umr o'z mahobatini yo'qotmaydi. Ushbu tadqiqotimizning yana bir maqsadi XIX asr va XX asr boshlarida faoliyat ko'rsatgan me'morchilik maktabini o'rganishdir. Ishda mahalliy me'morlarimizning quruvchilik san'atiga xolisona yondashgan tadqiqotchilarning asarlari asosiy manba sifatida olindi.

XVIII asrda Buxoro amirligida tarqoqlik davri bo'lib, o'zaro urushlar, siyosiy nizolar natijasida, mamlakatda chuqur ijtimoiy va siyosiy inqiroz hukm surayotgan davr bo'lgan.

XVIII asr voqealaridan Samarqand eng ko'p zarar ko'rdi. [1] Darg'om kanalining buzilishi oqibatida, ocharchilik, yuqumli kasalliklar keng tarqaldi. Samarqandliklar shaharni tashlab Urgut va Panjikentga bordilar.[2] Bu xolni "Samariya" asari muallifi Abu Toxir Xo'ja Samarqand viloyatining tushkunlik holati deb ataydi.[3] XVIII asrning o'rtalaridan hokimiyat tepasiga mang'itlar kelgach mamlakatda sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. 1753 yilda Buxoro amiri Raximxon Darg'omni qayta tikladi.[4]

Shubhasiz Samarqandning tiklanishida Amir Shohmurodning xizmatlari beqi-yosdir. Amir shahardagi ko'plab madrasa binolarini ta'mirlash, qayta qurish ishlariga rahbarlik qildi. Chor Rossiyasi bosqini davrida Samarqanddagi masjidlarning 50 ga yaqini Amir Shohmurod tomonidan qayta qurilgan va ta'mirlangan. Samarqandda Shohmurod uchta yangi madrasa ham qurdirganligini Pisarchik o'z asarida yozib qoldirgan.

---

[1] Бортолод. В.В. История культурной жизни Туркистана .- Т:. 1927. С.99,

[2] Абу Тоҳир Хўжа "Самария" -Т 1991-йил 11-бет

[3] Бортолод. В.В. История культурной жизни Туркистана- Т:. 1927. С. 99,

[4] История Самарканда Том I- Т:. 1969 С. 25

1812-13 yillarda O'rta Osiyoga sayohat qilgan Mir Izattullo quyidagicha ma'lumot beradi: " Amir Shohmurod hukmronligiga qadar Samarqanddagi ahvol nihoyatda achinarli edi. Madrasa hujralarida hayvonlar saqlanar edi. Shohmurod katta qiyinchiliklar bilan shaharni tikladi va Samarqand kundan-kunga rivojlandi".[1]

Meyendrof ma'lumotiga ko'ra 1820 yilda Samarqandda 50 ming kishi yashagan.[2] Shahar devorlari yaxshi saqlangan, devorlar to'g'ri to'rtburchak yoki to'g'ri trapetsiya shaklida bo'lib shimoliy qismi kengroq. G'arbiy qismi biroz pastroq qo'rg'on oldinga chiqqan. Devorlar xuddi Buxoronikidek qalin, baland, yarim doira shaklida. Samarqand qo'rg'oni Buxoronikidan kengroq lekin, aholisi kamroq. G'arbiy qismida bitta Buxoro darvozasi, sharqda ham bitta Qalandarxona darvozasi, janubiy va shimoliy qismlarida 2 tadan darvoza bo'lib, shimolda Paykobod va Shoxi Zinda, janubda So'zangaron va Xoja Axror darvozlari joylashgan.[3] Demak shaharda 6 ta Hazrat Shohi Zinda, Buxoro, Paykobod, Qalandarxona, So'zangaron, Xoja Axror darvozalari orqali kiriladi.

Shaharda bog' va hovuzlar ko'p. Ikkita karvon saroy va ikkita Xoja Axror hammomi faoliyat ko'rsatadi. Shahar 5 ta qismdan iborat.[4] Bular "daha yoki qit'a" deb yuritilgan. Ularning har birida 30 ga yaqin mahallalar bo'lgan.

1. Xayrobod yoki Paykobod. 2.Siyob yoki Qalandarxona. 3.So'zangaron.
4. Xo'ja Axror. 5.Yahudiylar mahallasi

Har bir mahallada masjiddan tashqari hovuz bo'lib, asosiy suv manbai bo'lgan. Kechqurun mahalla darvozlari yopilgan yoki zanjir bilan o'ralgan.[5]

Bu davrda ko'plab uylar, mahalla masjidlari, karvonsaroylar qurildi. Yangi ko'chalar, mahallalar paydo bo'ldi. Ayniqsa, madrasalarning qurilishiga alohida ahamiyat berilgan. Madrasalar vaqf mulklari va boylar yordamida qurilgan. Kichik ikki qavatli, lekin katta hovliga ega bo'lgan uylar ko'p qurilgan. Samarqanddagi uylar mamlakatning boshqa hududlaridagi turar joylardan biroz farq qilgan. Har bir uy ikki qismga tashqi - berun va ichki darunga bo'lingan. Mehmonlarni qabul qilish uchun maxsus xonalar uyning berun tashqi qismida joylashgan. Har bir uyda bog'lar bo'lgan. Karvonsaroylar shahar me'morchiligini ajralmas qismi bo'lib, XIX asrda 58 ga yaqin karvonsaroylar faoliyat ko'rsatgan. [1]

---

[1] Zoxidov P. Самаркандская школа Зодчих XIX начало XX века.-Т:. 1965, С.10,
[2] Мейндроф Б.К. Путушествие из Оренбурга в Бухару
[3]Из Самарканда (коррипенденция русского инвалида) // Туркестанский сборник. -Т 112 С. 202
[4] Ўша жойда С. 201
[5] Файзиев А.Ф. История Самарканда первий пол XIX века.- С:. 1992, С. 7

Karvonsaroylar unda sotiladigan mahsulotlar nomi bilan atalgan. Masalan: Saroyi Mayiz, Saroyi ord, Saroyi birinchi mayda, Saroyi Rangubor, Saroyi Tamaki-furushon, Saroyi Chinni, Saroyi Orifjon boy, Saroyi Maxsum, Saroyi Karim boy, Saroyi Muhammad, Saroyi Podshohi, Jun saroy va boshqalar.

Davlat qushbegi karvosaroyning 1-qavatida 30 ta hujra, 3 ta xona , yerto'la, 2-qavatida ham 30 ta xona bo'lgan. Qo'shhovuz mahallasidagi Orifjon boy karvon-saroyida 45ta xona, Maxsum karvonsaroyida 14 ta xona va 7 ta hujra, Muhammad Karim boy karvonsaroyida 26 ta xona, Qori Yuzufning karvonsaroyida 15 ta xona bo'lgan. Samarqand shahrida hammom qurilishi ilk o'rta asrlarga borib taqaladi va bino qurilishiga alohida e'tibor berilgan. Hammolar o'ziga xos isitish tizimi, suv o'tkazmovchi xususiyatlari bilan ajralib turadi. V.V.Bartold ma'lumotiga ko'ra Mirzo Ulug'bek davridayoq Samarqandda hammomlar haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Samarqand hammomlari bir-biriga o'xshash bo'lib, o'ziga xos uslubda qurilgan. Tashqi tomondan hammomlar keng, lekin past binodek ko'rinadi, toshli bo'lib, 7-8 ta xonalardan iborat, xonalarga o'tgan sari issiqlik ortib boraveradi. XIX asrning 60-yillarida shaharda 7 ta hammom faoliyat ko'rsatgan. Samarqanddagi mashur mahallalar IX-XI asrda paydo bo'lgan Faqih Abulays. X-XI asrda rivojlangan Chokardiza, Navodon, Gatifor, XII asrda taraqqiy etgan So'zangaron, XIV asrda vujudga kelgan Dari Zanjir, XV asrga oid Maxdumi Xorazm, Mirzo Po'lat, Qozi Kalon, Qoraboy Oqsoqol, Zingaron, Qo'shhovuz, Xo'ja Zulmurod, Xo'ja Yusuf bo'lib, So'zangaronning o'zida ham bir nechta yangi mahallalar paydo bo'lgan. Siyob dahasida Shohmurodning ko'chirish siyosati natijasida quyidagi 24 ta yangi mahalla vujudga kelgan: Zomini, Yomini, Yalangbek, Kavarzor, Kultepagi, Urmetani, Imom Vose, Muborak, Kul Obod, Dahbedi, Xo'jandi, Qoshg'ari, Shayx ul-Islom, Xoja Latif Maddoni, Xavosi I, Xavosi II, Qalandarxona, Urgutiy, Shahrisabziy, Toshkandi I (Abul Qosim), Toshkandi II (Orif Jomboy), Toshkandi III (Foniy), Toshkandi IV (Baland ko'prik). Toshkentdan kelgan aholi So'zangaronga, farg'onaliklar Xayrobodga, Zomin, Urgut va Shahrisabzdan kelganlar Qalandarxona mavze'lariga o'rnashganlar.

Qalandarxonada 20 ta mahalla bo'lib, 7 tasi X-XV asrlarda, 8 tasi XVIII asrda, 5 tasi XIX asr bohslarida vujudga kelgan. Xayrobodda ham 20 ta mahalla bo'lib, 3 tasi X-XV asrlarda, 8 tasi XVIII asr oxirida, 9 tasi XIX asr boshlarida paydo bo'lgan.

---

[1] Ўша жойда, С11

So'zangaronda esa 25 ta mahalla bo'lgan. 7 tasi XVIII asr oxirida, 18 tasi XIX asr boshlarida vujudga kelgan. Xoja Axror dahasidagi 31 ta mahalladan 2 tasi X-XV asrlarda, qolganlari XIX asr boshlarida paydo bo'ldi.

Umuman olganda XIX asrda jami 63 ta mahalla paydo bo'lgan: Yomini, Sharbatdor, Shoh-kaschiang hovli, Qozi G'ofur, Obi Mashxad, Bog'i Maydon I, Bog'i Maydon II, Bog'i Maydon III, Tagi sho'r, Ko'k Masjid, Yusuf boy, So'fi Roziq, Yangi Xayrobod, Xo'jajon Xoja , Hovuzi Baland, Mo'liyon I, Mo'liyon II, Mo'liyon III, Kaftarxona, Rajabamin, Ibrohim Xo'ja, Qozi Abdurasul, Xonaqoh, Madrasai Safed, Xoja Nisbatdor, Urgutiy I, Kabolay I, Kabolay II, Namazgoh I, Namazgoh II, Puli Mirzo, Bo'stonxona, Motrudi, Xo'ja qishloq, Qo'rg'oncha, Labi g'or, Bulbulak, Eski Kamardon, Puli Safed, Kulolon, Dekcha-biryon, Ruxobod, Go'ri Amir, Xon Said Imom, Luchchakon, Vaysul qora, Yusuf Xarrot, Amushmuxammad, KulbaI, KulbaII, Doniyorbek, Mullaqalandar I, Mullaqalandar II, Chaqar, Toli Regak I, Toli Regak II, Toli Regak III, Nurobod, Lolazor I, Lolazor II, Lolazor III.

Bu davrda shahar markazi Ark, siyosiy markaz Registon, savdo markazi Chorsu, hisoblangan. Eng mashur joy Bibixonim va Chorsu oralig'idagi ko'cha bo'lgan. Korezgoh darvozasi—Xo'ja Axror, Feruza—qalandarxona, Oxanin—Shoxi Zinda, Xayrobod—Paykobod deb o'zgartirilgan.

Qalandarxonada darveshlar ko'p bo'lgan. Yangi mahallalarda hunarmandlar ko'pchilikni tashkil etgan.[1]

Kattaqo'rg'on ham bir-biriga o'xshash 3 qismga bo'lingan.

1. Shimoliy qism. Zarafshon va Oqtoshning o'rtasi.
2. O'rta qism. Shahrisabz tog'larigacha.
3. Janubiy qism.

O'rta qismida aholi ko'p bo'lib Kattaqo'rg'on va Payshanba shaharlari, Narpay arig'ining chap qirg'og'ida joylashgan. Kattaqo'rg'onning to'rtta darvozasi bor.
Shimoliy qismida—Bozor darvoza , Sharqiy qismida—Haydar Omon
Janubiy qismida—Samarqand , G'arbiy qismida— Buxoro darvozalari.

[1] Файзиев А.Ф. Сообщение из история Самарканде конце XVIII начало XX века.// Общеетвенные наука в Узбекистане. год 1970. № 4. С.98-99

Shaharda 25 ta mahallalar bor: Xoji Latif, Bamiyon, Chordara, Kurpa, Eshonmozor, Haydar-Jomon, Madrasa, Qul-Hoji, Miroxur, Sho'r, Yakkabog', Arabxona, Katta arabxona, ko'cha xo'r, Bozor-Masjid, Oq-Masjid, Mo'ri qo'rg'on, So'fi Olloyor, Murod Qosim. Kattaqo'rg'onda tarixiy yodgorliklar kam. Eng yaxshi joyi Amir bog'idir, bozorlari kichik, Chorshanba va Shanba kunlari bo'ladi. Payshanba shahri paxsa devor bilan o'ralgan bo'lib uchta shimolda Ko'chaxo'r, sharqda Sarbozor, G'arbda Qibla darvozlari bor. Qibla, Masjid, Chitnor, Mundiyon, Qadoq, Sari-bozor, Ko'chxo'r, Toshkent, Madrasa kabi mahallalari bor . Ming qishlog'ida Dushanba kunlari, Ishtixonda Payshanba kunlari, Oqtepada Juma kunlari bozor bo'ladi.[1]

Kattaqo'r'gonda Oq-Masjid, So'fiyon, Katta Arabxona, Madrasa, Xaydar, Chaman kabi dahalar, shuningdek, 30 dan ortiq masjid, 30 ga yaqin madrasa, 10 ga yaqin karvonsaroylar faoliyat ko'rsatgan. [2]

Urgutda esa 46 ta masjid, 40 ta madrasa 7 ta karvonsaroy faoliyat ko'rsatgan. G'o's, Jar, So'fiyon, Chag'izmon, Torinjak, Mo'minobod, G'ijduvon kabi yirik mahallalar bo'lgan.[3]

Dahbedda ham bozor bo'lib bu yer ko'proq shaharni o'xshatadi.[4]
Haqiqatdan ham o`rganilayotgan davrda nafaqat Samarqand balki Kattqo`rg`on, Urgut, Dahbet shaharlari ham ancha taraqqiy etgan.

Yuqoridagi bino va inshootlar soniga qarab, O'rta Zarafshon Vohasida XIX asrda o'ziga xos bo'lgan me'morchilik maktabi bo'lganligiga amin bo'lamiz.

Vamberi ta'kidlashicha vohada quruvchilarning alohida kasbi yo'q, har bir odam o'ziga kerakli bo'lgan binoni qurish uchun yetarli tajribam bor deb hisoblaydi. Qurilgan devorlarning deyarli barchasi qiyshiq va tezda buziladi. O'rta Osiyo xalqlarini o'rganishda ulkan xizmat qilgan Vamberining bu fikrlari asossiz ekanligini bizning davrimizgacha yetib kelgan tarixiy yodgorliklar isbotlaydi Vamberining fikricha Samarqand me'morchiligi fors me'morchiligiga yaqin.[5]

---

[1] Каттакурганский отдель // Туркестанский сборник. Т 38 С. 201.С.. 240-248
[2] Вирский М.М. Список населенных месть Самаркандской области по свадениям 1904 и 1905 г.г. -С:. 1906 С. 37
[3] Ўша жойда
[4] 1872-yil. Samarqand //Туркестанский сборник. Т.57. С. 231.
[5] Самарканд (по Вамбери) //Туркестанский сборник.Т.112. С.207-208

O’rganilayotgan davrda vohada turli quruvchilik kasblari bo’lgan. Ularning o’ziga xos ish qurollari ham bo’lib, qurilish paytida murakkab geometrik shakllarni ham yaratganlar.[1]

Vohadagi me’moriy terminlarning ko’pchiligi tojik tilida bo’lgan, chunki aholining aksariyati o’zbek tilini yaxhsi bilsada, tojik tilida so’zlashgan.

Usta—o’z ishini yaxshi bilgan, quruvchilik sohalarida mutaxassis bo’lgan ustoz hunarmand shunday atalgan. Usta so’zini quruvchilarning tabaqasini, mahoratini ko’rsatgan. Qilayotgan ishining mohiyatiga qarab quruvchilar kasblarining nomi kelib chiqqan. Masalan: “Devorzan—loy inshoatlar devorini quruvchi. Agar bu quruvchi ya’ni devorzon o’z ishini yaxshiroq bilsa—Paxsakash deb yuritilgan. Samarqand qurilishlarida asosan loydan foydalanishgan. Shahar atrofidagi qurilishlarda qo’rg’onlar ahamiyatli hisoblangan. Shuningdek, qurilishda Sinchli devorlar uslubi ham bo’lib, Cho’bkor bunday inshoatlarni qurgan. Cho’bkor—katta qurilishlarni boshqaradi va uning qo’l ostida guruhlar ishlagan.

U shuningdek inshoat qurilishini rejalashtiradi. Cho’bkor—quruvchi—me’mor hisoblanadi. Ko’pincha Cho’bkor ustalar orasidan kichik tsex va korxonalarning boshliqlari chiqqan va ular quruvchi guruhlarini boshqargan.

G’o’slik Usta Murodillaning ma’lumotiga ko’ra qadim davrdan boshlab, quruvchilar orasida musobaqalar uyushtirilgan. Bu musobaqada iste’dodli, tajribali va bir qancha inshoatlarda o’z mahoratini ko’rsata olganlar qatnashgan. Ushbu musobaqada quruvchilar o’z ishlarni namoyon etganlar lekin, ko’pincha g’olibni aniqlash qiyin bo’lgan. Shunday holda nomzodlarga ma’lum mavzu va vaqt berilgan va tayyor bo’lgan ishlarni maxsus komissiya ko’rib chiqib, g’alaba qozongan ustalar aniqlangan. Bunday musobaqalarda g’alaba qozonganlar G’olib deb atalgan.[2]

Urgutlik usta Obloqulni hamma G’olib Buva deb atagan, chunki u musoboqalarda g’olib chiqqan. Obloqul usta xalq orasida hurmatga sazovor bo’lib, barcha ustalar uning o’gitlariga rioya etishgan.[3]

Katta qurilishlarni G’olib ustalar bo’lib berishgan. Shuningdek, najjor, duradgor, duruzgor kabi sohalar bo’lgan. G’ishtkor—g’ishtli devor qurish bo’yicha mutaxassis ular

---

[1] Зохидов.П. Самаркандская школа Зодчих XIX начало XX века-.Т:. 1965,С 12
[2] Ўша жойда,С 13,
[3] Махматмуродов Ў. Ургут ва ургутликлар. -Т:. 1995. 15-бет

bilan birga , Gilkor—shtukaturshiklar ishlagan. Me'moriy dekoratsiya ustalari naqqosh va ganchkorlar hisoblangan. Naqqosh—bu inshoatni bezash ishlarini bajargan.

Ganchkor—turli ganch kompozitsiyalarini yaratgan. Toshtarosh—sangtarosh—tosh kesish bo'yicha mutaxassis, bular bir muncha boy aholi qurilishlarida ishtirok etganlar. Me'mor—bu qurilishdagi eng asosiy o'rinni egallovchi usta bo'lib, barcha quruvchilik sohalarini biladigan, qurilishni rejalashtira oladigan kishidir. Muhandis—agar me'morlar geometrik qiyin qurilishlar bilan shug'ullansa shunday atalgan. Qanday sharoitda va qurilishda necha kishi ishlashidan qat'i nazar qurilish vohada ikki yo'l bilan amalga oshirilgan:

1) qurilish paytida bino shakli aniqlangan yoki

2) qurilishdan oldin eskizlar, chizmalar tayyorlangan. Albatta katta inshoatlar qurilishida oldindan eskizlar, chizmalar tayyorlangan.

Ustalarning kasbi avloddan-avlodga o'tgan va bu bilan faxrlanishgan. Ustazoda—nomining o'zi xalq orasida hurmatni bildirgan. Ota kasbi—Davlat kasbi maqoliga amal qilingan. Qurilish ishlari Ustalar va ularning yordamchilaridan katta mehnat talab qilgan. Katta ustalarning o'quvchilari bo'lib—Shogird deb yuritilgan. Shogirdlar bir qancha yillar mobaynidagi tajriba amaliyot natijasida haqiqiy quruvchiga aylangan. Bu qurilish san'atini egalashning yagona yo'li edi. Ustoz o'z shogirdini mustaqil ishga tayyor deb bilsa, unga oq fotiha bergan. Umuman Ustoz-shogird yo'li barcha sohalarda shakllangan yo'l bo'lgan. Keyinchalik biz 2-3 ustalarning birlashib, ustaxonalar tashkil etganliklarini ham ko'rishimiz mumkin.

O'rganilayotgan davrda vohada ko'plab qurilish xom ashyolari bo'lib, undan keng foydalanilgan. Ularning eng asosiysi topish oson bo'lgan, qulay xususiyatlarga ega bo'lgan, barcha uchun manfaatli Tuproq sanalgan. Tuproqdan tayyorlangan qorishma—loy deyiladi.

Ganch va tuproq aralashmasidan—ganchhok hosil bo'lgan va keyin qurilishlarda ham bemalol ishlatilgan.[1]

Loyni yaxshilab aralashtirib somon solgach bu aralashma shkaturka ishlari uchun ishlatilgan. Murakkab ishlar uchun loyga to'zg'oq solib ham ishlatilgan.

Bir necha kun turgan loy—paxsa devorlar qurilishida ishlatilgan. Shuningdek, xom va pishiq g'ishtlar tayyorlanib qurilishda keng ishlatilgan. G'ishtlar kvadrat yoki

[1] Зохидов.П . Самаркандская школа Зодчих XIX начало XX века.-Т:. 1965, С 16,

to'rtburchak shaklida bo'lgan. G'ishtlarning quyidagi turlari bo'lgan: "G'ishti obi, g'ishti holok, kelib chiqishi Sulton Sanjarga borib taqaladigan Sanjar g'ishtlari". G'ishtlar 22-24 ; 5-6 sm kattalikda bo'lgan.[1]

G'ishtlar mahalliy humdonlarda tayyorlangan. Bu humdonlar bist hazora, si hazora, chil hazora deb atalib, 20,30,40 mingtagacha g'isht ishlab chiqarishga mo'ljallangan.[2] XIX asr oxirlaridagina g'isht zavodlari qurilgan, bularni xalq Shayton xumdon deb atagan. Eski Namozgoh mahallasida Usta Abduqodir tomonidan birinchi g'isht zavodi qurilgan.

Ganch—gipsning mahalliy turlaridan biri bu qorishma sifatida ishlatilgan. Uning Tezganch va Gulganch kabi turlari bo'lgan. tezganchga qizil kesak aralashtirilib lojuvard, qoraqurum kesaklari hosil qilinadi. Ganch tezda pishiq holga keladi. Ganchning Hobakda deb ataluvchi turi murakkab shakllarni hosil qilish uchun ishlatilgan. Shu sohada ishlovchi usta Ganchkor deyilgan. Ganchlar Cho'ponota tepaligidan keyinchalik Panjikentdan keltirilgan. Ganchlar uchun maxsus chuqurligi 1 m, kengligi 2 m bo'lgan chuqurlikdagi humlardan foydalanilgan.

Namlikka qarshi Qir degan qorishmadan foydalanishgan. Hammom, Sardobalar qurilishida Qir qorishmasiga tut yoki uzum tomiri ba'zan shirach (yelim) aralashtirilib ishlatilgan. Binoni bezash uchun bir yoki turli ranglardagi kichik g'ishtlardan foydalanishgan. Bunday g'ishtlar parchin yoki koshin deb atalgan. Deyarli barcha mahalliy daraxtlardan foydalanilgan. Lekin, asosan terak, tol, qayrag'och, tut, chinor, archa yog'ochlari ishlatigan. Namlik kuchli bo'lgan joylarda tut va archa doim ishlatilgan.

Qamish—tomda havoni bir xilda ushlab turish termoizoliyatsiya sifatida ishlatilgan.[3]

Binolarni tasviriy bezashda mahalliy bo'yoqlardan foydalanishgan. Tuxum sarig'i va yelim yordamida tayyorlangan. Bo'yoqlar yorqinligi, mustahkamligi rangining yo'qolmasligi, namlikka qarshi ta'sirchanligi bilan ajralib turgan. Laklar zig'ir va archa yelimi aralashmasidan tayyorlanib bo'yoq sifatida ishlatilgan. Bino qurilishi poydevor qurish bilan boshlangan. Poydevor tosh va pishiq g'ishtdan qurilgan. Ariqlarga yaqin joylarning poydevori juda mustahkam qurilgan. Ko'p hollarda poydevor 3 metr chuqurlikda qazilgan. Kursi barcha sinch imoratlarda asosiy element bo'lib, xizmat

---

[1] Писарчик А.К. Народная Архитектура Самарканде XIX-XX в.в по мат. 1938-41г -Душанбе 1941 С.38
[2] Ўша жойда С39
[3]Зохидов.П . Самаркандская школа Зодчих XIX начало XX века.-Т:. 1965, С. 17,

qilgan. Poydevor va kursi deyarli bir xil vazifani bajargan. Shuning uchun bino poydevori bo'lmasa ham kursi albatta bo'lgan. Kursi asosan g'ishtdan ba'zi hollarda toshdan qurilgan. Zilzilalarga chidamliligini oshirish maqsadida devor burchaklaridan kursilar mustahkamlab qurilgan. Devorlarning turli xili bo'lib, bular Tuproq devor bu eng arzon va eng tez devor qurish uslubi bo'lgan. Loydevor—bir necha paxsalardan iborat. Loyni bir necha kun davomida tayyorlashadi. Paxsa urushda ikkita usta ishtirok etgan. Har bir qator paxsa urib tugatilgach tektarosh bilan qatorni to'g'irlab, qator qurigach keyingi qatorga o'tgan. G'isht devor— xom yoki pishiq g'ishtda qurilgan. Qulf-kalit uslubida g'ishtlar terilgan. Sinch devor—vohada eng ko'p tarqalgan devor turi hisoblanadi. Taxtalar bu devor qurilishida asosiy o'rin egallaydi. Sinchlarning ham tagsinch, tepasinch, zavarrav, qalama, po'shtak, xavon, kabi turlari bo'lgan. Shuningdek, yakka va qo'sh sinchli devorlar bo'lib, qo'sh sinchlisi issiqlik va shovqindan himoyalanish vositasida foydalanilgan. Sinchli uylar xalq orasida mashhur bo'lib, o'zi keng qulayligi bilan ajralib turgan. Sinch devor—tinch devor degan maqollar mashhur bo'lgan. Kam bo'lsa ham ba'zan tosh devorlar ham qurilgan. Bunday devorlar ko'pincha tog'li tumanlarda uchragan. Qamish devor—qamish bilan qoplanagan va taxta devorlar hosil bo'lgan. Ustun—bu qurilishdagi eng asosiy element hisoblanadi. Ustun-kursi, ko'zagi, tana, kalla va boshdan iboratdir. Mahalliy bozorlarda ustunlarning qismlari sotilgan. Ustunlar uyning mustahkamligi uchun xizmat qilgan.

Tom—bu binoning ustini yopish uchun bolor yoki to'sin har qadamda qo'yilgan. Keyin ular orasiga vassa qo'yilib, vassa ustida qamish yopiladi. Ba'zi hollarda 2-3 qavat qamish yopilgan. Keyin g'ishtdan dondana qurishgan, qamish ustidan loy quyilgan. Bu suv o'tkazmaslik xususiyatiga ega bo'lgan. Keyin yana tuproq bilan to'ldirilib yana loy bilan suvalgan. Tomda suv uchun tarnovlar qo'yilgan. Shift—ko'pchilik shiftlar vohada Bolor va vassadan iborat. Bolorlar ham turli xil bo'lib, lo'li bolar, aylana bolar, sorlab bolar, to'rtburchak devor. Har 2,5-3,5 m oralig'ida shopil yoki xori qo'yilgan.

Shopil—bu xona o'rtasidan o'tgan. Qishloq binokorligida keng tarqalgan shiftlar to'rtburchak shaklda xonalardan iborat bo'ladi. Shiftlar uch xil bo'lgan. 1.Vassa shift. 2. Kabzo shift. 3. Lomba shift.

Bu davrda Urgutda vassalarning piltavassa, duvassa, yilvassa kabi turlari bo'l-gan. Masjid shiftlari qo'shkabza, davrahoshiya kabi uslubda qurilgan.[1]

---

[1] Писарчик А.К. Народная Архитектура Самарканде XIX-XX в.в по мат. 1938-41г -Душанбе 1941 С. 79

Bolar va vassalar yaqin qo'yilsa vassajuft, bir-biridan uzoq qo'yilsa—Vassa buyra deb atalgan.[1]

Ravoq—bu o'ziga xos arka bo'lgan. Bu esa ustalarning geometrik bilimlaridan dalolat beradi. Linga—qiyshiq arka. Gumbaz—bu vohadagi o'ziga xos qurilishni ifoda etadi Samarqandda G'arovli gumbaz keng tarqalgan.

Bizgacha yetib kelgan me'morlarning chizmalarini ko'rib, bu chizmalar o'ziga xosligi va hech qanday zamoniy chizmalardan farq qilmasligini ko'ramiz. Bu esa bizga me'morlarimiz havaskor quruvchilar emas balki o'z kasbi bo'yicha muayyan bilimga ega ekanligidan dalolat beradi. Qurilishning katta-kichikligi, ahamiyatiga ko'ra joy tanlangan. Quyosh chiqishi ham botishi ham hissobga olingan. Ayniqsa, masjid va madrasalar qurilishiga alohida ahamiyat berilgan. Albatta bino qurilishida avvalambor to'g'ri chiqishi uchun me'morlarimiz reja, chizishga va xushnurdan foydalanganlar. Shuningdek gazcho'b degan asbob ham bo'lgan. Qurilishdan oldin Reja tortish ishi amalga oshirilgan. Ustalar Rejasiz ish—qolipsiz g'isht maqoliga amal qilishgan. Bu esa me'mor quruvchilarimizning o'z ishlariga nechog'lik ma'suliyat bilan yondashganligidan dalolat beradi. Reja tortish murakkab jarayon bo'lmasada binoni to'g'ri, aniq qurilishi uchun xizmat qilgan va barcha qurilishlarda keng foydalanilgan. Mavorounnahrda me'morchilik haqida kitob bo'lgan, bu "Matla ul-ulum va Majma' ul-funun" deb atalgan, 1845-1846-yillarda tuzilgan. Ushbu qo'llanmaning 31-bobi "Me'morlar san'ati" deb atalib, ushbu bobda har bir quruvchi bilishi va amal qilishi shart bo'lgan 14 asosiy qoidalar belgilab qo'yilgan.

1. Avvalambor qattiq, mustahkam joy tanlash.
2. Tanlangan joy to'rtburchak bo'lishi kerak.
3. Poydevorning hajmi bir-biriga to'g'ri kelishi shart. Agar bino 1 qavatli bo'lsa poydevorning kengligi 1-1,5 gaz bo'lishi lozim, chuqurligi ham shuncha bo'lishi kerak. Agar ko'p qavatli bo'lsa poydevor yanada qattiqroq-kengroq bo'lishi lozim.
4. Ustunlar qancha katta bo'lsa, bino shunchalik chiroyli va ko'rkam chiqadi. Devorlarning kengligi poydevordan kichikroq bo'lishi lozim. Ikkinchi qavatdagi devor pastki qavatdan ensizroq bo'lishi kerak. Devor burchaklarini nihoyatda mustahkam qilib g'isht terish lozim.

[1] Ўша жойда С. 72

5. Tomdagi ustunlar toq qo'yilmagan, chunki toq xosiyatsiz hisoblangan. Tom mustahkamligiga e'tibor berish lozim.

6. Bino balandligi uning eniga to'g'ri kelishi kerak. Iloji boricha xonalar kvadrat bo'lib qolmasligi kerak, chunki bunday binolar noqulay bo'lgan. Binoning uzunligi uning kengligidan uzunroq bo'lishi lozim. Darvozalar janubga qaramasligi lozim va bu darvozalar boshqa eshiklardan kattaroq bo'lishi lozim.

7. Binoga havo kirib chiqishi uchun katta ahamiyat berish lozim, agar bunga e'tibor berilmasa, devorlarning namiqishiga, buzilishiga olib keladi.

Shuningdek ushbu qo'llanmada turli qorishmalar tayyorlash to'g'risida ham ma'lumotlar keltirilgan.[1]

Albatta bu misollar yana bir karra me'mor quruvchilarimizning chuqur bilimga tayanib, ishlaganlaridan dalolat beradi. Voha mahallalarida ko'chalar tor va bir-biriga chatishib ketgan bo'lsada, me'morlarning san'ati quruvchilardagi nozik didi, uylarning o'ziga xos chiroy kasb etishiga xizmat qilgan. Usta—Me'morlar turar joy qurilishiga katta ahamiyat berganlar va buni biz necha olimlarning fikrlariga tayanib baralla ayta olamiz. Turar joylar qurilishiga nazar tashlasak quyidagicha xulosa chiqarishimiz mumkin: Uylar darvozaxonadan boshlanib, uylarga kirish qismi bo'lib, turli ko'rinishlarda qurilgan. Darvozaxonalarning eng ko'p uchraydigan shakli chortoq bo'lgan. Shohi Zinda, Xoja Abdu Darun, Qalandarxona masjidlarida chortoq shaklini ko'rishimiz mumkin. Yo'lak—usti ochiq bo'lgan.

Dalon—esa usti yopiq uzun yo'lak bo'lgan. Kirish qismida qurilgan.[2] Bostirma usti yopiq yozgi xo'jalik uchun moslab qurilgan joy. Ikki qavatli balkonli bo'lgan. Ayvon—usti yopiq bir, ikki ba'zida uch tomoni ochiq xona bo'lib bostirmadan farqli o'laroq yashash uchun xizmat qilgan. Ayvon yerdan biroz yuqorida qurilgan, uning yonida yashash uchun xizmat qiluvchi xona joylashgan. Bino markazida kirish uchun qulay joyda mexmonxona qurilgan. Mexmonxonaga kirish joyi poygoh xona to'ri peshgoh deyilgan. Hurmatga sazovor mehmonlar uchun alohida joy shoxinshilar joylashgan.

Ko'pgina binolar qiblaga qaratilgan bu esa shahar ob-havosiga ham to'g'ri kelgan.[3] Shohinshinlar Samarqandda ikki xil bo'lgan. Birihchi qavatdagisi yerdan 40-50 sm

---

[1] Зохидов.П . Самаркандская школа Зодчих XIX начало XX века.- Т:. 1965, С 27-28,
[2] Зохидов П.Ш. «Меъмор олами». -Т.: 1996. С. 45
[3] Зохидов.П. . Самаркандская школа Зодчих XIX начало XX века.- Т:. 1965, С46,

balandda joylashgan,ikkinchi qavatdagisi ochiq balkon tarzida bo'lib, bu hol ikki qavatdagi mehmonlarning bemalol suhbatlashishlarini ta'minlaydi. Birinchi qavatdagi mehmonlarning derazalari bo'lmagan. Ko'pincha savdogarlar ikki qavatli balkonli mexmonxona qurishganlar. Bular Yevropa va Sharqona did bilan bezatilgan. Ikki eshikli mexmonxonalar dudara deb atalgan.

Agar yer maydoni kichik bo'lib ikki xona qurishga imkon bo'lmasa bir xonali qilib qurilgan va yozgi xonalar shimol tomonga qaratilgan yil davomida yashashgan.

Agar xonaning oldida dahliz bo'lsa, qishda oilaviy yashashgan. Bu dahliz Zimiston deb yuritilgan. Xonalar kichikroq bo'lib qishda issiq bo'lgan.[1]

Qishda yashashga moljallangan uylar quyosh nuri tushib turishi uchun janubga qaratilgan. Dahliz ayvon va xona orasidagi xona bo'lib yoritilishi uchun derazarga alohida ahamiyat berilgan. Madon—qorong'u, sovuq xona bo'lib kichik tirqichlar bilan yoritilgan. Madonlarda yozgi issiq havodan oziq-ovqatlar saqlangan. Qishda esa xo'jalik buyumlari saqlangan.[2]

Shuningdek, uylarda oshxona, otxona, somonxona, og'il, molxona, qaznoq, xojatxona (xolajoy)lar ham bo'lgan. Oshxona qurilishiga alohida ahamiyat berilgan yozda tashqarida ham ovqat pishirilgan. Oshxonalarda tandir, o'choq, mo'ri, xashtak, dudburolar ovqat hidini va tutunini tashqariga chiqib ketishi uchun xizmat qilgan. Shuningdek, oshtonxona ham bo'lgan.

Xo'jalik buyumlari yerto'la yoki tagto'lalarda saqlangan.[3] Binolarning ikkinchi qavati bolaxona deyilgan. Har bir uyda chuqurligi o'rtacha 1 metrli quduqlar bo'lib, 6 yilda bir to'ldirilgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab oshxonalar tashqarida qurilgan. Qishda sandallardan isitish vositasi sifatida foydalanganar. Balandligi va kengligi bir xil xonalar qadubor deyilgan. Hovli binolarni birlashtirgan gullar, daraxtlar ekilgan. Shuningdek, hovlilarda so'ri va chorpoyalar ham bo'lgan. Binolarning ikkinchi qavatiga maxsus zinai- munori deb ataluvchi zinapoyalardan chiqishgan. Vohada ko'pincha yer maydonining to'rtburchak 2:3 shaklida bo'lishiga katta ahamiyat berilgan. Bunday uylar chiroyli ko'ringan va kitob deb atalgan. Hovlilar ikki qismdan iborat bo'lib tashqari hovlida mehmonlar kutib olingan ichkarida oilaviy istiqomat qilishgan.

---

[1] Писарчик А.К. Народная Архитектура Самарканде XIX-XX в.в по мат. 1938-41г- Душанбе 1941С. 19
[2] Зохидов.П. . Самаркандская школа Зодчих XIX начало XX века. -Т:. 1965, С. 46,
[3] Зохидов П.Ш. меъмор санъати. Ўзбекистон архитектураси тарихидан лавҳалар.- Т.1978 11-бет

Qishloqlarda uy-joylar qurilishi bir oz boshqacha bo’lgan. Oilaviy Qo’rg’on deb ataluvchi mustahkam paxsa devor bilan qurilgan tashqi hovlida yashashgan. Ichkari hovli chorbog’ deb atalgan, hovuz va bog’lar ham bo’lgan.  Chorbog’larda shiyponlar bo’lib yozgi ikki ba’zida uch tomoni ochiq xolda qurilgan. Yoz kunlarida derazalar yopilgan va uylar maxsus kichik panjaralar orqali yoritligan. Xonalarning pastki qismida 0,8-1,20 m derazalar bo’lib, sovuq havo kirishi uchun xizmat qilgan. Shuningdek panjara, kovak va tuynuklar ham havo almashtirishga xizmat qilgan. Xashtak—yoritgich vazifasini bajargan va binoning o’rtasida parallel shaklda qurilgan va bu oshxonalarda ham bo’lgan.[1]

Karvonsaroylarning ahamiyatli ekanini hisobga olib uning qurilishiga ham alohida e’tibor berilgan. Karvonsaroylar savdo uchun muhim bo’lgan. So’zangaron, Panjikent, Toshkent ko’chalarida karvonsaroylar ko’p bo’lgan. Karvonsaroylar usti yopiq hovli ichkarida otlar uchun yemxona bo’lgan. Shunindek, mehmon va savdogarlar uchun alohida xonalar ham bo’lgan.

Qishloqlarda soyagixona deb nom olgan bino bo’lib, unda meva, sabzavotlar va tamaki mahsulotlari quritilgan. Shinnixonalarda esa uzumdan tayyorlangan mahsulotlar saqlangan. Samarqand shimolida shinnixonalar ko’p bo’lib ular kvadrat shaklda bo’lgan. Shinnixonalar ichida yomlar bo’lib ularda uzum sharbatlari saqlangan. Shinnixonalarda oily navli musallaslar tayyorlanganligi binolarning mukammal qurilganligidan dalolat beradi va bu sohada ham me’morlarning chuqur bilimga ega bo’lganliklarini isbotidir.

O’rganilayotgan davrda vohada madaniy, diniy binolar bo’lmish masjid, mad-rasa, va maqbaralar qurilishiga alohida e’tibor berilgan. Masjid qurilishiga ko’plab ustalar jalb etilgan va ular o’zlarining mahoratlarini bu qurilishda to’la namoyon etishga harakat qilganlar. Masjidlarda ko’plab odamlar yig’ilganlar va usta quruvchilarning keyingi ihslari uchun bu qurilishning ahamiyati katta bo’lgan. Diniy nuqtai nazardan bu savobli ish hisoblangan va masjidlar qurilishi xalq ustalarining iste’dodini barchaga namoyon etgan. Masjidlar o’z vaqflariga ega bo’lganlar va undan daromad olingan. Masjidlar qurilishini moliyalashtirganlar BONI deyilgan.[2] Ba’zi hollarda merosxo’ri bo’lmagan odamlar ham o’z yer mulklarini, uylarini masjidlarga qoldirganlar. Masalan: Mulla Qalandar masjidinig vaqflari ijaraga berilgan bir necha do’kon va choyxonadan iborat bo’lgan.

---

[1] Архитектура Узбекистана. Альманах. -Т. 1985 С. 55,

[2] Писарчик А.К. Народная Архитектура Самарканде XIX-XX в.в по мат. 1938-41г -Душанбе 1941С. 47

**Xoja ZulMurod** masjidi—shaharning ichkarisida joylashgan bo'lib, Abu Tohirxojaning "Samariya" asarida 1833-yilda (1249 hijriy) Usta Muxammad Sharif Dikriz honaqoh atrofida bino usti yopiq ayvon qurganligi haqida ma'lumot beradi. Shimoliy ayvonda bu joyni Hijriy 1314 yilda milodiy 1896 yilda Usta Xushkomilboy Degreza qurganligi yozilgan. Shuningdek Usta Muxtor , Usta Abdurauf najjorlar , Usta Mahmud, Usta Naim, Usta Sharif, kabi naqqoshlar, Usta Sayfulla, Usta Kamol kabi ganchkorlar qurganligi haqida ma'lumotlar saqlangan. Xonaqoh kvadrat shaklda bo'lib yorug'lik manbai panjaralar hisoblanadi. Masjid xonalari did bilan tosh va arkalar bilan bezatilgan.

**Hazrati Xizr Masjidi**— XVIII asrda shahardagi vayronagarchilik va buziqchilik oqibatlarida bu masjid ham qarovsiz qolib katta zarar ko'rgan. Masjid qayta ta'mirtalab bo'lib qoladi. Bizgacha yetib kelgan masjidning hozirgi binosi XIX asr o'rtalarida bunyod etilgan va bir necha marta o'zgartirilgan. Masjid mehrobidagi yozuvga tayanadigan bo'lsak hijriy 1271 yilda milodiy 1854 yilda oxirgi marta ta'mirlanganligini bilib olamiz. Keyingi yozuvda 1884 yilda ta'mirlanganligi haqida ma'lumot bor. 1899 yilda Xonaqohdagi ayvon qayta qurilgan.1919 yilda Darvozaxona ham qayta tiklanganligi haqida ham ma'lumotlar bor va bu qurilishni Xoji Mulla Abduqodir amalga oshirganligi ma'lum bo'ldi.[1] 1854 yildagi Xonaqoh Usta Abduqodir Boqiev boshchiligidagi me'morlar tomonidan qayta ta'mirlangan.[2] Masjid o'zining chiroyli ko'rinishi bilan hayratga sazovor bo'lib kelmoqda.

**Xoja Axror Masjidi**—bu madrasaning ba'zi binolari XVIII asrda Nodir Devonbegi tomonidan qurilgan ,darvozasida "Shu yo'ldan xohlaganingni topasan" degan yozuv sa1qlangan. Madrasa hovlisida hovuz bo'lib, chinorlar bilan o'ralgan. Janub va Sharqiy qismida qabriston joylashgan. Shimoliy va janubiy tomonlarida chiroyli ayvon joylashgan. Keyinchalik qishda namoz o'qish uchun mo'ljallangan bino va bir nechta hujralar joylashgan. Ikkinchi ayvon yonida hovuz yaqinida minora qurilgan. Masjid shifti mohir rassom tomonidan nozik did bilan bezatilgan bo'lib Xo'ja Abdu Darun, Xo'ja ZulMurod, Chokardiza me'morlari chizmalariga o'xshaydi. Bu masjid ham XIX-XX asrlarda ta'mirlanganligi haqida ma'lumotlar bor.

**Xoja Nisbat** masjidi—So'zangaron ko'chasida joylashgan. To'rtbuchak g'ishtdan ganchli qorishmadan qurilgan. Masjid kvadrat shakldagi xonaqoh va janubiy tomondan

[1] Зохидов.П.. Самаркандская школа Зодчих XIX начало XX века. -Т:. 1965, С. 68
[2] Ўша жойда С. 69

unga tutashgan ayvondan iborat. Ayvon oldida kichikroq minora joylashgan. Masjidning o'ziga xosligini shu ta'minlaydi. Masjid imoratlari, ustunlari lola ko'rinishida o'ymakorlik bilan bezatilgan. Bu qurilish hijriy 1319, milodiy 1901 yilda qurilganligi yozib qo'yilgan. Masjid Usta Chamdivor boshchiligida qurilgan. G'isht terish ishlarini Usta Zayniddin va Usta Jamoliddinlar, ganch ishlarini Usta Saydulla bajargan, masjidni naqqosh Usta Mahmud bezagan. Bu masjid xalq me'morchiligining go'zal, noyob namunalaridan hisoblanadi.

**Xoja Abdu Darun** masjidi XII asrda qurilgan bo'lsada masjiddagi bizgacha saqlanib qolgan yozuvlarda XIX va XX asrda qayta ta'mirlanganligi ma'lum va shu asrda o'zining hozirgi ko'rinishiga kelgan. Usta Abduqodir, Usta Sobir, Usta Sodiq, Usta Abdug'ani, Usta Abduzoxidlar tomonidan qayta qurilgan va o'zining har tomonlama mukammal shaklga egaligini ko'rsatadi.

**Shohi Zinda** ansabilidagi ba'zi binolar ham XIX-XX asrda qurilgan. Samarqand hokimi Davlat Qusgbegi hijriy 1228 yilda, 1812-1813milodiy yillarda madrasa qurdirgan.[1]

Bu madrasa XVIII asrdan keyingi davrda qurilgan bino hisoblanadi. O'rganilayotgan davrda qurililgan yana bir masjid Kattaqo'rg'onning markazida bozor yaqinida qurilgan Qalandarxona masjididir. Bu masjid xonaqoh va ayvon, hovuz va minoradan iborat. To'rtburchak g'isht va ganch aralashmasidan qurilgan. Ayvon 1909-10 yillarda qurilganligi yozilgan. Bu masjidning bezatish ishlarini naqqoshlar Jamoliddin va Usta Kamoliddinlar amalgam oshirishgan. Masjidning qurilishiga Nasrullo Maxsum boshchilik qilgan.[2]

Bu masjid xalqni hayratga slogan va uni madh etuvchi ko'plab she'rlar yozishgan. Kattaqo`rg`ondagi Qalandarxona masjidi minora va hovuz birgalikda takrorlanmas go'zallikni namoyon ettiradi. Bu masjid o'rganilayotgan davrda mahalliy me'morlar tomonidan bunyod etilgan eng nodir san'at ko'rinishidir.

Samarqand va Kattaqo'rg'on oralig'ida Yangiqo'rg'on tumani bo'lib, bu yerdagi masjid ko'pchilikni diqqatini tortadi. Bu masjid qurilishida Usta Ziyodulla faol ishtirok etgan. Usta Zarif, Usta Abduvahoblar ham ishtirok etganlar. Bu masjid xonaqoh, ayvondan iborat bo'lib, ustunlari va mehroblari bilan ajralib turadi.[3] Samarqanddagi Oq

---

[1] История Самарканда Том I -Т:. 1969 С. 301

[2] Зохидов.П. Самаркандская школа Зодчих XIX начало XX века.- Т:. 1965, С. 87

[3] Зохидов П.Ш. меъмор санъати. Ўзбекистон архитектураси тарихидан лавҳалар.- Т.1978 89-бет

Masjid minorasi ham o'rganilayotgan davrdagi me'morlarimizning mahoratini namoyon qilib beradi. Bu minora g'ishtlari siyohlangan bo'lib, ganch qorishmasi yordamida terilgan. Minora ustida sakkiz arkali derazalar bo'lib Usta Muxtor tomonidan 1910 yilda qurilgan. Bu turdagi minoralar Samarqandda XIX asr oxirlarida qurila boshlangan bo'lib hozir o'nlab shunday minoralarni ko'rishimiz mumkin.

O'rganilayotgan davrda O'rta Zarafshon vohasida masjidlar qurilishini kuzatib quyidagicha xulosa qilsak bo'lad: Barcha masjidlar an'anaviy tarzda yozgi ayvon va qishgi xonaqohdan iboratdir. Masjid tuzilishi: ayvon, xonaqoh, peshayvon, qo'shayvon, ko'shk ayvon, burchak ayvon. Qo'sh ayvon eng baland va eng murakkab ko'rinishi hisoblanadi. Xonaqoh-ko'pincha kvadrat shaklda ba'zida to'rtburchak shaklda qurilgan. Ustunlarning soni kattaligiga qarab turlicha bo'lgan. Mahalliy aholi ko'p hollarda bir va to'rt ustunli xonaqohlar bino qilganlar. Agar bino to'rtburchak shaklda bo'lsa ikkita ustun bo'lgan. Xonaqohlarga kirish eshiklari sakkiztagacha bo'lgan. Eshiklar ustida yorug'lik manbai bo'lib xizmat qiladigan panjaralar o'rnatilgan. Me'morlar ayniqsa mexrob qurishga va uni bezashga alohida ahamiyat berganlar. Chunki mehrob muqaddas hisoblangan. Shiftlar ko'pincha ganch va turli bezaklar bilan bezatilgan. Mahalla masjidlari mahallalarni bir-biri bilan tutashtiruvchi bino vazifasini bajarib markazda qurilgan. Qishlloq masjilari esa o'ziga xos oddiy qurilish uslubi bilan ajralib turgan.

Tadqiqotlarimiz natijasida yana shu aniqlandiki maqbaralar qurish va qayta ta'mirlash ham me'morlar tomonidan a'lo darajada bajarishgan. Shunday maqbaralardan biri Xo'ja Doniyor maqbarasi bo'lib, Abu Tohirxo'ja o'zining "Samariya" asarida bu maqbara haqida ma'lumotlar bergan. Maqbara XX asrda ta'mirlanib Usta Rofi ishlarni boshqargan. Bu bino Siyob arig'i yonida shaharning shimoliy qismida joylashgan. Bu maqbara darvozaxona va bosh binodan iborat bo'lib, zinapoyalarining ko'rinishi ahamiyatlidir.[1]

Umuman olganda o'rganilayotgan davrda asosan Sahn, ayvon, xona asosiy bino qismlari hisoblangan. Devorlar to'rida taxmon, tancha bo'lgan. Sahn—bu binoning qolgan qismlari bilan tutashtiruvchi ochiq qismdir.[2] Sahnsiz xalq qurilish uslubini tassavvur qilib bo'lmaydi. Ayvon—bu me'morlar orasida turli ko'rinishga ega bo'lgan va keng tarqalgan qismdir. Ayvon markaziy qism hisoblanib, xalq me'morlarining o'ziga xos tomonlarini ifodalaydi. Xona—bu o'z vazifasiga ko'ra turlicha ataladi va bu yashash

[1] Абу Тоҳир Хўжа "Самария" -Т 1991-йил 51-бет

[2]Зохидов.П. Самаркандская школа Зодчих XIX начало XX века.- Т:. 1965, С.98

uchun xizmat qiladi. Binolarning tashqi ko'rnishi turlicha qilib bezatilgan. Masjidlarning ko'rinishi juda oddiy bo'lgan. Shuningdek, maqbara va xo'jalik binolarining ham ko'rinishi oddiy lekin, qulay bo'lgan. Devorlarning markazida turli kompozitsiyalar ishlangan.

XIX asr va XX asrda Samarqand me'morchiligida o'ziga xos darvozasozlik maktabi ham shakklandi. O'rganilayotgan davrda darvozalar orasida Usta Siddiq tomonidan "Tillakori" madrasasi darvozasi Mirzo Ulug'bek madrasalari darvozalari misol bo'la oladi. Shuningdek, Sherdor madrasasining shimoliy, Hazrat Xizr madarasalarining kirish qismidagi darvozlari, Shohi Zindaning kirish darvozalari shu davrda ishlangan. Darvozalar 3 turga bo'lingan: 1) Bog'dodiy 2) Xuvaydo 3) Nishon (Nishonboy).

Darvozalar bir tabaqali va ikki (qo'sh) tabaqali bo'lgan. Me'morlar ayniqsa tashqi darvozalarga katta ahamiyat berganlar. Bu esa xalq me'morchiligining asl mohiyatini anglatadi. Samarqand ustalarining ganchkorlik va o'ymakorlik maxoratlari alohida tahsinga sazovordir. Shuningdek, binolarda turli tasvirlar chizilgan. Majnuntol tasviri yoki guldondagi gullar tasviri ko'proq tushirilgan, gullar naqqoshlar mehnati bilan tasvirlangan. Shuningdek, yakzanjir, qo'shzanjir, Sardorkanor, Sardarbogayi (sevishganlar), Sardarkonari dudtagi kabi tasvirlar ham bo'lgan. Binolarni bo'yashda qalam, pilta qalam, zavarrov, minkor, shuturgardon, patak binni, pux, yoyqalam, nova deb atalgan turli asboblardan foydalanilgan. Asosan gul, bog'lar tasviri tushirilgan, kashish, oxta, girex-geometrik shakl bo'lgan. Zaminkor, lo'li pardoz, po`x pardoz, tabaqa pardoz kabi devorlar bezagi bo'lib har biri o'ziga xos xususiyati bilan bir-biridan farq qilgan. O'ymakorlik zaminsiz va zaminli o'ymakorlikka bo'linadi. Zaminli o'ymaning zangmira, qirma, yorma, yoyma, lo'li pardoz kabi turlari bor.

Samarqandliklar yoyma, qirma, yorma pardoz turlaridan keng foydalanaganlar.[1]

Sangtarosh-toshtarosh ustalar binoning marmar va tosh bezaklarini pardozlash-gan. Shuningdek, koshintarosh ustalar bo'lib, ular har xil rangdagi koshinlarni kesib, ulardam gullar va yozuvlar mazoikasini ishlaganlar. Naqqoshlar usta mo'yqalami bilan devorlar, shift va gumbaz ostiga rasmlar chizib, turli ranglarda bo'yaganlar. Bundan bir necha o'n yillar oldin rassom restovrator G.N. Nikitin Samarqanddagi Shohi Zinda maqbarasini ta'mirga tayyorlash vaqtida ganch shuvog'i qatlamini ko'chirib, shuvoq tagida naqshin gullarni ko'rib qoladi. Nihoyatda nozik did bilan ishlangan gullar rassom e'tiborini jalb

---

[1] Zoxidov P.Sh. me'mor san'ati. O'zbekiston arxitekturasi tarixidan lavhalar. -T.1978-yil. C.122

etadi. Ushbu naqshlarda ijodkor ustaning nomi ham bitilgan. Bu naqsh 1832 yilda usta Rahmonxol tomonidan bajarilgan ekan. G.Nikitin binoning bir necha yuz yil oldin qurilganligini taxmin qilib, shuvoqlarni tagida yana boshqa naqsh ham borligini aytdi va rassom xuddi kitobni varaqlagandek ganch qatlamlarini ochib, to'rt davrga oid, bir-biridan butunlay farq qiluvchi har biri yetuk san'at namunasi bo'lgan naqshlarni topdi. Naqqoshlarning bu boy va turli xil san'at namunalarini ta'riflashga til ojizdir.[1]

Naqqoshlar o'z ish uslublarini yetti xilga bo'lishgan bular: islimiy, xitoiy, obr, vax, nilufar, farangi va bandi Rumiydir. Islimiy asosan tabiatdagi o'simliklarga taqlid qilib ishlangan gullardan iborat bo'lgan. Xitoiy—ko'proq geometrik shakllardan, abr naqshi minyaturalarida havo va bulutlar tasvirlangan. Abrdonchilik bezagi asosan mato bezaklarida shoxi atlaslarda keng taraqqiy etgan.

Bandi Rumiy naqshi hozirda ham mavjud bo'lib alohida ajralib turuvchi kesishgan bandlardan yasalgan. Islimiy naqshi ikki turga bo'lingan:

1) dekarativ panno asosini tashkil etuvchi majnuntol, tuvakda gul kabi sifatidagi naqshlar.

2) eng ko'p tarqalgan tanob, barg, band, g'uncha, gul kabi dekarativ elementlardan iborat. Bu usulni ustalar sevib ishlatishgan. Tanob—naqshini tahskil etuvchi o'zak yo'l-chiziq bo'lgan. Band—islimiy naqshlaridagi biror o'simlik va daraxt tanasini ifodalaydi. Me'morlar qo'shkabza, davra-xoshiya uslubidan foydalanganlar. Pardoz deb ganchkor ustalar o'ymakor naqshda tanob, band, barg kabi elementlarning kesib shakllantirish usuliga aytiladi. Masalan biror gul o'yib ishlangan ekan bitta shakl asosida turlicha natija olish mumkin: ko'ndalang kesim, yarim doira, to'g'ri to'rtburchak, uchburchak va hokazo shaklda kesilsa naqsh ko'rinishi o'zgaradi. Shu ko'ndalang kesimga nisbatan ustalar qirma, yorma, chizma, tabaqa kabi pardoz turlarini farq erishgan. Ganchdan ishlangan naqshlarning pardoziga qarab o'ymakorlarning cheksiz y imkoniyatlarini namoyon etish mumkin. Majnuntol—dekorativ san'ati o'zbek me'morchiligining ajralamas qismidir. Nozik va nafis ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, rang-barang naqqoshlik namunalari xalq me'morchiligi taraqqiyotini, uning uslub xususiyatlarini ko'rsatib beruvchi badiiy vositadir.

Kattaqo'rg'onda shunday bir afsona bor: "O'z davrining ikki yetuk naqqosh va ganchkorlari uzoq vaqt davomida qaysi birlarining san'atlari kuchli ekanligini to`g`risida

[1] Зохидов.П. Самаркандская школа Зодчих XIX начало XX века. -Т:. 1965, С.122

bahslashibdilar. Ularning har biri o’z ishlarining ustasi va ularning ishi birdek chiroyli va betakror edi. Shunda bu masalani hal etish uchun har bir ustaga bir binoning ikki tomoni ajratib berilibdi. Ustalar bir-birlarining ishlarini ko’rmay ishga tushibdilar. Naqqosh juda ko’p va mahorat bilan ishlabdi, ganchkor vazminlik bilan ishlab tez orada ishini tugatganligini aytdi. Binoning boshqa qismini bir necha kun o’tgachgina naqqosh tomonidan tugatilganligi ma’lum qilindi va nihoyat pardalar olindi. Ganchkor va naqqoshning san’atlaridan odamlar bahramand bo’ldilar va hayratdan lol qoldilar. Ikkala ustaning ham ishi bir xil edi. Qanday qilib bir-birini ishini bilmagan ustalar bir xil kompozitsiya yaratishdi. Aql bovar qilmaydi. Buning siri nimada? Keyin aniqlashlaricha ganhckor devorni shunday mahorat bilan ishlagan ediki bu devor oyna kabi qarshisidagi naqshlarni aks ettirgan. O’shanda g’oliblik ganchkorga berilgan ekan. Aytishlaricha ganchkor va naqqosh o’rtasidagi baxs hozirgacha davom etmoqda. Naqqosh va ganchkor bir-birlaridan o’zishga harakatlari davom etmoqda va natijada xalq me’morchiligi yanada taraqqiy etmoqda. Xalq bu har ikkala buyuk san’atkorlik qobiliyatini asrlar osha asrab avaylab kelmoqda. Chunki har birining me’morchilikda o’z o’rni bor, ular bir-birini to’ldiradi, rivojlantiradi, go’zallash-tiradi.”[1]

Eng baquvvat mustahkam tog’da o’suvchi zarang daraxti hisoblangan va shu daraxtdan asboblar, dastalar yasalgan.[2] Voha me’morchiligi haqida shuni xulosa qilib aytishimiz mumkinki, me’morchilik san’ati Buxoro va Toshkent uslubiga yaqin bo’lgan. Farqli tomonlari sifatida voha me’morchiligidagi ayvon va shoxinshinlarni ko’rsatishimiz mumkin. Ganch san’ati Buxoro uslubiga yaqindir. Samarqandda asosan ganch panjaralar bo’lib, Toshkent va Farg’onada panjaralar yo’gochdan tayyorlangan. Imorat ustalari turli vazifalarni bajarganlar. Oddiy devor uruvchi paxsakashdan to sinchkoriy imorat ustalari cho’bkor, najjor, duruzdor, duradgorlargacha mavjud bo’lgan. Bino devorlarini ko’targan g’ishtkor unga gumbaz va ravoqlar bog’lab, peshtoqlar o’rnatgan, gilkor va ganchkor ustalar shuvoq va ganchin bezaklar berishgan. Koshintarosh ustalar turli rang koshinlarni kesib, ulardan gullar va yozuvlar mozoinlarini ishlaganlar. Naqqosh usta mo’yqalami bilan devorlar, shift va gumbaz ostiga rasmlar chizib, rang-barang tusda bo’yagan. Bino qurilishida eng oliy mutaxassislar: me’mor, bonno, muhandislar hisoblanishgan. Binokorlikda eng asosiy kasblarni egallagan ijodkorlar me’mor yoki muhandis deb

---

[1] Ўша жойда С.127-128
[2] Писарчик А.К. Народная Архитектура Самарканде XIX-XX в.в по мат. 1938-41г- Душанбе 1941 С.65

ta'riflangan. Xalq me'morlari gireh deb nomlanuvchi murakkab geometrik ornomentlardan foydalanganlar.

Gireh—tugun demakdir. To'g'ri chiziqlarning kesishmasi natijasida shunday chigal shakllar paydo bo'ladiki ularni qanday yasalganligini anglash qiyin. Girehlar chizilgan qog'oz o'ramlari avloddan-avlodga o'tib kelgan. Kuzatishlar natijasida barcha girehlar taqsim deb atalgan juda oddiy elementdan tashkil topishi aniqlandi va shu taqsimning takrorlanishi tugallangan kompozitsiyani hosil qiladi. Gireh kabi muqarnas, iroqi sistemalar ham bo'lgan.[1]

Barcha binolar mahalliy qurilish materiallaridan qurilgan. Me'morlar xona havosiga katta ahamiyat berib vertikal va gorizontal havo almashuvini ta'minlashgan. Madrasa qurilishi asosan Ulug'bek madrasasining kichikroq nusxalarini namoyon etadi. Karvonsaroylar qurilishi an'anaviy tarzda davom etgan.Urgutlik usta Obloqul xalq me'morchiligi taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan. O'rganilayotgan davr me'morchiligida Urgut shahri qurilishlari bevosita Obloqul usta nomi bilan bog'liqdir.

Kattaqo'rg'onlik Usta Shokir g'ishtli binolar quruvchisi sifatida, Usta Yashuzoq esa sinch imorat ustasi sifatida mashur bo`lgan. Yangiqo'rg'onda yog'och o'ymakorligi bilan Usta Saydullo mashhur bo'lgan. Shuningdek, naqqosh Usta Raxmonxol, Usta Mahmud, Usta Mansur, Usta Kamoliddin, Usta Jamoliddinlarning nomlari ham xalq orasida mashhur bo'lgan.[2]

Xalq me'morlari mikroklimmat yaratishga, kunduzgi xonaning isishiga, xonalarda salqinlikni saqlab qolishga, havo almashinuviga katta e'tibor berganlar. XIX asr va XX asrda Samarqandlik ustalar xalq me'morchilgining vorislari va davomchilari sifatida Samarqandda asrlar osha shakllangan me'morchilik maktabining rivojiga ulkan xissa qo'shdilar. Ustalarimiz an'anaviy uslubni davom ettirib yangi betakror binolar qurishni davom ettirdilar. O'rganilayotgan davr me'morchiligi o'zining turfa xilligi bilan davr ijtimoiy-iqtisodiy madaniy hayotini aks ettiradi. Me'morlarimiz yuqori bilimlarga asoslanib qurilish olib borganlar. Ular davr madaniyatini aks ettirganlar va rivojlantirganlar. Samarqandlik Usta Abduqodir Boqiev voha me'morchiligi taraqqiyotiga munosib xissa qo'shgan va o'zining ishlari bilan mashhur bo'lgan. Usta Abduqodir O'rta Sharqning ko'plab mamlakatlarida bo'lgan. Makka ziyoratidan Samarqandga qaytgach usta o'z ko'rganlarini do'stlariga so'zlab beradi va o'z shahri

[1] Зохидов П.Ш. Меъмор санъати -Т:. И том 1978. 28-бет

[2] Бекмуродов И. Каттақўрғоннинг қисқасҳа тарихи- С:. 1993. 17-бет

Samarqandda Avliyo Sofiya ibodatxonasi kabi bino qurish fikri paydo bo'lganligini aytadi.[1]

Albatta bu misollarga tayanib shuni aytish mumkinki Samarqandda XIX asr va XX asrlarda o'ziga xos yuksak me'morchilik san'ati rivojlangan, Samarqandlik ustalar o'z davrining eng zamonaviy bilimlariga ega bo'lib, insoniyatni lol qoldirayorgan yuksak quruvchilik madaniyatining munosib vorislari bo'lishgan. Ularning faoliyatini yanada chuqurroq o'rganish tariximizni o'rganish o'tmish madaniyatimizdan xabardor etishi shubhasizdir.

### *§2. Rossiya istilosi davrida qurilish ishlari.*

Evropa shaharsozligining kirib kelishi va Turkiston shaharlarining yangicha qiyofasi. Mahalliy me'morchilik va rus arxitekturasining o'zaro ta'siri natijasida yuzaga kelgan yangi muhandislik qurilishi echimlari taraqqiy etdi. An'anaviy me'morchilikning rivojlanishi rus savdo sanoat egalari, boshqa til va dindagi xalqning Turkistonga kirib kelishi bevosita shahar tuzilishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Samarqandning sharqiy, janubiy, janubiy-g'arbiy qismlari Darg'om kanaligacha bog'lar bilan o'ralgan. Bu bog'larning mevalari juda mashhur bo'lgan. Samarqanddagi masjid va bog'lar ko'pligidan, ularning aniq sonini aniqlashning iloji yo'q. Hindlarning alohida karvonsaroyi ham bor. Bibixonim maqbarasi yaqinidagi maydonda jazo ijro etiladi.[2] Shaharning asosiy qismi baland tepalikda joylashgan qo'rg'on hisoblangan. Qo'rg'onning bir qismi shaharning ichida, yana bir qismi esa shaharning tashqarisida edi. Qo'rg'on xalqa devorlar bilan o'ralgan va maxsus xandaqlar himoya vositasi bo'lgan. Qo'rg 'onning umumiy maydoni 100 tanob, 40000 $m^2$ bo'lib, Buxoro qo'rg'onidan kattaroq bo'lgan.[3] Qo'rg'on ichida shaharning asosiy markaziy ko'chalar, janubiy-g'arbida Temuriylar davriga oid Qutbi Chor Duxum saqlangan.[4] Qo'rg'onda Samarqand mudofaasida halok bo'lgan askarlarga va polkovnik Sakovinga monument qo'yildi.[5] Shaharda Qutbi Chor Duxum va boshqa 200 dan ortiq maqbaralar joylashgan.

---

1 Зохидов.П. Самаркандская школа Зодчих XIX начало XX века. –Т. 1965, С.135
2 1872-yil. Самарканд // Туркестанский сборник. Т.57. С.210-213
3 Нильсон В.А. Уистоков совеременного гродостроительства Узбекистана с конца XIX начало XX века -Т:. 1988. С. 96
4 Кураҳмедов А.Е. Шарипов С.И. "Туркистон тўплами"да Самарқанд тарихий ёдгорликлари.// Ватан тарихининг долзарб муаммолари. 2004
5 Из Среднеазиатских Владений год 1873. //Туркестанский сборник. Т.57. №23.С. 195.

Ko'ktoshda hozir rus bayrog'i o'rnatilgan.[1] Shaharning eng katta joyi Ko'k Tosh nomidan kelib chiqqan Ko'k Saroy o'rnidagi saroy hisoblangan.

Samarqandda ikkita karvonsaroy, ikkita Xoja Axror va Miriy hammomlari mavjud. Kunlik savdodan tashqari haftaning Dushanba va Payshanba kunlari katta bozor bo'ladi. Sherdor madrasasi oldida attorlik buyumlari, Bibixonim madrasasi yaqinida ot savdosi bo'ladi.[2] Registonning shimoliy-sharqiy burchagida Tillakori madrasasi orasida ko'cha bo'lib har ikki tomonida do'konlar joylashgan. Bu yangi rastada Chorshanba va Yakshanba kunlari bozor bo'ladi.[3] Qo'r'gonda sarbozlar saroyi, masjidlar, madrasalar va ko'plab do'konlar xizmat ko'rsatgan.

Sarbozlar saroyi oldida porox ombori, bu yerda shuningdek polkovnik Skobolevga va boshqa askarlarga qo'yilgan maqbara joylashgan. 1871 yilda bu yerda cherkov ochilgan. Buxoro darvozasi yonida rus savdogarlari rastasi va rus maktabi bor.[4] 1868 yilda ruslar birinchi bo'lib kirgan joy ham shu qo'rg'on hisoblanadi. Rus askarlari qo'rg'on ichkarisidagi va unga yaqin mahallalarga joylashtirilgan. Saroyda—lazirat, masjidda okrug boshlig'ining devonxonasi, Ali madrasasida qamoqxona, Yusufboy mahallasida mahalliy xalq uchun shifoxona tashkil etilgan.

Albatta ruslarning kelishi bilan iqtisodiy-siyosiy, madaniy hayotda katta o'zgarishlar ro'y berdi. Voha shaharlarida yangi Ovro'pa uslubidagi me'morchilik kirib keldi. Albatta bu qurilgan yangi binolar shahar hayoti taraqqiyotiga xissa qo'shdi. Lekin ko'plab tarixiy masjid, maqbara, madrasalar buzilib tashlanganligi achinarli holatdir. Bunday sotsial munosabatlar shaharlarni kengaytirishda Evropa shaharsozligida qo'llanib kelinayotgan ikki xil usulni tatbiq etishini taqoza qildi. Birinchisi bu eng qadimgi zamonda Hindiston va Xitoyda ma'lum bo'lgan hamda Evropa shaharsozligida Milet shahrining tarixini tuzgan me'mor Gippo nomi bilan bog'liq «Gippodamovo plonirovka» deb ataladigan muttasil (regulyarnaya plonirovka) tarh tuzish va uning asosi shahar bunyod etish hisobianadi. O'rta Osiyoda muttasil katakli shahar tarhi qurilishda Bishkek, Olma-ota kabi shaharlar bunyod etildi. Evropa shaharsozligining ikkinchi ko'rinishi - bu uch nurli kompozitsiya ko'rinishidir. Bunday usulni Moskva shahrining tuzilishiga o`xshash radial-halqa (ruschasiga-radialno kolsevaya plonirovka) tarh tuzilishi deb ham ataladi. Umuman olganda bu dastlab Versalda qo'llanilib, qasr binosiga kelib tutashuvchi uchta nur tarzida

[1] Самарканд // Туркестанский сборник. Т.57. .С.198
[2] Xanikov Самарканд // Туркестанский сборник. Т.389.С. 7
[3] Самарканд // Туркестанский сборник. Т.57. С 184
[4] Ўша жойда С 199

joylashgan ko'chalar vositasida tuzilgan tarhdan borat. Vashington ham shu usul (kapitoliy va unga yo'nalgan uch ko'cha) tarzida solingan. Moskva shahrining ham XIX asrgacha bo'lgan kengayishi bu usulni bir qadar o'zgartirib nur-halqa tarziga olib keldi. Samarqand, Toshkent, yangi Marg'ilon (Farg'ona), Andijon kabi shaharlarning yangi qismlari shu usulda kengaytirildi. Bunda ko'pincha o'rta asrlarda bunyod etilgan ark, o'rda yoki q'al'a o'rnida o'sha shaharlar harbiy hokimi qarorgohi qilib, undan kengayib boruvchi ko'chalar bunyod etilgan. Ba`zi holatlarda ham yangi hokim qo'rg'oni oldiga keng xiyobon tarzidagi maydon-esplonoda tashkil qilinganini ko'rish mumkin[1].

XIX asrning ikkinchi yarmida Samarqand yangi shahri qurilishi uchun g'arb tomondan eski shaharga yondashgan Amir Temur Ko'ksaroyi o'rnida turgan O'rta asr qo'rg'oni markaz qilib olindi. Qo'r'gon eski shahardan chuqur orqali ajralgan, balandligi 10 metrcha keladigan tepalikda mudofaa devoir bilan o'ralgan mavze'idan iborat.

1868 yildan keyin qo'rg'on qisman buzilgan. Ammo devor ichkarisida Samar-qand beklarining "Ko'k Tosh"li saroyi va Temuriylar davrida qurilgan koshinli bezak qoldiqlari saqlangan. Ulkan gumbazli Nuriddin Basir Qutbi chor Duxum maqbarasi joylashgan.[2] Hozirda qo'rg'on o'rnida ko'p qavatli ma'muriy binolar va opera va balet teatri qurilgan. Samarqand viloyatining ma'muriy markazi sifatida qurilishlar boshlandi. Yangicha uslub, did, yangi qurilish materiallari kirib keldi. Chor hukumati vohani bosib olgach har tomonlama xalqni dinidan, madaniyatidan yiroqlashtirishga harakat qildi. Yangi shaharsozlikda ham bu bosh g'oya bo'lib qolaverdi. Albatta, bu davrda qurilgan aksariyat binolar hozirgi kungacha saqlangan. Bunda ba'zan ko'chalarni kengaytirish va yangi qo'rg'onlarni bunyod etishda eski tarixiy va me'moriy obidalar buzilib yo'q qilindi. Buni ayniqsa Samarqand shahri misolida ko'rish mumkin. Samarqanddagi qurilish ishlari 1868 yilning oxirida Georgiy xristian cherkovi qurilishi bilan boshlandi. U bir uch olddan iborat bo'lib uning gumbazi yassiroq g'arb tomoni ikki qavatli qo'ng'iroqxonadan tashkil topgan. Qo'ng'iroqxona va cherkov binosi shimol va janub tomondan oddiy figurali xoch belgisi bilan bezatilgan. Bu cherkov uncha katta bo'lmasada arxitekturaviy jihatdan chiroyli qilib bezatilgan mustahkam bino edi. Bu cherkov chiroyliroq qilib ko'rinishi uchun uning atrofida tez orada qurilish ishlari boshlab yuborildi. Bunday obodonlashtirish ishlariga polkovnik L.Serov rahbarlik qilgan. Bu erdan Registonga borish uchun keng yo'l va eski shahar orqali Registonning

---

[1] Аҳмедов М.К. Ўрта Осиё меъморчилиги таърихи.-Т:. 1995, 132-бет.

[2] Галендар Борис. "Янги шаҳарнинг меъморий ёдгорликлари".Фан ва турмуш. 2007 л 3-4-сон. 74-бет

shimoli - g’arbidan utgan bitta yo’l ochildi. Bu ikki yo’l ham Samarqand begi qarorgohi oldidan o’tar edi. XIX asr oxirida Samarqand begi qarorgohi hozirgi opera-balet teatri o’rnida joylashgan edi[1]. 1868 yildayoq K.P.Kaufman buyrug’i bilan Samarqanddagi tarixiy yodgorliklarni ta’mirlash ishlari boshlandi. Bu ta’mirlash ishlarini harbiylar boshchiligida askarlar va mahalliy ustalar bajarishgan. Bu ishlarni mahalliy me’morlarsiz qilib bo’lmas edi. Chunki an’anaviy qurilishdan faqat ulargina boxabar bo’lganlar.

1870 yildan boshlab Shohi Zinda ansambilida katta ta’mirlash ishlari boshlandi va bu ishlarga Usta Boqining xizmatlari katta edi.[2] 1871 yilda harbiy muhandis Z.E.Jijemenskiy qo’rg’ondan Go’ri Amirga olib boradigan yo’l qurdi va maqbara yonida kichik bog’ tashkil etildi. Palakov va L.Serova boshchiligida ark atrofi to’la qaytadan rejalashtirildi. Podsho rossiyasining ham, rus savdogarlarining ham bosh maqsadi o’lkani ruslashtirish bo’lgan. 1870 yilda A.P.Chernovskiy boshchiligida Shohi Zinda zinapoyalari qayta tiklandi va maqbarani shahar bilan tutashtiruvchi yo’l qurildi. Registonga eltuvchi keng ko’cha shimoliy-g’arbiy registonni birlashtiruvchi yana bir ko’cha qurilib, shahar markazi bilan tutashtirildi. 1875 yilda Registon maydonida ta’mirlash ishlari boshlandi. Qamal vaqtida vayron qilingan devorlar, minoralar tiklandi. Vaqtinchalik faoliyat ko’rsatadigan rastalar olindi. Maydon g’ishtli panjara bilan o’rab chiqildi. Bu ishlarning asl mazmuni shubhasiz mahalliy xalqni hurmatini, e’tiborini qozonish bo’lgan. Lekin, agar eski maqbara yoki madarasalar harbiy rejaga to’sqinlik qilsa hech shubhasiz buzib tashlangan. 1893 yilda qurilish vaqtida Qutbi-Chor-Duxumni portlatishgan.CHor ma’muriyatining bu shaharga qiziqishidan asosiy maqsadi asta-sekinlik bilan ruslashtirish edi. Shuning uchun ularning oldidagi asosiy masala Turkiston general-gubernatorligi tarkibida Zarafshon vodiysida yangi «Samarqand shahri» qurish edi. Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufman 1870 yilda bo’lajak shaharning qurilish rejasini tasdiqladi. Rejada shahar atrofidagi mahalliy aholi uchastkalari tortib olinishi ham nazarda tutilgan edi.

1871-yilda General-mayor A.K.Abramov buyrug’i bilan uchinchi batalyon komandiri polkovnik Norbota boshchiligida Samarqandda “Rus shahri” qurish haqida buyruq berildi. Bu maxsus komissiya yangi rus shahri uchun qulay, suvli, yoz kunlarida

[1] Нильсон В.А. Уистоков совеременного градостроительства Узбекистана с конца XIX начало XX века- Т:. 1988. С. 97

2 Ирисқулов О. Ёрқулов А. Самарқанд шаҳрининг ХИХ аср охири ХХ аср бошларида қурилган маданий иншоотлари. // Тарих ва хотира. -С 2007

salqin joyni tanladi.[1] Yashash sharoiti qulay bo'lgan yer uchastkalari rus harbiylariga ajratildi. 1871 yilda shaharning janubiy-g'arbida, Buxoro darvozasi tomonda, Kattaqo'rg'on yo'lidagi uchastkalar ajratildi. Shu yerning o'zida harbiy qal'a bunyod etildi. 1871 yilda muhandis P.A.Naladkurniy loyihasi asosida Samarqand viloyat harbiy gubernatorlari qarorgohi qurilgan. Okrug shtabi binosida shuningdek, shtab boshlig'ining uyi ham joylashgan. 1872 yilda topogrof I.T.Sexopovich bo'lajak shahar ko'chalarini tasvirga tushirib, yangi shahar qurilishini tezlashtirishga harakat qildi. 1875 yilga kelib loyiha asosida qurilishi kerak bo'lgan joylar bitkazildi, lekin qo'rg'onning ichki qurilishi ham tugallanmagan edi. Bu vaqtga kelib yangi Samarqand shahrining xarakteri kompozitsiyasi ishlab chiqilgan edi. 1875 yil 1 yanvarda Samarqand shahrining bosh rejasi ishlab chiqildi. Unga ko'ra Samarqand shahri boshqa O'rta Osiyo shaharlari kabi ikki qismdan: eski va yangi shahardan iborat bo'ldi. Shahar aholisining etnik tarkibida ham ko'pgina o'zgarishlar yuz berdi.

Shaharning asosiy kompozitsiyasi bo'lgan qo'rg'on atrofi 31,2 gektarni tashkil etardi.[2] Uning mudofaa devorlari 1875 yilgacha saqlangan. Bu erda ko'pgina yangi qurilish ishlari boshlandi. Shaharning keng atrofini o'rab turgan eski mudofaa devorlarining g'arb tomonidagilari tugatildi, shimol, sharq va janub tomondagilari saqlandi. Yangi shahar qo'rg'onning janubi-g'arbida joylashgan bo'lib 121 gektar maydonni egallagan. Yangi shahar ko'rinishi aylana shakliga o'xshardi. Harbiylar va savdogarlar o'rtasida yer uchun talash boshlangan, oxir-oqibat eng yaxshi yerlar chinovniklarga tegdi.

Yaxshi, qulay yerlar aholisi uylaridan haydab chiqariladi. Odamlar xotin-bolalarini bilan duch kelgan joyga qarab ketishadi. Faqat shikoyat evaziga ba'zi odamlarga pul berib uylarini qaytarib olishadi.[3] Shahar rejasi yuqorida aytganimizdek pur xalqa tarzida edi. Bu vaqtda Zarafshon harbiy gubernatori qarorgohi hozirgi shahar hokimiyati binosi o'rnida edi. Uch nurli kompozitsiyada shahar qurilishi uchun bu bino oldida keng xiyobon shaklidagi maydon - esplanada, ya'ni Bulvar, hamda ushbu bino tomon to'g'ri tutashtirilgan uchta katta ko'cha tashkil qilingan. Bu ko'chalar Kaufmanskaya (Hozirgi Mustaqillik), Aleksandrovskaya (hozirgi Shohruh) va Nikolayevskaya (hozirgi Sharof Rashidov) ko'chalari edi. Qolgan uchta ko'cha Urgut (hozirgi O'zbekiston ko'chasi)

---

[1] Русский инвалид изь Самарканда год 1973. №8. 27-ноябр. // Туркестанский сборник. Т.248. Стр 189-191

[2] Нильсон В.А. Уистоков совеременного градостроительства Узбекистана с конца XIX начало XX века -Т:. 1988. С.97

[3] Самарканд // Туркестанский сборник. Т.57. 1872-.С. 210-212

Toshkent va Kattaqo'rg'on ko'chalari shahar qurilishining davomi bo'lib, ular ham shahar markaziga qarab yo'naltirilgan edi. To'rtta asosiy magistral yo'l yoysimon shakldagi ko'chalarni bog'lab turardi. Shaharni g'arbdan Chernyayevskaya (hozirgi Mahmud Qoshg'ariy ko'chasi). Sharqdan Aleksandrovskaya (hozirgi Shohruh ko'chasi) ko'chalari chegaralab turgan. Qolgan ikki ko'cha Kaufman (mustaqillik) va Nikolayevskaya (hozirgi Sharof Rashidov) ko'chalari shahar markazidan o'tgan bo'lib, bu ko'chalarda har xil jamoat va savdo binolari qurilishi boshlandi. Boshqa kichik ko'chalar, xususan, Chelekskaya, Domskaya, Petrovskaya, Pushkinskaya ko'chalari shahar ko'chalarini mayda kvartallarga ajratdi. Zarafshon harbiy okrugi markazida rejali ravishda harbiy va ma'muriy markaz binolari majmuasi shakllandi. Yangi sanoat inshoatlari ham juda oz edi. Filotovning pivo va vino zavodlari. Lyaminning Siyobda tegirmoni qurildi. Bu korxonalar faqat shahar ichida tayyor mahsulotni sotish uchun mo'ljallangan edi. Yangi shahar ko'rinishini aks ettiradigan asosiy qurilmalar eng avvalo xususiy uylar, savdo do'konlari va harbiy inshoatlar hisobianadi.Bu binolarning me'moriy ko'rinishi oddiy edi. Ular odatda bir qavatli bo'lib, mahalliy sharoitdan kelib chiqqian holda qurilgan edi. Yuqorida aytganimizdek harbiy qurilishlarning asosiy qismi qal'a atrofida joylashgan edi. Keyinchalik shaharning o'sishi natijasida bularning ba'zilari boshqa joylarga ko'chdi. 1883 yilda Abramov Bulvarining boshida va oxirida harbiy qal'alar qurildi. Asosiy harbiy qal'a Abramov Bulvari va Nikolayevskaya (hozirgi Sharof Rashidov) ko'chalarining burchagida joylashgan edi. Bu qurilishlarning davomi sifatida Urgut ko'chasida ham harbiy qal'a qurildi. Qurilish natijasida ikkita kvartal, Davolash korpusi va harbiy kasalxona vujudga keldi. Shundan so'ng yangi shahar maydoni 270,5 gektarni tashkil qilgan.

Yangi Samarqand shahri rejasiga baho beradigan bo'lsak unda biz ancha taraqqiy etgan loyihani ko'rishimiz mumkin. To'g'ridan to'g'ri keng ko'chalar bunyod etildi, yo'ldan ajratilgan yo'laklar ajratildi, ko'chalarda ekilgan daraxtlarni sug'orish uchun ariqlar o'tkazildi. Buni biz Nikolayevskaya ko'chasi misolida ko'rishimiz mumkin.[1] Yangi shaharda keng maydon hissoblangan Abramov bul'vari, ikkita park, markaziy park (hozirgi shahar parki) va Ivanovskaya parki (park ozero) bunyod etildi.[2]

Abramov Bulvari eski shaharning janubi-g'arbidan yangi shaharni ajratib tura-

---

[1] Нильсон В.А. Уистоков совеременного градостроительства Узбекистана с конца XIX начало XX века -Т:. 1988. С. 100

[2] История Самарканда Т.: 1971, С.356.

digan radius va Samarqandning ikki qismini bog'lab turuvchi magistral yo'l edi. Asosiy markaz bo'lgan Abramov Bulvarining kengligi 128 metr (60 sojen), uzunligi 1044 metr (490 sojen) bo'lgan. Hozirgi paytdagi kengligi 113 metr, uzunligi esa 804 metrdir. Chunki XIX asr oxirida Bulvar maydoniga Samarqand hokimi qarorgohi, ya'ni hozirgi Hamid Olimjon teatri oldigacha bo'lgan hudud qaruldi. Bulvar so'zi ham lug'aviy ma'noda daraxt ekilgan keng ko'cha deyiladi. Bulvar jamoatchilik foydalanadigan eng ommaviy yashil xiyobondir.

G'arbiy yevropada Bulvarlar XVII-XVIII asrlarda paydo bo'lgan. Moskvada 1796 yilda birinchi bo'lib Tver Bulvari qurildi.[1]

Hozirgi vaqtda Bulvar shaharning eng muhim obodonlashtirilgan qismi hisobianadi. Bulvar o'zining mohiyatiga ko'ra oddiy ko'chalar bilan shahar xiyobonlari o'rtasidagi maydonni egallaydi. Ruslar O'rta Osiyoni bosib olgach shahar qurilishida ko'kalamzorlashtirishga katta e'tibor berdilar.Ruslarning shaharni ko'kalamzorlashtirish tizimi elementlari quyidagilardan iborat: Shahar aholisiga xizmat qiluvchi uat-yashil umumiy shahar parkining shakllanishi. Shahar tumanlaridagi aholining dam olishi uchun mo'ljallangan kichkina yashil parklarning shakllanishi. Mikrorayon ko'rinishidagi bog' tizimi parkning shakllanishi. Bu ko'rinish ikki qismdan: sport o'yinlari oromgohi va sokin oromgohdan tashkil topgan. Kichkina kvartallarga mo'ljallangan bog'larning shakllanishi. Skver - uncha katta bo'lmagan uat-yashil maydon bo'lib, qisqa muddatli dam olish uchun mo'ljallangan xiyobondir. Bulvar - aholining dam olishi uchun hamda piyodalar yurishi uchun mo'ljallangan yam-yashil xiyobondir.

XIX asr oxirida Samarqandda ushbu tizim elementlarini o'zida mujassamlashtirgan Bulvar shakllandi. Bulvarda uylar hamda trotuarlar bo'ylab uch qator yo'g'on tanali daraxtlar ekildi. Daraxtlar orasi yashil o'simliklar bilan qoplandi. Bu uch qatorli yashil polosalar Bulvarning ikki tomonidagi yo'laklar bo'ylab shakllangan. Bulvarning o'rtasida esa besh qator daraxtlar ekildi. Bulvardagi bunday ko'chat ekish ishlari XIX asrning 80 yillaridanoq boshlangan edi. Bunday tashkilotchilik ishlariga M.V.Nevskiy rahbarlik qilgan. Chunki u podpolkovnik bo'lsada botanika bilimidan xabardor edi. 1894 yildan boshlab Bulvardagi va markaziy parkdagi daraxt ekish ishlariga injener polkovnik V.I.Korolkov rahbarlik qilgan. Bulvarda ispan tatasi, ko'k archalar, katta-katta daraxt va butalar, Livan kedri, har xil chinorlar, g'arbdan keltirilgan oddiy tuya deb ataluvchi

[1] Рубсов Л.И. Проэктирование садов и парков.- М.: 1979, С-141.

daraxtlar, sharqdan keltirilgan biotalar va boshqa daraxtlar ekilgan.

XIX asr oxirida 6,5 gektardan iborat uat-yashil bog' - ya'ni Abramov Bulvari massivi qurildi. O'sha davrda Abramov Bulvarida madaniy va jamoatchilik inshoatlari ham qurila boshlandi. Shunday inshoatlardan biri 1902-1904 yillarda G.M.Svarichevskiy loyihasi asosida qurilgan ayollar gimnaziyasidir.

1902-1904 yillarda Turkistonlik mashhur me'mor G.M. Svarichevskiy tomonidan xotin-qizlar gimnaziyasi Bul'varda qurilgan.[1] Shu yilning 11-avgustida Marg'ilonda ham o'sha loyiha asosida erkaklar gimnaziyasi quriladi. Bino markazida ikki qavatda joylashgan zal inshoatga chiroy baxhs etadi, (hozir bu erda SamDU ning Biologiya fakulteti joylashgan). Bu ikki qavatli bino yetarli darajada etuk loyiha asosida qurilgan bo'lib, auditoriyalardan, majlislar zalidan, shu bilan birga cherkov va bir necha o'qituvchilar xonasidan iborat. Majlislar zali ikkinchi qavatda binoning markazida, zinadan chiqqan joyda joylashgan.

G'ishtdan qurilgan binoning tashqi ko'rinishi oddiy , faqatgina binoning markaziy qismi ajralib turadi. Derazalari yarim oy shaklida qurilgan. Bu bino ayrim kamchiliklarga qaramasdan Abramov Bulvarida XX asr boshlarida qurilgan eng mustahkam bino edi.[2]

1912 yilda harbiy muhandis F.Smirnov loyihasi asosida Rastovsova va Nikolayevskiy ko'chalari burchagida harbiy shahar uchun Alekseev cherkovi quriladi.[3] Ushbu loyiha 1902 yilning mart oyida tuzilgan bo'lib sentyabrda Termizda, 1903 yil Toshkentda tasdiqlangan bo'lib 900 kishini sig'dira olardi. Cherkov zal uslubida qurilgan bo'lib 24x16 m hajmdagi zal baland gumbazli yorug' binodir, chuqur altardan uzun va yorug' kupoladan iborat. Altarning yon tomonlarida ikkitadan xona bor. Bu xonalarning biridagi zinalar orqali qo'ng'iroq joylashgan binoga chiqiladi. Qo'ng'iroq cherkov ustida joylashgan bo'lib, cherkov asosini tashkil etadi.

XIX asr oxirida shahar qurilishida rivojlanayotgan savdo, moliyaviy munosabatlar ham o'z ta'sirini o'tkazdi, natijada banklar paydo bo'la boshlaydi.

Shunday banklardan biri rus-xitoy banki hissoblanadi. Bu bank 1896 yilda Abramov Bulvarida qurildi. (hozir bu binoda SamDUning rektorati joylashgan). Bu binoning chuqur portiki-ya'ni binoga kirish joyi fasadning simmetrik markazini tashkil

---

[1] Галендар Борис. "Янги шаҳарнинг меъморий ёдгорликлари".Фан ва турмуш. 2007-йил 3-4-сон.74.бет

[2] Нильсон В.А. Уистоков совереременного градостроительства Узбекистана с конца XIX начало XX века -Т:. 1988. С.101

3 Ирисқулов О. Ёрқулов А. Самарқанд шаҳрининг ХИХ аср охири XX аср бошларида қурилган маданий иншоотлари. // Тарих ва хотира. -С 2007

qiladi. Yassi plestlar, devorlar usti va karnizlarini ushlab turadigan oynalar chizmalarida ham klassik prinsiplar ko'zga tashlanadi. Umuman olganda bu bino bir muncha yoqimli ko'rinishga ega, hatto binodagi ayrim bezaklar va detallar qurilishning me'moriy sifatini ko`rsatadi. Xuddi shu davrda Toshkentda ham savdo - manufakturalari, banklar qurila boshlandi.

Shunday qilib banklardan biri Azov - banki bo'lib, 1915 yilda F.I.Lindvol tomonidan qurilgan. Rus - Osiyo banki esa 1911 yilda qurilgan.[4]

Abramov Bulvari qurilishida faoliyat ko'rsatgan injener me'morlar A.N.CHernevskiy, N.A.Nepokupniy, I.A.Limkelarning xizmati katta bo'ldi. Abramov Bulvarida hozirgi SamDU ning Tarix fakulteti binosi o'rnida 1875 yildayoq shahar qo'riqxonasiga asos solingan edi. Bulvarda ekilgan daraxt turlari ham qo'riqxonada mavjud bo'lgan. Bulvarda «gullur maydonchasi » deb nomlanuvchi maydoncha ham mavjud bo'lib, bu maydoncha hozirgi Hamid Olimjon teatri oldida joylashgan edi. Bulvar qurilishiga general Abramov boshchilik qilgani uchun Abramov Bulvari deyiladi. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda Bulvar 1917 yilgacha Abramov nomi bilan atalgan. 1917 yildan 1938 yilgacha Bulvar Vseobugaya Bulvari deyilgan. 1938 yil martdagi O'zbekiston hukumatining qarori bilan Maksim Gorkiy Bulvari deb atalgan. 1991 yildan boshlab bu massivga Universitet xiyoboni deb nom berildi.

General - gubernator qarorgohidagi hovuzlar, Nikolayevskaya va Kaufman ko'chalari o'rtasida joylashgan edi. Abramov Bulvaridan Urgut (hozirgi O'zbekiston) ko'chasigacha hovuzlar qurildi. Gubernator qarorgohining orqa tomonidan Toshkent ko'chasigacha bo'lgan joyda markaziy park joylashgan edi. XIX asr oxirida Markaziy park bilan gubernator qarorgohi o'rtasida shaharning bosh maydoni, namoyishlar, bayramlar, o'tkazuvchi maydon shakllandi. Bu maydonda Georgiy cherkovi, ofitserlar uyi, xalq yig'ini o'tkaziladigan binolar bunyod etildi. Chernyayevskaya ko'chasining orqa tomonida jarlik bo'ylab Ivanov parki shakllandi. Umuman olganda shahardagi obodonchilik ishlari mahalliy xalqning mehnati evaziga amalga oshirildi. Bu vaqtlarda hali hamma ko'chalar ham kengaygan emas edi. Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida Samarqand shahrida kanalizatsiya sistemasi yo'q edi. Ichimlik suvi Filatov chashmasidan bochkalarda, suv tashuvchi mashinalarda olib kelinar edi. Shahar o'zgarishi tezlik bilan amalga oshirildi. Yangi kvartallar shakllandi , harbiy korpuslar , yangi massivlar qurildi. Shaharning g'arbiy qismida esa, Kattaqo'rg'on yo'lida chor ma'muriyatining

qamoqxonasi qurildi. (hozirgi viloyat kasalxona o'rnida edi). 1988 yilda Samarqandda qurilish ishlari jadallashdi. 1888 yildan boshlab Krosnovodsk-Samarqand, 1895 yildan boshlab Samarqand-Andijon temir yo'li qurildi.[1] 1885 yilda general gubernatorlik devonxonasi qoshida tashkil etilgan qurilish komiteti o'lka me'morchiligida muhim o'rin tutadi. V.I.Yakushnovskiy boshchiligida 360 km Samarqand –Termiz pochta trakti qurildi. Xuddi shu yili Samarqandni kaspiy orti viloyati bilan bog'lovchi temir yo'l qurildi. Vokzal, temir yo'l ustaxonalari, omborxonalar, Vokzal atrofidagi temiryo'lchilar shaharchasi bunyod etildi. XIX asrning 90 yillari oxirlariga kelib shahar ichida ham temir yo'l qurilishi boshlandi. Qisqa vaqt mobaynida shaharda sezilarli darajada yirik o'zgarishlar yuz berdi. 1880 yilda shahar ichida yangi qal'a bunyod etildi. Uning maydoni 8 gektar bo'lib devorlari juda mustahkam. Beshqirrali harbiy dala devori bilan qoplangan. Qal'a devorlari shimol va janubi-sharqdan dushmandan mudofaa maqsadida qurilgan. Qal'a ichida yangi qal'a qurilish rejalashtirilgan edi. Mahalliy shakldagi eski binolar yangi qal'a tashqarisida qoldi. Esplonada shaklidagi keng maydon shakllandi. Bu maydon yangi qurilgan qal'aning ko'rkamlashtirildi. Ba'zi harbiy qal'alar shaharga ko'chirildi.

Harbiy qal'alarning ko'chirilishi shaharni qal'a tomonga qarab kengaytirildi. Bu erda Esplonadnaya (hozirgi Oxunboyev) ko'chasi paydo bo'ldi.[2] 1903 yilda yangi shahardan shimolga qarab kichik hududiy chegara ajratildi. Petrovskaya, Nikolayevskaya, Kaufman ko'chalari shimol tomonga cho'zildi. Bu ko'chalar Kladbishinskaya ko'chasi hisobiga kengaytirildi. 1906 yilga kelib 1883 yilda tuzilgan reja bajarishga kirishildi. Va bu reja topograf Nillening loyihasiga binoan harbiy kasalxona tomonga yo'nalgan Chernyayevskaya xiyoboni kvartallarining maydonida vujudga keldi. Xuddi shu yerning o'zida Rostovseva Karshinskaya ko'chalari davom ettirildi. Hamda bu ko'chalar Nekrasova, Novagospitalnaya ko'chalari maydonini egalladi. Shaharning bu qismidagi o'zgarishlar 1916 yilgacha davom ettirildi. Samarqand statistika boshqarmasining 1893 yilgi ma'lumotlarga ko'ra shaharning ruslar yashaydigan qismida 10128 ta kishi yashagan, shulardan 4828 tasi harbiy xizmatchilar edi.

Shaharning ruslar yashaydigan qismida 115 ta ofitser, 130 ta xizmat qiluvchilar, 42 ta shifokorlar, 7 ta injiner, 32 ta zemlomer, 6 ta artrist 4 ta musiqachilar, 1 ta

---

1 Ирискулов О. Шарипов С. Университет хиёбони тарихидан. // Ватан тарихининг долзарб муаммолари. 2004

2 Чабров Г. Страницы истории Самарканда (1808-1916) -Т:. 1962, С.98

haykaltarosh, 1 ta rassom yashagan.[1] Shahar maydoni uncha katta emas edi. XX asr boshlarida ruslar yashaydigan maydon esa 4629 desyatina edi. Bu davrda asosan shahar hayoti uchun muhim bo'lgan savdo va sanoatni qayta ishlash tarmoqlariga katta e'tibor berildi.[2] Lekin bu narsalar ham shahar qiyofasini o'zgartira olmadi. Chunki Samarqand qadimdan ixcham, uat - yashil obod shahar edi. Samarqand me'morlari, muhandislari orasida shahar qurilishi uchun muhim xizmat ko'rsatganlardan biri, harbiy, jonkuyar muhandis Chernyayevskiy edi. Bo`lajak topograf, ajoyib tashkilotchi, irrigator, birinchilardan bo'lib, yirik ishlarga qo'l urdi. U Shohizinda yo'lining qurilishida, boshqa katta ko'chalarning kengaytirilishida, ko'priklar bunyod etilishida jonbozlik ko'rsatdi. U birinchi bo'lib, Zarafshon okrugining geografik xaritasini tuzishga rahbarlik qildi. Shu jumladan 1873 yildan 1875 yilgacha bo'lgan davr orasida bunyod etilgan okrug boshlig'ining uyi qurilishida, markaziy park qurilishida qatnashdi. 1874 yilda esa yo'llar, ariqlar qurilishiga hamda boshqa ko'kalamzorlashtirish ishlariga boshchilik qildi. Samarqandagi qurilishlarda injener P.A.Nepokupniy faol ishtirok etib, okrug boshlig'ining uyini rejalashtirgan.Muhandis CHhernyayevskiy yangi Samarqand markazi bo'lmish bulvarni ko'kalamzorlashtirish ishida ham faoliyat ko'rsatgan.

Zarafshon okrugi gubernatori uyi loyihasini, ofitserlar uyi qurilish loyihasini tuzgan. Samarqand shahri qurilishida faoliyat ko'rsatgan me'morlardan biri Limke edi. 1882 yilda Samarqandlik me'mor I.A.Limke tomonidan avliyo Georgiy Pobedanosis provaslav cherkovi loyihasi tuziladi.[2] Ushbu Cherkovning gumbazlari me'moriy qismlarining aksariyati saqlanmagan. 1917 yildan keyin Cherkov berkitildi, uning binosida uzoq yillar Samarqand OSOAVI AXIM (mudofaga, aviatsiya va kimyo inshootlari qurilishiga ko'maklashovchi jamiyat) tashkiloti joylashgan. 1919 yilda 1-jahon urushida asirga tushgan me'mor E.Raum loyihasi bo'yicha cherkov yonida Ozodlik yodgorligi barpo etilgan. U yangi Georgiy xristian cherkovi qurilishi loyihasini ishlab chiqqan. Georgiy cherkovi o'zining avvalgi qiyofasini yo'qotgan. Cherkovning hozirga qadar saqlangan birdan-bir elementi kirish peshtoqidir. To'rtta katta to'g'ri burchakli fasaddan uzoqda joylashgan ustunlar cherkovning old qismidagi uncha chuqur bo'lmagan naqshlari binoning tashqi ko'rinishini bezab turadi.

---

[1] Нильсон В.А. Уистоков совеременного градостроительства Узбекистана с конца XIX начало XX века -Т:. 1988. С.104

[2] Галендар Борис. "Янги шаҳарнинг меъморий ёдгорликлари".Фан ва турмуш. 2007-йил 3-4-сон.74.бет

Georgiy xristian cherkovi 1882 yilda qurilgan inshoatlar ichida eng ajoyib me'morchilik durdonasi hisobianadi. Boshqa yirik shaharlardagi cherkovlar bilan solishtirsak (xususan Toshkentdagi cherkov)[1] bu cherkovni uncha katta deb bo'lmaydi. Boshqa cherkovlar kabi uning ham loyihasi oddiy edi. 17, 35 x 8, 9 cherkovning g'arbiy qismida o'ziga mos altar bor. Kirish peshtoqi uch qismli portik shaklda qurilgan. Cherkovga kiruvchi xizmat xonasi ikkita xonadan iborat. Cherkovning sharqiy tomonida xuddi shunday to'rtburchakli xona mavjud. Cherkovning barcha ichki xonalarining shiftlari bir xil hajmda edi va ularning tepasini temir qatlamalar bosib turardi. Cherkovning hajmiy ko'rinishi o'ziga xos qiziqarli edi. Binoning old qismining ko'rinishi uning hashamatliligini ifodalaydi. Qo'ng'iroqxonaning ikki yonidagi gumbazchalar cherkovga ajoyib ko'rinish berardi. Bu cherkovning umumiy ko'rinishiga ko'k rang manzara berar edi. Uning ichidagi oq soyali chiziqlar uni ko'rkamlashtirib turardi. Ikki qismdan iborat arkning chap tomondagi toshlari ajralib turardi. XIX asrning ikkinchi yarmi Rossiya cherkovlari·orasida shu cherkov o'ziga xos ko'rinishi bilan ajralib turardi. Shahardagi ikkinchi eng asosiy bino zobitlar uyi bo'lib, cherkov qarshisida qurilgan. Bu bino boy tarixga ega. O'zbekiston poytaxti Samarqand bo'lganida shu binoda hukumatning bosh binosi joylashgan. Mana shuncha vaqt davomida ko'p marotaba ta'mirlanganligiga qaramay o'zining asl ko'rinishini yo'qotgani yo'q . 1887 yilda zobitlar uyida 1 marta ta'mirlash ishlari bo'lib o'tgan. Kattaligi jihatidan Toshkentdagi zobitlar uyidan kichikroq bo'lsada, turli kechalar, ballar, uchrashuvlar uchun barcha sharoitlar bo'lgan. Bu bino loyihasi ham oddiy b'olib, kichik kvadrat shakldagi vestybulidan 12,5 metr yarmidagi katta zalga kiriladi. Bino markazidagi bu zal oshxona va mexmonxonaga tutashib ketgan. Bilyard xonasi, karta o'yini xonasi ham bo'lgan. Kirish eshigini qarshisidagi dahlizdan bog'ga chiqish yo'li bo'lgan. Bu inshoat 1882 yilda qurilgan. Binoning kompozitsion ko'rinishi juda oddiy. Binoning markaziy qismini katta zal tashkil etadi. Zalning uzunligi 18.5 metr bo'lib, kirish joyining qarshisida peshayvon joylashgan. Bu erdan markaziy parkka chiqish mumkin edi. Bir qavatli bu binoning old qismi ko'rinishi klassitsizm uslubiga xos bo'lmagan ko'rinishda qurilgan. Bino devorlarida qatorasiga ustki qismi yoysimon bo'lgan derazalar joylashgan bo'lib, karnizlari klassik ko'rinishda edi. Kirish qismidagi ayvon ustunlari g'isht bilan terilgan bo'lib binoni hashamatli qilib ko'rsatar edi. Bino qurilishida yetarli darajada yuqori

---

[1] Зияев А. Центр Ташкента: прошлое и настоящее. -Т:. 1987, С.9

me’morchilik uslubidan foydalanganligi va uning masshtabi yaxshi belgilanganligi sababii hozirgi me’morchilik talabiariga javob beradi.

1895 yilda Kaufman va Urgut ko’chalari burchagida jamoatchilik majlisi (общеетвеннтй собрание) binosi qurildi va 1896 yilda G.M. Svarchevskiy rejasi asosida qayta qurilib, tomosha zali hisobiga kengaytirildi.[1] O’zining texnik va badiiy go’zalligi jihatidan boshqa binolardan farq qilmas edi.

1880 yilning boshlariga kelib Nikolayevskaya va Urgut ko’chalarining burchagida birinchi yozgi teatr binosi qurilishi boshlandi. Bu bino 1891 yilga kelib injener Petrovskiy tomonidan qayta tiklandi. Tuzilishi jihatidan oddiy ko’rinishidan bino vaqtinchalik xarakter kasb etardi. Bu bino mahalliy tomoshalar joyi vazifasini bajardi.

Hozirgi kunda ham faoliyat ko’rsatayotgan Abramov Bulvarining boshida joylashgan «Vatan» mexmonxonasi o’sha davrda qurilgan. Bu bipo «R» shaklda qurilgan bo’lib, rus harbiy qo’shinlari shtabi boshlig’i binosi edi. Binoning shu qismi Bulvarga qaratilgan. Qo’shinlar shtabi binosi harbiy maqsadlar uchun qurilgan edi. Bir qavatli bu bino pishiq g’ishtdan qurilgan. Bu g’ishtlar binoga harbiy ko’rinish berish uchun qilingan vosita edi. Binoning detallari o’z qiyofasini yaxshi ko’rsatadi, hamda uning sifatli qurilganligidan dalolat beradi. Binoning ichki tuzilishiga e’tibor bersak u yerda zal mavjud bo’lib, bu zalga shtab boshlig’ining xonasi tutashib ketgan. Uslublardan to’g’ri foydalanish va chiziqlaridagi tozalik binoni boshqa binolardan ajratib turadi. Binoning ichki tuzilishi unchalik murakkab emas, binoning asosi hissoblangan zal shtabga bog’langandir. XX asr boshlarida Samarqandda qurilgan madaniy inshoatlarning barchasi rus harbiy muhandislari nomi bilan bog’liqdir.

1911 yilda Chernayev va Vereshagina ko’chalari tutashgan joyda V.S. Geytselman loyihasi asosida xalq kutubxonasi qurilgan.[2] Bu binoning birinchi chizmalari 1899 yilda M.V.Inishxiy-German tomonidan tuzilgan, lekin bu loyiha V.S.Geytselman tomonidan rad etilgan. Geytselman ushbu bino uchun ikkita loyiha tayyorlaydi va unda muzey, tomosha zali, o’quv zali ham kiritilgan. 1901 yil 9-noyabrda Samaratskiy ushbu rejalardan birini tasdiqlaydi va muzey, tomosha zali, o’quv zaliga ega bino qurilishi lozim edi. Lekin qurilish ishlari 1910 yilgacha boshlanmaydi. 1910 yil 22-iyunda qurilish ishlari bo’yicha ma’sul G.M. Svarchevskiy loyihani tasdiqlagach, Samarqand viloyat

---

[1] Нильсон В.А. Уистоков совеременного градостроительства Узбекистана с конца XIX начало XX века- Т:. 1988. С103

[2] Ўша жойда С 106.

me'mori P.Lebedov boshchiligida qurilish ishlari boshlandi. Birinchi bo'lib Chernayev ko'chasidagi qismi qurilgan. Binoda turli kattalikdagi beshta xona bo'lib maxsus yo'lak ularni birlashtiradi. Ichki tomoni sodda qilib bezatilgan. Tashqi qiyofasi ancha chiroyli. Markaziy qismi alohida ajratilgan. Temir panjara bilan o'rab olingan. Biroq tomosha zali qurilmagan.

Binoning ichki ko'rinishi Geytselmon ijodini namoen etadi.[1] Xalq kutubxonasi qurilishi Samarqand me'morchiligi rivojiga katta hissa qo'shadi, hamda uning qurilishi gotik uslubining xarakterini beradi. Uning markaziy qismi diqqatga sazovordir. U g'ishtdan qurilgan ikki burchakli minoradan iborat. Minoraning pastki qismida ikkita yoysimon deraza yuqori qismida esa naqshli frakton mavjud. Kutubxonaning chap tomonlaridagi devorlarda ham derazalar bor. Bu bipo o'zining qurilish uslubi jihatidan ham ajralib turadi.

Samarqandda 1908 yilda muhandis Kostalskiy loyihasi asosida Chernyaevskaya va Qarshi ko'chalarining burchagida Davlat banki qurilgan. Qadimgi rus me'morchiligi shakllariga o`xshash . Injener binoni juda ham murakkab tarzda, ko'p hajmli kompozitsiya loyihasi bilan bunyod etdi. Bu bino qurilgan joylarni o'rganib chiqqandan so'ng qarasak , bular jamoat va madaniyat markazi bo'lishi uchun rejalashtirilganligini ko'ramiz.

Biz binolarning qurilishini o'rganib chiqib, shunday xulosaga keldikki, Samarqand dastlab harbiy qal'a vazifasini bajarish uchun qurilgan edi. Chunki Chor rossiyasi ma'muriyati bu harbiy qal'adan Turkistonning barcha shaharlarini bosib olishda qarorgoh sifatida foydalanmoqchi edi. Qolaversa Buxoro amirligi hududini ham ishg'ol qilish rejalari yo'q emas edi. Shuning uchun ham shahardagi qurilishlarning asosini harbiy inshoatlar tashkil etadi.

